

Zamonaviy Jamiyat va Innovatsiyalar

ILMIY NAZARIY JURNAL

ISSN 3060-544X

4

ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ilmiy-nazariy jurnal

СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ИННОВАЦИИ

научно-теоретический журнал

MODERN SOCIETY AND INNOVATIONS

scientific-theoretical journal

№ 4-son, 2025-yil

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-aprel kuni № 720072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.
--

BOSH MUHARRIR:
Tilavov Muxtor Hasan o'g'li
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya).

Xamidov Obidjon Xafizovich - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri).

Qodirov Azizjon Anvarovich - iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani).

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini dotsenti).

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi).

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasini mudiri).

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri).

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li - filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti dekani).

Atayeva Mexriniso Farxodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari va elektronika kafedrasini dotsenti).

Turdiyev Bexruz Sobirovich - falsafa fanlari doktori (DSc), (Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasini professori).

Yo'ldoshev Sobitali Zoxidjon o'g'li - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti)

Mas'ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

Xuseynova Abira Amanovna,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsmanning) Buxoro viloyati mintaqaviy vakili, falsafa fanlari doktori, professor

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK MOTIVATSIYANING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini belgilovchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda 18-35 yoshdagi 30 nafar shahar xotin-qizlari ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida self-efficacy (o'ziga bo'lgan ishonch), ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ichki motivatsiya, stressni boshqarish, rahbarlik salohiyati, madaniy-milliy qadriyatlar va jamoaviy ishonch omillari baholandi. Natijalar shundaki, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun jamoadagi ruhiy-ma'naviy yordamni kuchaytirish, stressga qarshi treninglar, rahbarlik va motivatsiya dasturlarini joriy etish zarur. Ushbu yondashuv gender tengligini mustahkamlash va jamiyatdagi ayollarning o'zini erkin ifoda etishi uchun muhim asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, xotin-qizlar, ijtimoiy faollik, self-efficacy, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, stressni boshqarish, madaniy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические факторы, определяющие социальную активность женщин в Новом Узбекистане. Исследование основано на результатах опроса 30 городских женщин в возрасте 18-35 лет, в котором оценивались self-efficacy (уровень уверенности в себе), социальная поддержка, внутренняя мотивация, управление стрессом, лидерский потенциал, культурно-национальные ценности и доверие в сообществе. Результаты показали, что для повышения социальной активности женщин необходимо укреплять морально-психологическую поддержку в коллективе, проводить тренинги по управлению стрессом, а также внедрять программы развития лидерства и мотивации. Такой подход создаёт основу для укрепления гендерного равенства и свободного самовыражения женщин в обществе.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, женщины, социальная активность, self-efficacy, социальная поддержка, управление стрессом, культурные ценности.

Abstract. This article analyzes the psychological factors determining the social activity of women in New Uzbekistan. The study is based on survey results from 30 urban women aged 18-35, assessing self-efficacy, social support, intrinsic motivation, stress management, leadership potential, cultural-national values, and community trust. Findings indicate that enhancing women's social activity requires strengthening moral and psychological support within the community, providing stress management training, and implementing leadership and motivation programs. This approach lays the foundation for reinforcing gender equality and enabling women's free self-expression in society.

Keywords: New Uzbekistan, women, social activity, self-efficacy, social support, stress management, cultural values.

Kirish. Jahon ilmiy tadqiqot markazlari yetakchi ta'lim muassasalarida xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligini hamda ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, Kanada Xotin-qizlar Tashabbusi (Women's Initiative Canada) 2022–2024-yillar oralig'ida 17 ta davlatda psixologik barqarorlik, liderlik ko'nikmalari va ijtimoiy motivatsiyani kuchaytirishga oid trening modellarini ishlab chiqdi. Bundan tashqari AQShdagi Stanford Universiteti esa "Social Identity and Participation" loyihasi doirasida xotin-qizlarda ijtimoiy identifikatsiyani mustahkamlash va ularda jamiyatga dahldorlik hissini shakllantirishga qaratilgan psixologik mexanizmlarni chuqur tahlil qilmoqda. Bu kabi tadqiqotlar Yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarning psixologik jihatdan



ijtimoiy faolligini oshirishda shaxsiy, emotsional va intellektual omillarni kompleks tahlil qilish zaruriyatini yanada kuchaytirib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda ham xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022-yilda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasida xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Gender tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil holatida mamlakatimizda xotin-qizlarning tadbirkorlik sub'yektlari soni 45 foizga ortib, ular tomonidan yaratilgan ish o'rinlari ham sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, Respublikada amalga oshirilayotgan "Ayollar daftari" tizimi orqali hozirgi kungacha 1 milliondan ortiq xotin-qizga moddiy va psixologik ko'mak ko'rsatilganligi qayd etilmoqda. Bu jarayonlar ayollarning ijtimoiy-psixologik salohiyatini kuchaytirish hamda jamiyatdagi ishtirokini yanada faollashtirish uchun psixologik mexanizmlarni ilmiy asoslangan holda joriy etish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Usmanov va Hamroqulov (2021) – o'zini o'zi samarali boshqarish (self-management) va o'ziga bo'lgan ishonch (self-efficacy) psixologik konstruktleri xotin-qizlarning ijtimoiy tashabbuskorligi darajasiga ta'sirini o'rganishdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqori darajadagi o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalari va o'ziga bo'lgan ishonch ijtimoiy faollikni 25–30 % ga oshiradi.

Nabiev (2022) – qishloq joylardagi xotin-qizlar orasida liderlik salohiyatini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan empirik tadqiqotda, mahalliy madaniy antropologiya va gender stereotiplari kombinatsiyasi ularning umumiy rahbarlik intilishlarini 15–20 % ga pasaytirishini ko'rsatdi. Muallif o'rta muddatli mentor-programmalarni joriy etishni taklif qiladi.

Rakhmonova va Ismoilova (2021) – raqamli media va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish psixologik omillarini o'rganishda, onlayn tarmoqdagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (social support) darajasi va real hayotdagi ijtimoiy faollik o'rtasida sezilarli ijobiy korrelatsiya aniqlashdi ($r=0,42$; $p<0,01$). Shu bilan birga, raqamli charchoq va "tarmoqqa o'ralashish" sindromi ham stress darajasini oshiradi.

Kozimova (2023) – psixologik barqarorlik (resilience) va ruhiy salomatlik omillari xotin-qizlarning jamiyatdagi ko'ngilli tashabbuslarda ishtirokini qanday qo'llab-quvvatlayotganini tahlil qildi. Unga ko'ra, yuqori darajadagi ruhiy salomatlik 40 % ga yaqin faollik o'sishiga olib keladi, ammo majburiy ijtimoiy rollar ham stressni kuchaytiradi.

Karimova va Tursunov (2024) – onlayn va oflayn psixologik trening dasturlarining samardorligini sinovdan o'tkazib, ijtimoiy faollikni kuchaytirish bo'yicha 12 haftalik ko'p bosqichli kurs ishtirokchilari 35 % kognitiv motivatsiya va kommunikativ kompetensiyasi oshgani ma'lum bo'ldi. Maxsus modulda stress-boshqarish va murosaga kelish treninglari qo'llanilgan.

Saidayeva (2022) – Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayollarning ijtimoiy faolligini psixologik faktorlar bo'yicha solishtirma tahlilida, O'zbekistonda qatnashuvchilar psixologik qo'llab-quvvatlash va tarmoq aloqalariga nisbatan qanchalik tayyorligi boshqa mamlakatlarga nisbatan 10–12 % yuqori ekanligini aniqladi. Muallifa bu ustunlikni zamonaviy siyosiy islohotlar va mahalliy mentorlik tizimlari bilan izohlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini belgilovchi asosiy psixologik omillarni aniqlashga qaratildi. Natijalardan ma'lum bo'ldiki, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va stressni boshqarish omillari eng yuqori o'rtacha ballarga ega bo'lib, ular xotin-qizlarni turli ijtimoiy tashabbuslarda faol ishtirok etishga eng kuchli undovchi omillar ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, rahbarlik salohiyati, ichki motivatsiya va o'ziga bo'lgan ishonch ham ijtimoiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynashi aniqlangan.

Tadqiqotda ochiq-yashirin-guruh usullari yordamida yig'ilgan ma'lumotlarga asoslanib, eng past baholangan omil - madaniy-milliy qadriyatlar bo'ldi. Bu jamiyatdagi qadriyatlar o'zgarishi jarayonida zamonaviy va an'anaviy tushunchalar ziddiyati hamon mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun gender stereotiplarini yo'qotish va egalitarian qadriyatlarni targ'ib qilish bo'yicha



maxsus kampaniyalar, madaniy yangilanishni qo'llab-quvvatlovchi seminarlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'ziga bo'lgan ishonch va jamoaviy ishonch kabi omillarni mustahkamlash maqsadida shaxsiy kompetentsiyalarni rivojlantiruvchi treninglar, mentorlik dasturlari va guruh mashg'ulotlari tashkil etish lozim. Stressni boshqarish bo'yicha salomatlik va psixologik yordam markazlari orqali maxsus mashg'ulotlar o'tkazilishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytiruvchi mahalla va jamoa dasturlari esa ayollarning jamiyatdagi faoliyatini sezilarli darajada rag'batlantiradi.

Kelgusida tadqiqotni katta namuna ($n > 100$) va sifat-miqdoriy metodlarni integratsiyalab davom ettirish, shuningdek, uzoq muddatli monitoring orqali olingan natijalarni tahlil qilish muhim. Bunday keng qamrovli yondashuv xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va gender tengligini ta'minlash bo'yicha aniq, asosli siyosat va amaliy choralar ishlab chiqishda poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahriri, O'zR 30.04. 2023 y. O'z. R 01.05.2023 y. O'RQ-837-son Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq tasdiqlangan) // <https://lex.uz/uz/pdfs/6445145> (murojaat sanasi: 18.05.2023).
2. Барабанова, В.В., Зеленова, М.Е. Представления студентов о будущем как аспект их личностного и профессионального самоопределения/ В.В. Барабанова, М.Е. Зеленова // Психологическая наука и образование. - 2002. - №2. - С. 12-23
3. Клочко, В.Е. Щит Персея и круг Хомы: психоисторический этюд [Текст] / В.Е. Клочко// Сибирский психологический журнал. - 2003 - № 19.-С. 11-17.
4. Arziqulov D.N. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar kursi. Toshkent. "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2012. – 128 b.



Boltayeva Muhayyo,
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD
Yusufjonova Madinabonu,
Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI ASOSIDA KREDIT-MODUL TIZIMINI TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIGA MOSLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Mustaqil ta'lim faoliyatini samarali boshqarish jarayonida kredit-modul tizimini integratsiyalash uni o'rganish, moslashtirish masalalari ushbu maqolada bayon e'tilgan. Rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Janubiy Koreya ta'lim tizimi tajriba sifatida O'zbekiston Respublikasining ko'plab jabhalarida o'rganilmoqda. Maqolada, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lim mazmunini individualizatsiyalash, hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv hamkorlikni kuchaytirishning zamonaviy yondashuvlari, mamlakatimiz ta'lim tizimiga ham kredit-modul tizimini olib kirish imkoniyatlari tahlil qilinishi, yutuq va kamchiliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, Janubiy Koreya tajribasi, ta'lim boshqaruvi, individual yondashuv, o'quv jarayoni.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы интеграции кредитно-модульной системы в процесс эффективного управления самостоятельной учебной деятельностью, а также её изучения и адаптации. Образовательная система Южной Кореи, как одной из развитых стран, изучается в различных сферах Республики Узбекистан в качестве примера. В статье анализируются современные подходы к формированию навыков саморазвития у учащихся, индивидуализации содержания образования, а также усилению интерактивного взаимодействия между преподавателем и учеником. Также рассматриваются возможности внедрения кредитно-модульной системы в национальную систему образования, её преимущества и недостатки.

Ключевые слова: Кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, опыт Южной Кореи, управление образованием, индивидуальный подход, учебный процесс.

Abstract. This article discusses the integration of the credit-module system in the effective management of independent learning activities, as well as the issues of studying and adapting it. The education system of South Korea, one of the developed countries, is being studied as an example in various fields of the Republic of Uzbekistan. The article analyzes modern approaches to developing students' self-improvement skills, individualizing the content of education, and strengthening interactive cooperation between teachers and students. It also explores the possibilities of introducing the credit module system into our national education system, along with its advantages and shortcomings.

Keywords: Credit-modular system, independent learning, South Korean experience, education management, individual approach, learning process.

Kirish. XXI asrdan boshlab, ta'lim tizimi oldiga yangicha talab va vazifalarni qo'ymoqda, jumladan, axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi ayniqsa, oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil o'qishga, o'zini-o'zi rivojlantirishga va mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlardan biri 2020-yildan boshlab kredit-modul tizimining joriy etilishi, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan. Biroq, tahlillar natijasiga ko'ra, ilg'or xorijiy tajribalarni, xususan, Janubiy Koreya ta'lim tizimini o'rganish orqali uni yanada takomillashtirish zaruriyati mavjud.



Janubiy Koreya ta'lim tizimi kredit-modul tizimini samarali qo'llagan mamlakatlardan biri bo'lib, mustaqil ta'lim faoliyatini yuqori amalga oshirishda samaradorlikga erishgan. Shu boisdan, ushbu mamlakat tajribasini o'rganish, uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish zaruriyati mavjud.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim faoliyatining tashkil etish va boshqarilishda jarayonning tadqiqot obyekti sifatida ko'riladi. Shuningdek, kredit-modul tizimi asosida mustaqil ta'lim faoliyatini boshqarishning metodik, tashkiliy va amaliy jihatlar hamda bu tizimni mamlakatimiz ta'lim amaliyotiga moslashtirish yo'llari maqolaning tadqiqot predmetiga misol bo'la oladi.

Asosiy qism. Aralova (2024) o'z maqolasida kredit-modul tizimi haqida gapirar ekan, uni avvalo ta'limni tashkil etish jarayoni, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanishi, tizimni bir butunlikda olib borish ko'p tarmoqli, hamda murakkab bosqichli jarayon ekanligi haqida ta'kidlaydi.

Xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ushbu tizimda o'z ta'lim yo'nalishini mustaqil tanlash, individual o'qish jadvalini tuzish va o'zlashtirishni amalga oshirish kabi imkoniyatlar talabaga beriladi. Muayyan fan yoki mavzu bo'yicha tuzilgan, maqsadli bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mustaqil o'quv bloklaridan biri "Modul" deb ataladi. Har bir modul o'ziga xos tuzilishga ega va bir necha qismlarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'quv maqsadlari va natijalari, mavzular va mashg'ulotlar rejasi, mustaqil ishlar va topshiriqlar, baholash mezonlari va vositalari, amaliy topshiriqlar va testlar shular jumlasidandir. O'quv yuklamasining o'lchov birligi esa "Kredit" deb ataldi va bir kredit o'rtacha 25-30 akademik soatga teng bo'ladi. Bu soatlar auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar, laboratoriyalar, seminarlar, va baholash ishlarini qamrab oladi. Ushbu kreditlar talabaning yillik o'quv yuklamasini belgilash, o'quv fanlari hajmini o'lchash, akademik mobillikni ta'minlash, baholash va reyting tizimini standartlashtirish maqsadida ishlatiladi. Modul va kreditlar tizimi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har bir modul ma'lum miqdordagi kredit birligiga ega bo'ladi. Bu esa ta'limning aniq, izchil va shaffof tashkil etilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (Sh.Mirziyoyev, 2022) ta'limda sifat, mazmun, va erkinlikni oshirish zarurligini ta'kidlab, kredit-modul tizimining samarali joriy etilishi haqida alohida urg'u beradi. U o'z nutqida "Kredit-modul tizimi orqali har bir talabaga mustaqil bilim olish, o'z qiziqishiga mos fanlarni tanlash imkoniyati beriladi. Bu esa yoshlarimizni mustaqil fikrlashga, izlanishga, shaxsiy rivojlanishga yetaklaydi."deydi. 2020-yil 6-noyabrda PQ 4884sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida gap boradi. Ushbu Qarorda oliy ta'limda kredit-modul tizimi joriy etish, o'qitish jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, o'zlashtirish monitoringini kuchaytirish haqida so'z boradi. Bu hujjat Prezident tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bo'lib, kredit tizimining talabani markazga qo'yish, samaradorlikni oshirish, va xalqaro standartlarga moslashish yo'lida muhim qadamlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Prezidentning (Sh.Mirziyoyev, 2021) yana bir strategik nutqida ta'limning barcha bosqichlarida raqobatbardosh, ochiq va sifatli tizim yaratish, o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish va kredit-modul tizimini chuqur joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

"Kredit-modul tizimini joriy etish orqali biz nafaqat xalqaro ta'lim tizimiga integratsiyalashamiz, balki har bir yoshga o'z salohiyatini erkin namoyon etish imkoniyatini yaratamiz." UNESCOning "Higher Education in Korea" (2021) – "Koreyadagi oliy ta'lim" hisobotida u mamlakat ta'lim tizimining transformatsiyasi, xususan, kredit tizimi asosida qanday qilib yuqori sifatli ta'limga erishilganligi batafsil yoritilgan. Shuningdek, hisobotda mustaqil ta'limning strategik ahamiyati, o'quvchilarning erkinlik darajasi va modul asosidagi dasturlar tahlil qilingan. Xalqaro statistik hisobotda (OECD "Education at a Glance", 2023) Janubiy Koreya, O'zbekiston va boshqa davlatlar ta'lim tizimlarining samaradorlik ko'rsatkichlari, moliyalashtirish modeli va mustaqil ta'limga ajratilgan vaqt tahlil qilinadi. (Song, Y, 2022) maqolasida Janubiy Koreyada modul ta'lim tizimi qanday ishlashi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi aloqa, mustaqil ishlarni



baholanishni amaliy misollar bilan yoritgan. Masalan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktivlikni oshirish uchun bir necha samarali yondashuvlar tavsiya etilgan. Mentorlik roli sifatida o'qituvchilar dars jarayonida mentor sifatida ishtirok etib, talabalarni yo'naltiradi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Interaktiv darslarda interaktiv metodlar, masalan, guruhli muhokamalar, loyiha asosida o'qitish va amaliy mashg'ulotlar qo'llaniladi. Amaliy misollar sifatida, Yonsei universitetida modul ta'lim tizimi asosida talabalar o'z o'quv rejasini mustaqil tuzishlari va baholash mezonlarini belgilashlari mumkin yoki Seul Milliy universitetida talabalar o'z mustaqil ishlarini elektron platformalar orqali topshirishlari va o'qituvchilar bilan onlayn muloqot qilishlari imkoniyatiga ega ekanligi, maqolada keltiriladi.

(Kim Jong-ho, 2021) Janubiy Koreya ta'lim tizimi bo'yicha ko'plab maqolalar muallifi bo'lib, uning "Reforming Higher Education through Modular Curriculum: Korean Experience" nomli maqolasida ta'limda modullashtirish va kredit tizimi asosida mustaqil o'quv faoliyatini qanday rivojlantirish mumkinligi ko'rsatib berilgan. U talabaning o'z ustida ishlash kompetensiyasini rivojlantirishni asosiy yo'nalish sifatida belgilaydi. Mahalliy O'zbekistonlik olim Ravshanov (2022) tomonidan yozilgan maqolada, kredit tizimini O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida amaliy joriy etish bo'yicha takliflar va misollar asosida bayon qiladi va tizimning joriy etilish bosqichlari, mavjud muammolar va ularni yyechish yo'llarini atroflicha tahlil qiladi. U muhim vosita sifatida esa, kredit-modul tizimini shaffof, erkin va samarador ta'minlash ekanligini ta'kidlaydi.

Professorlar Nematov A. va Usmonova D. (2021) o'z maqolalarida O'zbekiston oliy ta'limidagi kredit tizimi joriy etilishi bilan bog'liq metodik va tashkiliy masalalarni yoritib berishgan. Ular kredit-modul tizimi orqali o'quv yuklamasining adolatli taqsimlanishini, mustaqil ta'lim salmog'ining oshirishini va o'qituvchining mentor sifatidagi rolini ilgari surishadi.

Dr.Worthning (2019) "Credit-Based Learning Systems: Global Comparisons and Local Adaptations" nomli asarida turli mamlakatlarda kredit tizimi qanday ishlaydi, ularning milliy ta'lim tizimiga moslashuvi va Koreya tajribasining kuchli tomonlari batafsil tahlil qilingan. U "Model mamlakat" sifatida Janubiy Koreya yaqqol namuna ekanligini ta'kidlaydi.

Munozara. Kredit-modul tizimini tatbiq etishda Janubiy Koreya tajribasi va O'zbekiston ta'limi bilan taqqoslash

Bugungi kunda Osiyo mintaqasida ta'lim sohasidagi ilg'or davlatlardan biri Janubiy Koreya sanaladi. Mamlakatda kompetensiyalarga asoslangan ta'lim, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, va kredit-modul tizimi asosida individual o'quv rejalarini shakllantirish strategik maqsad sifatida 1990-yillardan boshlab belgilangan. Janubiy Koreyada tashkil e'tilgan kredit-modul tizimi orqali talabalar o'z ta'lim yo'nalishini, fanlarini va o'qituvchilarini tanlash erkinligiga ega, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlovchi raqamli platformalar "K-MOOC, EBS, Cyber Campus" kabi platformalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Har bir modul bo'yicha oraliq va yakuniy baholash imkoniyati bor. Aytish kerakki, Janubiy Koreya kredit tizimi AQSH, Yevropa davlatlari va boshqa Osiyo mamlakatlari bilan muvofiqlashtirilgan hamda tan olingan. Shuningdek, u yerda ta'lim oluvchilarning mustaqil o'qishlariga rahbarlik qilish uchun akademik maslahatchilar instituti tashkil etilgan. Bu tizimda har bir talaba o'z o'qish yo'nalishi bo'yicha maslahat oladi va o'zining yutuqlarini muntazam baholab boradi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini qo'llash imkoniyatlari:

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda barcha olib borilayotgan islohotlar qatori, oliy ta'limda ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, 2020-yildan boshlab, bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tish boshlangan. Albatta, bu borada yutuq va muammolar mavjud. Erishilgan yutuqlar sarasiga, oliy ta'lim muassasalarining ko'pchiligida kredit-modul tizimi amaliyotga tatbiq etildi, mustaqil ta'lim soatlari aniq belgilandi hatto ba'zi fanlarda 40-60 foizgacha o'sish kuzatildi. Elektron baholash tizimlari "my.uzedu, LMS platformalari" joriy qilindi. Modulga asoslangan fan dasturlari ishlab chiqildi. Yyechilishi zarur bo'lgan muammolar qatoriga, talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan mas'uliyat va tayyorgarligi nisbatan past darajaligi, raqamli resurslar va metodik materiallarning yetishmasligi, o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim metodlariga tayyorgarligi to'liq emasligi, akademik maslahatchilik faoliyati sustligini



ta'kidlash zarur. Bu taqqoslashdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston ta'lim tizimi hali yo'lning boshida bo'lsa-da, Janubiy Koreya tajribasi asosida tizimni yanada takomillashtirish imkoniyatlariga ega.

Xulosa. Xulosa o'rnida, kredit-modul tizimi talabaning o'z bilimini boshqarish, mustaqil ta'lim olish va raqobatbardosh bo'lish zamonaviy ta'lim modelining asoslaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'lim bu tizimning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy faolligini oshirishga, o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiladi. Janubiy Koreya o'z tajribasida kredit-modul tizimini samarali tashkil etish bo'yicha yuksak natijalarni ko'rsatgan va bu O'zbekiston uchun muhim andoza bo'la oladi. Garchan, O'zbekiston oliy ta'limida bu tizim joriy etila boshlagan bo'lsa-da, uni to'laqonli va sifatli ishlashi uchun uslubiy, texnik va pedagogik jihatdan yanada mukammallashtirish lozim ekanligini izlanishlar natijasi ko'rsatmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, kredit-modul tizimi bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil qilish zarur. Har bir talaba uchun doimiy maslahatchi tayinlab, u orqali mustaqil ta'lim monitoringini amalga oshirish, ochiq ta'lim platformalarini yaratish va talabalarning ularga kirishini ta'minlash, fanning maqsad va natijalariga mos, zamonaviy kompetensiyalarga yo'naltirilgan modul tizimini ishlab chiqish, va ayniqsa, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan ta'lim sohasida hamkorlikni kengaytirish, tajriba almashish zarurligi bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonning o'zi shuni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022, avgust). Yangi O'zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2020, 6-noyabr). PQ 4884-son: *Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida*. lex.uz
3. Ravshanov, B. (2022). Kredit-modul tizimi asosida o'quv jarayonini tashkil etish. *O'zbekiston oliy ta'lim jurnali*, (1), 45–49.
4. Song, Y. J. (2020). Janubiy Koreya universitetlarida modul asosidagi ta'lim tizimi: mustaqil ta'lim strategiyalari. *Koreya Ta'lim Tahlillari Jurnali*, 27(3), 55–68.
5. Kim, J. H. (2021). Modul o'quv rejalari orqali oliy ta'limni isloh qilish: Koreya tajribasi. *Osiyo Ta'lim Rivojlanish Jurnali*, 16(2), 100–115.
6. Nematov, A., va Usmonova, D. (2021). O'zbekiston oliy ta'limida kredit-modul tizimining joriy etilishi: muammo va yechimlar. *Ilm va taraqqiyot*, 4(3), 78–84.
8. UNESCO. (2021). Janubiy Koreyada oliy ta'lim: Siyosat va samaradorlik. <https://unesdoc.unesco.org>.
9. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). (2023). 2023-yilgi ta'lim ko'rsatkichlari: OECD indikatorlari. Parij: OECD nashriyoti. <https://doi.org/10.1787/eag-2023-en>
10. Worth, L. (2019). Kredit asosida ta'lim tizimlari: global taqqoslashlar va mahalliy moslashuvlar. London: Routledge nashriyoti.
11. Janubiy Koreya Ta'lim Vazirligi. (2022). Oliy ta'lim statistikasi va islohotlar.

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich,

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i.
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

MAKTAB RAHBARLARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tizimli ravishda tahlil etilgan. Boshqaruv salohiyati zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim psixologik va ijtimoiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotda rahbar shaxsining ijtimoiy motivatsiyasi, emotsional intellekti, kommunikativ kompetentligi va qaror qabul qilishdagi psixologik tayyorgarligi kabi omillar boshqaruv salohiyatining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynashi ko'rsatib berilgan. Maqolada, shuningdek, boshqaruv jarayonlarida rahbarlarning sotsiometrik pozitsiyasi, tashkilot ichidagi ijtimoiy-psixologik iqlim, yetakchilik uslublari va ijtimoiy ta'sir strategiyalarining ahamiyati ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: rahbar kadrlar, boshqaruv salohiyati, ijtimoiy-psixologik omillar, ta'lim tizimi, yetakchilik, emotsional intellekt, kommunikativ kompetentlik, psixologik diagnostika, boshqaruv malakasi, tashkilot ichki muhit

Аннотация. В данной статье системно проанализированы социально-психологические факторы, влияющие на развитие управленческого потенциала руководителей общеобразовательных учреждений. Управленческий потенциал рассматривается как один из ключевых психологических и социальных критериев повышения эффективности современного образовательного процесса. В исследовании показано, что такие факторы, как социальная мотивация личности руководителя, эмоциональный интеллект, коммуникативная компетентность и психологическая готовность к принятию решений играют решающую роль в формировании управленческого потенциала. Также в статье научно обосновано значение социометрической позиции руководителя, социально-психологического климата в организации, стилей лидерства и стратегий социального влияния в процессе управления. На основе эмпирических материалов предложены рекомендации по диагностике психологического состояния управленческих кадров и их развитию.

Ключевые слова: руководящие кадры, управленческий потенциал, социально-психологические факторы, система образования, лидерство, эмоциональный интеллект, коммуникативная компетентность, психологическая диагностика, управленческие навыки, внутренняя среда организации.

Annotation: This article presents a systematic analysis of the socio-psychological factors influencing the development of managerial capacity among leaders of general secondary education institutions. Managerial capacity is viewed as one of the essential psychological and social criteria for enhancing the effectiveness of the modern educational process. The study demonstrates that the leader's social motivation, emotional intelligence, communicative competence, and psychological preparedness for decision-making play a decisive role in shaping managerial capacity. The article also provides a scientific rationale for the importance of the leader's sociometric position, the socio-psychological climate within the organization, leadership styles, and strategies of social influence in management processes. Based on empirical data, the article offers practical recommendations for diagnosing and developing the psychological condition of managerial personnel.

Keywords: managerial staff, managerial capacity, socio-psychological factors, education system, leadership, emotional intelligence, communicative competence, psychological diagnostics, managerial skills, internal organizational environment.

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimining zamonaviy bosqichi maktab rahbarlaridan nafaqat boshqaruv tajribasi, balki psixologik barqarorlik, ijtimoiy ong, kommunikativ ko'nikmalar va lid-



erlik kompetensiyalarini talab qilmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim sifatini oshirish va maktab faoliyatini samarali tashkil etishda rahbar shaxsining boshqaruv kompetensiyalari muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi ko'p jihatdan uning psixologik tayyorgarligi, emotsional intellekti, muomala madaniyati, qaror qabul qilishdagi barqarorligi kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, psixologik kompetensiyalari yetarlicha rivojlanmagan rahbarlar boshqaruv faoliyatida qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa o'quv muassasasi ichki muhitiga va ta'lim sifati ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda maktab rahbarining faqat buyruq beruvchi emas, balki jamoani ruhlantiruvchi, ijtimoiy-psixologik jarayonlarni boshqara oluvchi, o'zgarishlarga moslasha oluvchi shaxs sifatida rivojlanishi zarur. Shu bois, maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda psixologik omillarni ilmiy asosda o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini tahlil qilish orqali ularda samarali liderlik, motivatsiya yaratish, muammoli vaziyatlarni hal etish, stressni boshqarish kabi psixologik jihatlarining qanchalik muhim o'rin tutishini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Mamlakatimizda ta'limni modernizatsiyalash jarayonida inson kapitaliga asoslangan boshqaruv modeli joriy etilmoqda. Bu esa, rahbarlarning faqatgina texnik funksiyalar emas, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan yetuk, jamoadagi o'zaro munosabatlarni boshqara oluvchi, ijtimoiy muhitga ta'sir o'tkaza oluvchi shaxs bo'lishini talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi PQ-110-son qarori va boshqa strategik hujjatlarda ta'lim tizimi rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularni yangi ijtimoiy-siyosiy muhitga tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini ijtimoiy-psixologik omillar asosida o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar boshqaruv psixologiyasi, ta'lim menejmenti va shaxslararo munosabatlar sohasiga sezilarli hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari rahbar kadrlarni tanlash, baholash va rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslashda xizmat qiladi.

J. Adair esa rahbarlik samaradorligini «ish bilan bog'liq vazifalar», «guruh ehtiyojlari» va «individdning ehtiyojlari» o'rtasidagi muvozanat bilan izohlaydi va boshqaruvchining ijtimoiy-psixologik fazilatlarini markazga olib chiqadi [Adair, 2009].

Mahalliy olimlardan L.M. Mitina rahbar shaxsining kasbiy o'zini anglash va refleksiv salohiyati orqali ta'limdagi yetakchilik jarayonlarini samarali tashkil qilishni asoslagan. U boshqaruv faoliyatining psixologik mezonlari sifatida kommunikativlik, adaptivlik, motivatsion barqarorlik va shaxslararo muvozanatni ko'rsatadi [Mitina, 2002].

A.K. Markova boshqaruv salohiyatining tarkibiy qismlarini aniqlashda rahbarning kasbiy identifikatsiyasi, shaxsiy pozitsiyasi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratgan [Markova, 1996].

O'zbekistonda esa V.M. Karimova, G.B. Shoumarov, Z.T. Nishanova kabi psixolog olimlar rahbar kadrlarning shaxsiy fazilatlarini, kommunikativ madaniyati, sotsial tafakkuri va ijtimoiy roliga moslashuvi kabi omillarni chuqur tahlil qilganlar. Jumladan, G.B. Shoumarov (2020) umumta'lim muassasalari boshqaruvida ijtimoiy-psixologik muhit va tashkilot ichki kommunikatsiyasining hal qiluvchi o'rni borligini ko'rsatadi.

So'nggi yillardagi xalqaro tadqiqotlarda (UNESCO, OECD va boshqa ta'lim platformalari asosida) ta'lim tizimida liderlik va boshqaruv salohiyati o'quv sifatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shuningdek, rahbar kadrlarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalari, konfliktologik savodxonligi va psixologik moslashuvchanligi ta'lim muassasasining ijtimoiy barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim mezon sifatida ko'rilmogda.

Shu bois, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarida boshqaruv salohiyatining rivojlanishi ko'p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, u shaxsiy, guruhviy va tashkilot darajasidagi o'zaro munosabatlar asosida shakllanadi.



Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Boshqaruv salohiyati shaxsning nafaqat kasbiy malakasi va ma'muriy bilimlari, balki u bilan bog'liq bo'lgan psixologik resurslar - kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, sotsial sezgirlik, refleksiya darajasi kabi xususiyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Empirik tahlillar asosida aniqlanishicha, yuqori boshqaruv salohiyatiga ega rahbarlar jamoa bilan ijtimoiy-psixologik muvozanatni ta'minlashda, konfliktli vaziyatlarda konstruktiv yondashuvni tanlashda va qaror qabul qilishda barqarorroq psixologik pozitsiyaga ega bo'ladilar.

Muhokama jarayonida shuningdek, rahbarlar faoliyatida ijtimoiy ta'sir o'tkazish uslublari, liderlik strategiyalari va tashkilot ichki iqlimining o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Xususan, yetakchilik uslublari demokratik, muvofiqlashtiruvchi yoki avtoritar shakllarini tanlashda rahbar shaxsining ijtimoiy rollarni anglash darajasi, ijtimoiy intellekti va empatiya qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Tashkilot ichidagi ijtimoiy-psixologik muhit barqaror bo'lgan holatlarda rahbarlar o'zlarining boshqaruv resurslarini samaraliroq ishga soladilar, o'qituvchilar jamoasi esa yuqori darajadagi motivatsiya va sodiqlik namoyon etadi.

Shuningdek, muhokamada zamonaviy ta'lim tizimida rahbar kadrlardan talab etilayotgan yangi kompetensiyalar - o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanlik, innovatsion fikrlash, stressga chidamlilik, ijtimoiy mas'uliyat hissi va psixologik refleksiya - boshqaruv salohiyatining zamonaviy tarkibiy elementlari sifatida baholandi. Bularning barchasi ta'lim sohasida inson omilining ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy-empirik tadqiqotlar natijasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyati murakkab ko'p komponentli tizim ekanligi aniqlanib, uning shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillar hal qiluvchi rol o'ynashi isbotlandi. Boshqaruv salohiyati nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga, balki rahbar shaxsining emotsional-intellektual darajasi, kommunikativ kompetensiyasi, sotsial sezgirliigi, reflektiv yondashuvi va qaror qabul qilishdagi psixologik barqarorligiga ham bevosita bog'liq.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalari rahbarlari faoliyatida ijtimoiy-psixologik omillar boshqaruv samaradorligi, jamoaviy muhitning ijobiy shakllanishi va o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi uzviy aloqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rahbarlarning sotsiometrik pozitsiyasi, ijtimoiy ta'sir strategiyasi va yetakchilik uslublari boshqaruv resurslarini qanday yo'naltirishini belgilab beradi.

Shu boisdan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini rivojlantirishda faqat texnik yondashuvlar emas, balki ularning psixologik holatini, shaxslararo munosabatlarni, motivatsion holatni va emotsional moslashuvchanlikni ham hisobga olgan kompleks yondashuvlar zarur. Bu boradagi psixodagnostik va psixokorreksion tadbirlar rahbarlar salohiyatini chuqur tahlil qilish va uni samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Goleman D. (1998). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books. – 352 b.
2. Adair J. (2009). *Effective Leadership Development*. London: Kogan Page. – 144 b.
3. Маркова А.К. (1996). Психология профессионализма. Москва: Знание. – 312 б.
4. Митина Л.М. (2002). Психология развития профессионализма и личности педагога. Москва: Издательский центр «Академия». – 368 б.
5. Karimova V.M. (2020). Ta'lim tizimi rahbarlarining psixologik xususiyatlari. // *Psixologiya va hayot* – Toshkent: TDPU nashriyoti. – №2. – B. 45–52.
6. Nishanova Z.T. (2019). O'quvchilarda yetakchilik xususiyatlarini shakllantirish psixologiyasi. – Toshkent: Fan. – 180 b.
7. Shoumarov G.B. (2021). Umumiy o'rta ta'lim tizimida boshqaruv psixologiyasining dolzarb masalalari. // *Pedagogik mahorat* – №3(15). – B. 60–67.



Pulatova Gulnoza Murodilovna
FarDU, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Umrzqova Gulzoda Abdurahmon qizi
FarDU, Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

OILA PSIXOTERAPIYASI VA TEXNIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila psixoterapiyasi tushunchasining asosiy ta'rif va mazmuni haqida ma'lumot berilgan. Tizimli oilaviy psixoterapiyaning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, amaliyotning bu sohasi ko'pchilik psixoterapiya maktablari va yondashuvlari kabi rivojlanmagan. Shu ma'noda oilaviy psixoterapiyadagi zamonaviy yondashuvlar, qo'llaniladigan psixoterapiya usullarining o'tkazish texnikalarining qisqacha bayoni maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Tayanch so'z va iboralar: Psixologik konsultatsiya, psixoterapiya, disfunktsional oila, oilaviy psixoterapiya, relaksatsiya, N.Pezeshkian, ratsional-emotsional psixoterapiya.

Annotation: This article provides information on the basic definition and content of the concept of family psychotherapy. The history of the development of systemic family psychotherapy shows that this area of practice is not as developed as most schools and approaches to psychotherapy. In this sense, modern approaches to family psychotherapy, a summary of the conducting techniques of the methods of psychotherapy used, form the main content of the article.

Base words and phrases: Psychological Counseling, Psychotherapy, dysfunctional family, family psychotherapy, relaxation, N.Pezeshkian, rational-emotional psychotherapy.

Аннотация: В этой статье приводится основное определение и содержание понятия семейной психотерапии. История развития системной семейной психотерапии показывает, что эта область практики не так развита, как большинство психотерапевтических школ и подходов. В этом смысле современные подходы в семейной психотерапии, краткое изложение приемов проведения применяемых психотерапевтических методов составляют основное содержание статьи.

Базовые слова и фразы: психологическое консультирование, психотерапия, дисфункциональная семья, семейная психотерапия, релаксация, Н.Пезешкян, рационально-эмоциональная психотерапия.

Kirish. Psixologik konsultatsiya zamonaviy psixologiyaning amaliy sohasidir. Bu mijozning muammolarini hal qilishda malakali yordam ko'rsatish, unga ushbu muammolarni hal qilishni o'rgatish va shaxsiyatini rivojlantirish uchun psixolog va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonidir. Psixologik maslahat manbalari: Psixoterapiya va qat'iy ilmiy ma'nosidagi psixologik bilim hisoblanadi.

Bugungi kunda oilada psixologik muammolarni yechimini topishda psixoterapiya keng qo'llanildigan yo'nalishdir. Psixoterapiya "yunoncha" so'zdan kelib chiqqan psixika - ruh + terapiya - davolash, parvarish qilish, parvarish qilish. Psixoterapiya - tor ma'noda - psixologik vositalar yordamida ruhiy kasalliklarni davolash shakli; Keng ma'noda psixoterapiya sog'lom odamlarga (mijozlarga) turli xil psixologik qiyinchiliklar sharoitida, shuningdek, o'z hayot sifatini yaxshilash zarurati bo'lgan hollarda psixologik yordam ko'rsatishni ham o'z ichiga oladi.

Oilaviy psixoterapiyaning kamida to'rtta ta'rif mavjud. Birinchidan, oilaviy psixoterapiya-bu ma'lum bir oilaning muammolariga (analitik oilaviy psixoterapiya, xulq-atvor va boshqalar) nisbatan psixoterapiyaning asosiy usulini o'tkazish shakli. Ikkinchidan: oilaviy psixoterapiya-bu mijozning oiladagi psixologik, ijtimoiy va biologik holatini oilaning yordami bilan tuzatishga qaratilgan psixoterapiya usullari va usullari majmui. Uchinchidan: oilaviy psixoterapiya-muayyan nazariyalarga (tizimlar, kibernetika, aloqa kanallari va boshqalar) asoslangan mustaqil yo'nalish doirasidagi psixoterapiya usullari. To'rtinchidan: oilaviy tizimli psixoterapiya-bu har birining faoliyatini optimallashtirish maqsadida ikkita tirik ochiq tizim - oila va psixoterapevt o'rtasidagi psixologik o'zaro ta'sirlar tizimi, oilaviy xulqli psixoterapiya va boshqalarni o'z ichiga oladi.



Strukturaviy yondashuvda o'smirlar "alomat tashuvchi", oila esa, bemor sifatida qaraladi. Strukturaviy tadbirlar oilaning barcha a'zolari faoliyatini yaxshilash va yanada muvozanatli oila tizimini yaratish uchun oila tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan. Masalan, qattiq oilada ochiq muvoqot va muzokaralarni tashkil qilish, tartibsiz oilaga ierarxik tuzilmani qurishda yordam berish, oilaning quyi tizimida ota -ona nazorati va hamkorligini tiklash, bu esa, oilaning etakchi rahbarligi va bolalar tarbiyasini ta'minlaydi. Parchalangan tizimda terapevt "aniqlangan bemorga" yordam berish va oilaning barcha a'zolari uchun mumkin bo'lgan imtiyozlarni aniqlash orqali oilani birlashtirishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, oilaviy tuzilmalarni o'zgartirish uchun qo'yilgan maqsadlar oilaning fikr -mulohazalarni qabul qilish tezligiga mos kelishi kerak.

Strategik oilaviy psixoterapiyada oilaviy ierarxiya buzilishlarini tahlil qilishga asosiy ahamiyat beriladi. Ushbu psixoterapevtik yondashuvda qo'llaniladigan strategiya kuch manipulyatsiyasiga asoslangan. Boshqacha aytganda, terapevt oila a'zolari o'rtasida hokimiyatni qayta taqsimlaydi. Xulq -atvor anormalliklarini keltirib chiqaradi, deb ishoniladi. Oilaviy psixoterapiyaning xulq-atvor yo'nalishi o'rganish nazariyasi tamoyillariga asoslanadi. Klassik, operativ va boshqa turdagi o'qitish usullari qo'llaniladi

Zamonaviy oilaviy psixoterapiyada konstruktiv yoki hikoyaviy psixoterapiyaning rivojlanishi asosiy tendentsiya hisoblanadi. Bu so'zning ingliz tilidan to'g'ridan - to'g'ri tarjimai bor - hikoya (so'zma -so'z - aytib berish, tasvirlash, hikoya qilish, vizual -majoziy). Oilaviy psixoterapiyaning har bir sohasida siz ma'lum ijobiy strategiyalarni topishingiz va ulardan bolalar va o'smirlar bilan ishlashda foydalanishingiz mumkin.

Umuman olganda, qaysi disfunktsional oilaviy naqshlarni o'zgartirish mumkinligini aniqlash kerak. Har bir oila a'zosining affektiv, xulq -atvor va kognitiv umidlari hisobga olinadi. Disfunktsional oila - ma'lum bir funktsiyalarni bajarish buzilgan oila hisoblanadi.

Odatdagidek ishlaydigan oila-bu har bir oila a'zosi va umuman oila o'zini namoyon qilish, o'sish, o'zgarish, qabul qilish va ma'qullash ehtiyojlarini qondiradigan qoidalarni yaratadigan oiladir. Oilaviy psixoterapiyada o'zgarish uchun oilaviy resurslarni, qobiliyat va motivatsiyani topish va dolzarb muammolarni hal qilishga e'tibor qaratish lozim.

Oilaviy psixoterapiya-bu shaxslararo munosabatlarni to'g'rilashga qaratilgan va oiladagi emotsional buzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan psixoterapiyaning alohida turi bo'lib, ular oilaning kasal a'zosida ko'proq namoyon bo'ladi.

Tizimli oilaviy psixoterapiyaning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, amaliyotning bu sohasi ko'pchilik psixoterapiya maktablari va yondashuvlari kabi rivojlanmagan. Ko'pgina psixoterapevtik yondashuvlar er-xotinlar bilan ishlash yoki ota-onalar o'rtasidagi nizolarni tasvirlaydi. Oilaviy maslahat va psixoterapiya turli psixoterapiya maktablarida oilalar bilan ishlashni tavsiylaydi: tranzaktsion tahlil, gestalt terapiyasi, mijozga yo'naltirilgan yondashuv, Adlerian va ratsional-emotsional psixoterapiya, xulq-atvorli psixoterapiya yo'nalishlaridan foydalaniladi.

Oilaviy tizimli psixoterapiyaning asosiy g'oyasi shundaki, oila - bu ijtimoiy tizim, ya'ni bir - biri bilan dinamik aloqalar va munosabatlarda bo'lgan elementlar va ularning xususiyatlari majmuasidir. Oila – "billurga emas, olovga o'xshash tirik organism"dir. (Chernikov, 1997).

Oilaviy tizim - bu ochiq tizim, u atrof -muhit bilan doimiy aloqada. Oilaviy tizim-bu o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim, ya'ni tizimning xulq-atvori maqsadga muvofiqdir va tizimni o'zgartirish manbasi uning ichida yotadi (Chernikov, 1997).

Oilaviy psixoterapiyada ko'p qo'llaniladigan psixoterapiya usullariga quyidagilar kiradi.

1) jimlikdan effektiv foydalanish. 2) eshitishni o'rganish 3) savollar yordamida o'qitish. 4) takrorlash (rezyumirovaniye), 5) summar takrorlash 6) aniqlash 7) konfrontatsiya 8) rollarni ijro etish, 9) bunyod qilish «tirik skulpturalarni», 10) videomagnitofon yozuvlarni ko'rib, tahlil qilib chiqish.

Bundan tashqari oila psixoterapiyasida psixogimnastika, psixodramma, autotreninglar, relaksatsiya mashqlari keng qo'llaniladi.

Relaksatsiya – G. Selye nazariyasiga ko'ra, xavotirning avtomatik reaksiyasi uchta ketma-ket fazalardan iborat: impuls, stress, moslashish. Stress boshlangandan so'ng, asta-sekin stress holati pasayishni boshlaydi, inson asta-sekin tinchlanishni boshlaydi. Agar moslashuv buzilsa



yoki u umuman bo'lmasa ba'zi bir psixomatik kasalliklar yoki buzilishlar yuz beradi. Demak, agar inson o'z sog'ligini asrashni xohlasa, stress impulsiga qarshi relaksatsiya bilan javob berishi kerak. Aktiv himoyaning ushbu ko'rinishi bilan inson stressning uch fazasining xohlaganiga aralashishi mumkin. Shu orqali, u stress impulsining ta'siriga xalaqit berishi mumkin, uni to'xtatib qolishi yoki pasaytirishi, natijada organizmda bo'lishi mumkin bo'lgan psixomatik buzilishlarni oldini olishi mumkin.

Ota-onasining oilasida ko'rgan-kechirganlari bolaning bo'lg'usi oilasi, undagi er-xotin munosabatlari, farzandlar tarbiyasi, qarindosh-urug'lar bilan bo'ladigan murakkab o'zaro aloqalarning qanday kechishini belgilovchi muhim omildir.

Ushbu omilning ta'sirini batafsil o'rgangan olimlardan biri N.Pezeshkian (1993) bo'lib, u bunday ta'sirchanlikning 3 jihatini alohida ajratadi: turli stresslarga nisbatan munosabat; hissiyotlarga beriluvchanlik va uning oqibatlari – ijtimoiy xatti-harakat me'yorlari;

Pezeshkian bevosita hissiy-emotsional normalarga sevgi-muhabbatni, ishonch, umid, sabr-qanoat, o'zgalarga e'tiborli bo'lish, o'zgalar bilan yaqin samimiy munosabatlarga kirisha olish, e'tiqodlilik, diniy hissiyotlarni kiritadi. Bunday hissiyotlar odatda ota-onasi, yaqinlari, aka, opalar, uka-singillar bilan o'zini identifikatsiya qilish, o'zini ular bilan solishtirish, o'xshashlikka intilish jarayonida shakllanadi. Aynan shu sababli inson kimgadir ishonishga, samimiy muruvvat ko'rsatishga o'rganadi. Oila muhitida boshdan kechirgan hissiyotlar oqibati bo'lmish xatti-harakatlar normalariga esa bir so'zlilik, saranjom-sarishtalik, ozodalik, samimiyat, adolatlilik, intiluvchanlik, tejamkorlik, sadoqat, ishonch, xalollik kabilar kiradi. Pezeshkian, ayni emotsional sohalarida er-xotin o'zaro munosabatlarning o'xshamasligini er-xotin nizolarida asosiy nizo keltirib chiqaruvchi sabab, deb hisoblaydi. Xatti-harakat normalaridagi kelishmovchiliklar ham muhim, lekin ular psixoterapevtik amaliyotda oson yechim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizdagi oilalar o'rtasida psixoterepiya usullarini keng qo'llash muhimdir. Psixologik konsultatsiyaning bu usuliga nazariy yondashish amaliy natijalarning samarasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аграчев С. Г., Кадыров И. М. Психоанализ и психоаналитическая терапия // Основные направления современной психотерапии. — М.: Когито-Центр, 2000. — С. 75-97.
2. Айви А. Консультирование и психотерапия. — Новосибирск, 1990.
3. Айви А. Е. Айви М. Б., Саймэн-Даунинг Л. Психологическое консультирование и психотерапия. — М.: Психотерапевт, колледж, 2000. — С. 7-34.
4. Алешина Ю. Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. — М.: Независимая фирма «Класс», 2000. — 208 с



Z.E.Abduraxmanova

O'ZMU Psixologiya kafedrasi dotsenti, psixol.f.n.

MILLATLARO NIKOHDA FARZANDLAR TARBIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация: Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Maqolada Millatlaro nikohda farzandlar tarbiyasining psixologik xususiyatlari bilan bogliq masalalarга эътибор қаратилган.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, nikoh, fenomenologik yondoshuv, millatlararo nikoh, qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy institut, madaniy-ma'rifiy xususiyatlar, o'zaro ta'sir.

Аннотация: Семья – это священное место, сохраняющее преемственность каждого народа и нации, обеспечивающее развитие национальных ценностей, приводящее в мир новое поколение, воспитывающее его духовно и физически, и считающееся главной основой общества. В статье уделено внимание вопросам, связанным с психологическими особенностями воспитания детей в межнациональных браках.

Ключевые слова: общество, семья, брак, феноменологический подход, межнациональный брак, ценности, обычаи, социальный институт, культурно-образовательные характеристики, взаимодействие.

Abstract: Family is a sacred place that preserves the continuity of each people and nation, ensures the development of national values, brings a new generation into the world, educates it spiritually and physically, and is considered the main basis of society. The article focuses on issues related to the psychological characteristics of raising children in interethnic marriages.

Key words: society, family, marriage, phenomenological approach, interethnic marriage, values, customs, social institution, cultural and educational characteristics, interaction.

Kirish. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlarga xos tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Oila mazmun va mohiyatiga ko'ra har bir xalq, har bir millat uchun o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga egadir. Sharqda oila tushunchasi oila qurish va uning mustahkamligini, farovonligi va barqarorligini ta'minlash insonning o'z millati, avlod-ajdodlari, jamiyati oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi.

Ma'lumki, oilaviy turmush hayotning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Xuddi shu boisdan jamiyatning qonun-qoidalariga nisbatan munosabat ham oiladagi shaxslararo turli-tuman muomalalarda, muloqotda, fikr almashinuvlarda, munozaralarda o'z ifodasini topadi. Binobarin, yoshlarni to'g'ri tarbiyalash oilanining naqadar mustahkam bo'lishiga, uning a'zolarida olijanob xarakter xislatlarini, yuksak ma'naviy hislarni shakllantirishga bog'liq.

Ham turmush qurishga tayyorlik, ham oila qurish istagi - bularning barchasi odamlarning oilaviy munosabatlarning ahamiyati, bir-birlari oldidagi majburiyatlari, oila va farzandlar kelajagi uchun javobgarlik, muqarrar muammolarni ixtiyoriy ravishda qabul qilish va shaxsiy erkinlik cheklovlarini tushunishdan dalolat beradi. Bu xususiyatlar o'z milliy ifodasiga ega bo'lib, har bir millatning qadriyatlariga bog'liq. Har bir etnik jamoa bu xususiyatlar qanday bo'lishi kerakligi haqida o'z g'oyalarini ishlab chiqadi va ularni o'z xalqi vakillarining milliy ongi, an'analari, harakatlari va munosabatlarida saqlashga intiladi.

Millatlararo nikoh - bu ikki xil etnik guruh vakillarining nikoh ittifoqi bo'lib, ularni psixologik o'rganish o'ziga xosligi tufayli empirik murakkablikka ega. Falsafiy metodologiya darajasida millatlararo nikohlar madaniyatlar muloqoti uchun imkoniyat sifatida qaraldi. Umumiy



ilmiy darajada, bunday nikohlar, tizimli yondashuv vakillari nuqtai nazaridan, paydo bo'ladigan ta'sirga ega bo'lgan integral chiziqli bo'lmagan tizimlardir. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar to'rt jihatning birligini anglatadi: o'zaro idrok etish, bir-birini hissiy baholash, o'zaro tushunish va o'zaro ta'sir. Psixologiya metodologiyasi boshqasini turmush o'rtog'i sifatida tushunib, "muhim boshqa" bilan munosabatlarni ko'rib chiqadi. Bu nazariy yuklarning barchasi empirik tadqiqot usullarida amalga oshiriladi. Biz tanlagan diagnostika usullari to'plami nikoh hayotining eng muhim sohalarini qamrab oluvchi aralash nikohdagi sheriklarning munosabatlarini o'rganishga imkon beradi: ota-onalik, sherik bilan shaxsiy identifikatsiya qilish, ma'naviy va hissiy yordam, maishiy soha va tashqi ijtimoiy faollik va hokazo.

Millatlararo nikohlar mavzusi zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ikkita jihatga to'g'ri keladi: oila institutining o'zgarishi va uning ijtimoiy subyektlarning sotsializatsiyasi va integratsiyasi jarayonlaridagi roli, shuningdek, etnik guruhlarining o'zaro ta'siri sohasidagi globallashuv tendentsiyalari, guruhlar va madaniyatlar, milliy jamoalarning o'z taqdirini o'zi belgilashi, etnogeosiyosiy jarayonlar dinamikasi kabilar. [2]

Millatlararo nikohlar qadriyatlarining ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy makonidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Bunday davlat ko'rsatkichlari orasida iqtisodiy omillar (xorijiy investitsiyalar oqimi, mamlakatda xalqaro biznes va moliyaviy tashkilotlarning ochilishi) ajralib turadi; siyosiy omillar (hukmron siyosiy partiyalarning Yevropa integratsiya jarayonlariga yo'naltirilganligi); madaniy omillar (madaniy almashinuv va aloqalarni faollashtirish); axborot omillari (axborot va kompyuter texnologiyalarining tez tarqalishi, elektron pochta, mobil aloqa); ijtimoiy omillar (chet elda ta'lim olishning yangi imkoniyatlari, chet elda xalqaro bandlik dasturlarini amalga oshirish), shuningdek, xalqaro turizmning mavjudligi kabilar turadi. Natijada, millatlararo nikohga munosabat, bir tomondan, jamiyatda aniq yoki bilvosita hukmron bo'lgan va boshqa tomondan, xulq-atvorga ta'sir qiluvchi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar va ayrim stereotiplarni idrok etishning aksi bo'lib ko'rinsa, turmush o'rtog'ini tanlash va chet ellik sherik bilan turmush qurish niyatlari ham millatlararo nikohlarga ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. [3]

Shunday qilib, millatlararo nikohlarni o'rganishga fenomenologik yondashuv shaxsning ijtimoiy va biologik tamoyillarini o'rganishga qaratilgan. Oila, nikoh turli darajalarda o'rganiladigan noyob hodisalardir. Oilaning fenomenal xususiyatlariga kichik ijtimoiy guruh va ijtimoiy institut o'rtasidagi dixtomiya kiradi. Bir tomondan, nikoh boshqa tuzilish, hayotning o'ziga xos xususiyatlari, oilaviy tajriba va qadriyatlarining uzatilishi bilan tavsiflanadi, ikkinchi tomondan, nikoh va oila ijtimoiy institutdir. Nikohning ijtimoiy-madaniy hodisasi ijtimoiy tuzilmalar chorrahasida, makro va jahon sotsiologiyasi chegarasida joylashgan oraliq pozitsiya bilan belgilanadi. [4]

E.G'.G'oziev o'zbek xalqining etnopsixologiyasi va bolalar tarbiyasini o'rganar ekan, uning tarixiy an'analari, urf-odatlar, udumlari, rasm-rusumlari. ahloq me'yori, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlari, muloqot maromi va boshqa xususiyatlari turli xalqlarnikidan ma'lum darajada tafovutlanishi haqida to'xtalib o'tadi. Shu bilan birga, ota-onaga, tug'ishganlarga nisbatan milliy to'g'ri yo'g'irilgan munosaat, qarindoshlik rishtalari ham milliy ruhiyatni aks ettirishi hamda oila a'zolarining o'zaro samimiy munosabatlari, ayniqsa, atrofdagilar bilan muntazam ravishda salomlashib yurish kabi xususiyatlar, milliy urf - odatlarimizning ibratli va o'ziga xos bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaydi. [7]

Bolalarning etnik sotsializatsiyasini o'rganishdagi zamonaviy burilish 1990-yillarda migratsiya jarayonlari bilan bog'liq holda chet elda paydo bo'ldi. Etnik o'ziga xoslik tadqiqotchilar tomonidan tobora ko'proq "etnik guruhga mansublikni anglash va etnik guruhga mansublik tufayli fikrlash, idrok etish, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarining bir qismi" emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstga, tarixiy, ijtimoiy-strukturaviy, ijtimoiy-psixologik, kontekstual, madaniy, kognitiv omillarning o'zaro ta'siri natijasida bolalar va o'smirlarning o'sishi jarayonida qurilgan dinamik va ko'p hodisalarga bog'liq tanlov sifatida ko'rib chiqilmoqda.



Tadqiqot savollari bolalarning etnik tarixini o'rganishga, jumladan, aralash nikohli oilalar farzandlarida etnik munosabatlarning rivojlanishiga, ularning etnik o'zini o'zi belgilashiga qaratilgan. Millatlararo oilalarning bolalari ko'pincha "marginal" yoki "oraliq" pozitsiyani egallagan holda, ular u yoki bu etnik o'ziga xoslikni to'liq qabul qilish orqali "qochib ketishga" harakat qilishlari mumkin deb ta'riflangan. Ta'kidlanganidek, noaniq/aralash etnik kelib chiqishi ular uchun maxsus ehtiyojlar va muammolarni keltirib chiqaradi. Buyuk Britaniyadagi ushbu oraliq pozitsiyani yengib o'tishning yo'li 2001 yildagi aholini ro'yxatga olishdan keyin aralash irq/naslning maxsus ijtimoiy toifa sifatida rasmiy tan olinishi va bolalarning o'z shaxsini tanlash huquqi edi. [6] Ushbu qarorni qo'llab-quvvatlovchi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bir nechta etnik/irqiylar guruhlariga mansub bo'lgan bolalar bir xil etnik/irqiylar guruhlariga qaraganda bir xil yoki hatto yuqori farovonlik va ijtimoiy inklyuziya haqida hisobot berishadi. Sotsiologlar ilgari ishonganidek, millatlararo yoshlarning o'ziga xosligi doimiy shaxs emas va o'ziga xoslik to'qnashuvini oldindan belgilamaydi, degan xulosaga keldi. Aksincha, u o'ziga xos va ko'p qirrali o'ziga xoslikni ifodalaydi, millatlararo kelib chiqishi bo'lgan yoshlar o'zlarining kimligini aniqlash uchun foydalanadigan usul hamdir.

Millatlararo nikohlar asosida vujudga keluvchi oilalardagi bolalarning umumiy turmush sharoitiga ham e'tibor qaratilmoqda. Bunday oilalardagi bolalarning nikohdagi nizolarning yuqori darajasi, madaniy qadriyatlardagi farqlar va muammoli ota-onalik tufayli stress omillariga duchor bo'lishlari haqidagi qarashlar o'zgarib bormoqda. Yaqinda olib borilgan ishlarda tadqiqotchilar, bu bolalar katta qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo'lsa-da, baxtsizliklar, xulq-atvor muammolari xavfi ortishi mumkin, ammo ular universal emas degan xulosaga kelishdi.

Oilada bola tug'ilgandan keyin er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda rollarning o'zgarishi kuzatiladi, ota-onada mas'uliyatni his qila boshlaydi, hamda moddiy resurslarni va oila byudjetini qayta taqsimlash bilan bog'liq qayta qurish sodir bo'ladi. Manfaatlarning birligi shuningdek, turmush o'rtoqlar o'rtasida to'liq o'zaro tushunish hali rivojlanmasligi mumkin, ammo yengish uchun asos bor. Etnik hamjamiyat bu xususiyatlar qanday bo'lishi kerakligi haqida o'z g'oyalarini rivojlantiradi va ularni o'z xalqi vakillarining milliy ongi, an'analari, harakatlari va munosabatlarida saqlashga intiladi. Har bir etnik jamoaning o'z qonunlari va tamoyillari mavjud, masalan:

- oilaviy hayot, uning psixologiyasi bilan dastlabki tanishish va u haqida umumiy g'oyalarni shakllantirish, ayniqsa turmush qurayotganlar turli etnik jamoalarning vakillari bo'lsa;
- nikohda ko'p millatli oila haqida o'z g'oyalarini amalga oshirish;
- ko'p millatli muhit doirasida oilaviy hayot tajribasini to'plash;
- nikoh aloqalarini mustahkamlash jarayonida oilaviy munosabatlarni yanada takomillashtirish.

Tabiiyki, agar turmush o'rtoqlar turli xalq vakillari bo'lsa, ko'pincha hamma narsa tekis bo'lmaydi - har birining milliy qadr-qimmatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq juda ko'p qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu nikohning qiyin davri (barqarorlik nuqtai nazaridan), har qanday janjallar, tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Biroq, turli xalq vakillari bilan oila qurgan yoshlar o'rtasida sevgi borligi haqida unutmazlik kerak.

Turli millat yoshlari bir-birlarini sevib, turmush qurmoqchi bo'lib, ularni kutayotgan kelajakdagi birga yashash qiyinchiliklari (shu jumladan millatlararo) haqida jiddiy o'ylamaydilar. Agar yoshlar to'ydan oldin turli millat vakillarining qo'shnilikda yashash joylarida yashagan bo'lsa, muammolar, albatta, tezroq bartaraf etiladi. Ijtimoiy rollarni qayta taqsimlash, kelishmovchilik manbasining yo'qolishi, oilaning har bir funksiyasida yetakchini aniqlash (agar u ilgari milliy an'analarga muvofiq o'rnatilmagan bo'lsa) ko'p elatli oila hayotidagi o'ta muhim lahzadir. Bu davr farzandlarni tarbiyalash bilan bog'liq muammolar tufayli ham qiyin. Ba'zi etnik jamoalar vakillari uchun bu otalar va farzandlar o'rtasidagi aloqaning yo'qligi bilan og'irlashadi, boshqalari uchun esa, aksincha, oila boshlig'ining farzandlarining ichki dunyosi, ularning tarbiyasi shakllanishida faol ishtirok etishining milliy an'analari tufayli yengillashadi. Agar turmush o'rtoqlar turli etnik jamoalarning vakillari bo'lsa, farzandlar tarbiyasida birgalikda



ishtirok etish faqat ularning munosabatlarini mustahkamlashga va etnik an'analaridagi farqlarni yumshatishga yordam beradi.

Bola tug'ilgandan keyin er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda rollarning o'zgarishi, ota-ona mas'uliyatining paydo bo'lishi, moddiy resurslarni va vaqt byudjetini qayta taqsimlash bilan bog'liq qayta qurish sodir bo'ladi. Manfaatlarning birligi, shuningdek turmush o'rtoqlar o'rtasida to'liq o'zaro tushunish hali rivojlanmasligi mumkin. Ammo, milliy o'ziga xos janjallarni bartaraf etish uchun asos bor, er-xotinlarning o'zlariga va boshqalarga nisbatan umumiy, xalqaro munosabati, agar yuzaga kelsa, etnik "kamchiliklar" va tushunmovchiliklarni to'g'ri baholash, farzand tarbiyasiga umumiy qarashlar, uning atrofdagi polietnik dunyoda kelajakdagi madaniy moslashuvi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

T.Parsons va boshqa funksionalistlarning fikricha, har qanday kichik guruh samarali faoliyat yuritishi uchun rol farqlanishiga ega bo'lishi kerak. Kichik guruhlar o'z-o'zidan aralash rol tuzilishini rivojlantirishga moyildirlar. Erkaklar instrumental rol o'ynaydi, ular oilaning boquvchisi. Ayol roli - o'choqni himoya qilish, ya'ni ifodali rol. Ushbu tendensiyaning ko'plab vakillari mehnat taqsimoti oila tarkibining barqarorligini ta'minlashning bir usuli deb hisoblaydilar. [5]

Umuman olganda, fan shuni ko'rsatadiki, oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishning psixologik shartlari ko'pincha, turli millat vakillarining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, turmush o'rtoqlarning har birining milliy an'analarini tushunish va ularga rioya qilish zarurligini targ'ib qilish va tushuntirish, shuningdek ularning qadr-qimmati va milliy o'ziga xosligini kamsitishga urinishlarga qarshi kurash ko'pincha davlat va oila miqyosida amalga oshiriladi.

Oilaviy munosabatlarning milliy o'ziga xos xususiyatlari, bu munosabatlar turmush o'rtoqlar bir millat vakillari bo'lgan oilalardagi munosabatlardan jiddiy farq qilishi bilan bog'liq qiyinchiliklarni aniqlaydi.

Shunday qilib, millatlararo nikohlarni o'rganish tobora ommalashib bormoqda. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bilimlarning yuqoridagi tasnifi shartli, chunki barcha qarashlar va pozitsiyalarni aks ettirish deyarli mumkin emas, shuning uchun barchani qoniqtiradigan konsepsiyaning asosi bo'lishi mumkin bo'lgan yagona universal prinsipni ajratib ko'rsatish qiyin. Shuning uchun ham yondashuvlar va maktablarni tizimlashtirish bo'yicha har bir ishda o'rganilayotgan jarayon yoki hodisaning muayyan xususiyatlariga urg'u beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Abduraxmanova Z.E. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.2023 y.
- 2.Abduraxmanova Z.E. Millatlararo nikohlarni o'rganishga fenomenologik yondashuv. International Jurnal of Economu and innovation . Impact Factor: 8.
- 3.Abduraxmanova Z.E. Marriages and interpersonal relations between different nationalities Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 45 No. 3 (2024)
4. Abduraxmanova Z.E. Baynalminal oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarda etnik identifiklik shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlari. Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. Xalqaro ilmiy jurnal 2023/4 (9)
- 5.Вестермарк Э. Половые вопросы / пер. и предисл. О. Норвежского. - Изд. 2-е. - М.: Книжный дом, 2011. - С. 38-43.
- 6.GiokH. P. "Choose One!": Challenges of Inter-Ethnic Marriages in Malaysia / Giok Hun Pue & Nidzam Sulaiman. - Asian Social Science. - 2013. - Vol. 9. - No. 17. - P. 269278.
- 7.G'oziev E.G'. O'zek xalqining etnopsixologiyasi va bola tarbiyasi /o'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Res. Ilm. Amal. Anj. Mater. T. 1993 . 57 – 58 b.



Dehqonboyev Shohajahon Oybek og'li
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

SUD OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud psixologik ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazishning innovatsion va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish borasidagi samarali faoliyat olib borish tartibi tahlil qilingan. Bundan tashqari sud psixologik ekspertizasini olib borish bosqichlari bo'yicha tavsiya va xulosalar ishlab chiqilgan. Shuningdek psixologik ekspertizaning asosiy vazifalari, ekspertga qo'yilgan talablar, psixolog ekspertining faoliyat olib boorish tartibi, huquqlari, majburiyatlari, burchlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekspert, qobiliyat, psixik hodisalar, Sud tibbiy ekspertizasi, Kompleks ekspertizalar, tergov, affekt, stress, jinoiy ish.

Аннотация. В данной статье анализируется порядок организации и проведения судебно-психологической экспертизы для осуществления эффективной деятельности с использованием инновационного и передового зарубежного опыта. Кроме того, разработаны рекомендации и выводы по этапам проведения судебно-психологической экспертизы. Также речь идет об основных задачах психологической экспертизы, требованиях к эксперту, порядке осуществления деятельности экспертом-психологом, его правах, обязанностях, обязанностях.

Ключевые слова: эксперт, способность, психические явления, криминалистика, комплексные экспертизы, следствие, аффект, стресс, уголовное дело.

Annotation. This article analyzes the procedure for organizing and conducting a forensic psychological examination and conducting effective activities on the use of innovative and advanced foreign experiments. In addition, recommendations and conclusions have been developed on the stages of conducting a forensic psychological examination. It also talks about the main tasks of psychological examination, the requirements for the expert, the procedure for conducting activities of the psychologist's expert, rights, obligations, duties.

Key words: expert, Ability, Psychic Phenomena, forensic medical examination, comprehensive examination, investigation, affect, stress, criminal case.

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida ham kishini quvontiradigan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari, qonun osti hujjatlari jumladan farmonlar, farmoyishlar, qarorlar va buyruqlar kabi tashkiliy huquqiy hujjatlar qo'llanilmoqda.

Yuridik psixologiya fanining nazariy va amaliy muammolari, fanni o'qitishdagi innovatsiyalar, o'quv dasturi, ma'ruza matnlari, keyslar, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari shu kunga qadar oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan etarli darajada o'rganilmaganligi yuridik psixologiya fani muammolarini, xususan sud psixologik ekspertiza mavzusi muammolarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.



Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng tadbqiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko'p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog'liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarining ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug'ullana boshladilar.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng tadbqiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko'p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog'liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarining ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug'ullana boshladilar.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma'lum bo'lishicha, ilk marta 1810 yilda Napoleon "jinoyat kodeksi"ga o'z xatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik (vnmenyaemost, nevmenyaemost) layoqatini aniqlash tushunchasini kiritdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchining o'z xatti-xarakatlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864 yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilgan edi. Ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza o'tkazish ham ko'zda tutilgan. Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlandi.

Asrimizning o'rtalariga kelib, eksperimental psixologiya sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo'nalish bo'yicha laboratoriyalar tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulqi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o'rganila boshlandi.



1922 yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. Asrimizning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha markazlar ochilib, ularda sud psixologik ishlari olib borila boshladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, psixologik ekspertiza xizmati yana rivojlana boshladi. Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, o'rganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunchovchiliklar barham topdi.

O'zbekistonda XX asrning 70-80-yillaridan boshlab, psixologiya, huquqshunoslik psixologiyasi, kriminal psixologiya fanlari muayyan darajada rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu sohadagi o'zgarishlar yanada yaqqol sezila boshladi. Qonunchiligimiz asosi rivojlangan dunyo mamlakatlari tajribasidan foydalanilgan holda xalqaro talablar asosida qayta ko'rib chiqilib, yangilandi va takomillashtirildi. Sud ekspertizalari va shu jumladan, sud psixologik ekspertizasiga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Sud-psixologik ekspertizasini o'tkazish. Sud psixologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikai JPKning tegishli moddasiga binoan tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorga ko'ra tayinlanadi. Sudda esa ko'rilayotgan ishda psixologik mazmundagi vaziyatlarning mavjudligi haqida va ularning tergov jarayonida o'z yechimini topmaganligiga shubha tug'ilgan holatlarda sudya tomonidan chiqarilgan qarorga binoan sud psixologik ekspertizasi tayinlanadi. Bu xildagi protsessual hujjatlarda ekspertizadan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxs, uning sodir etgan jinoiy xatti-harakati haqidagi qisqacha bayonnoma hamda ushbu sodir etilgan jinoiy xatti-harakatda psixologik mazmundagi holatlarning mavjudligiga asoslanib, sud psixologik ekspertizasini tayinlash zarurligi to'g'risidagi fikr aks etgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatda ekspert aniqlanib, uning oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan savollar qo'yilishi kerak.

Jinoyat protsessual qonun talablariga ko'ra tergovchi tayinlangan barcha ekspertizalarda, jumladan, sud psixologik ekspertizasi o'tkazish jarayonida ham qatnashish huquqiga ega. Biroq qonunni inkor qilmagan holda, bizning nazarimizda, tergovchining sud psixologik ekspertizasida qatnashishini har doim ham maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Chunki ayrim hollarda psixologik eksperiment o'tkazish jarayonida tergovchining qatnashishi sinaluvchi uchun teskari ta'sir qilishi, ya'ni uning ko'nglidagi fikr-mulohazalarini ochiq-oydin ayta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayblanuvchi o'z jinoyatini tergov jarayonida tan olmagan bo'lsa, psixologik ekspertiza jarayonida jinoyatni sodir etganligini bo'yniga olishi mumkin. Bunday vaziyatda ekspert ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini tan olganligini ta'kidlab, jinoyatning sodir etilish holatlarini ekspertiza xulosasida ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda, psixologik ekspertizaning bunday vaziyatlarni yoritib berishi ko'rilayotgan ishning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, unutmazlik kerakki, psixologik ekspert ushbu xulosalarni faqat o'rganilayotgan ayblanuvchiga nisbatangina berishi zarur. Agarda ekspertiza uchun qo'shimcha ma'lumotlar olinishi lozim bo'lsa, ekspert-psixolog boshqa mutaxassislarni ham ekspertizaga taklif qilish huquqiga ega. Sudda sud psixologik ekspertizasini o'tkazish dastlabki tergov jarayonida o'tkaziladigan psixologik ekspertizaga qaraganda bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Xususan, sudda ekspert-psixolog jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan holatlar bo'yicha, ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini isbotlash jarayonida, uni so'roq qilishda va hokazolarda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashadi. U psixologik tadqiqot jarayoniga zarur boshqa kishilarni taklif etishi va ish yuzasidan yangi daliliy ko'rsatmalarni talab qilishi ham mumkin.

Sud psixologik ekspertizasini tayinlashdagi muhim jihatlardan biri ekspert tanlashdir. Shuning uchun biz quyida psixolog ekspertlar tanlash masalasi bo'yicha batafsilroq fikr yuritamiz.

1. Ekspert komissiyasi tarkibi kamida uchta mutaxassisdan iborat bo'lishi lozim. Chunki mutaxassislar hamkor va hamfikir bo'lib birgalikda ishlashadi, buning natijasida ekspertizadagi xatoliklarning oldi olinadi.



2. Psixologik ekspertiza o'tkazishga 5 yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lgan psixologlar, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining psixologiya kafedrasida ishlayotgan xodimlar yoki ilmiy tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy xodimlari jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir.

3. Ekspert komissiyasi tarkibida huquqshunoslik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis xodim hamda huquqshunos bo'lishi shart. Chunki, oliy o'quv yurtlari psixologiya bakalavriat yo'nalishini tugatgan psixologlar ko'pincha ekspertizaning huquqiy asoslariga, protsessual mohiyatiga taalluqli bo'lgan huquqiy tushunchalarni yetarlicha bilmasliklari mumkin.

4. Katta yoshdagi shaxsni sud psixologik ekspertizasidan o'tkazishga umumiy va yuridik psixologiya mutaxassislari jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmagan yoshlarni sud-psixolog mutaxassisi bilan birgalikda bolalar psixologiyasi mutaxassisi, keksa yoshdagi kishilarni esa gerontopsixologiya yo'nalishidagi mutaxassislarning ishtirokida sud-psixologiya ekspertizasidan o'tkazish lozim.

Psixologik-psixiatrik kompleks ekspertizasini o'tkazishda komissiya tarkibiga umumiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sud patopsixologiyasi mutaxassislari va psixiatrlar kirgani ma'qul.

Tibbiy-psixologik ekspertiza komissiyasi tarkibiga esa yuqoridagi mutaxassislardan tashqari sinaluvchining kasalligi bo'yicha (agar u mavjud bo'lsa) nevropatolog, logoped, seksopatolog, okulist va boshqa mutaxassislarning qatnashishi ayni muddaodir.

Psixolog-texnik ekspertizalar injenerlik, mehnat psixologiyasi mutaxassislari va albatta, texnik mutaxassis ishtirokida o'tkazilishi shart.

Sud psixologik ekspertizasining bosqichlari. Sud psixologik ekspertizasi bir qator bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Ekspertlarning jinoyatni isbotlash maqsadida o'tkazilgan jarayonidagi ishtiroki;
2. Tadqiqotni o'tkazish;
3. Xulosa uchun ahamiyatli bo'lgan vaziyatlarni oydinlashtirish;
4. Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish va xulosani bayon etish;
5. Ekspertlarni so'roq qilish.

Ekspert psixolog vazifasi nuqtai nazaridan ekspertizani ishga doir materialni o'rganishdan boshlanadi. Shuningdek, taqdim qilingan ish bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan tanishish va metodika tanlash jarayoni ham amalga oshiriladi. So'ngra dastlabki asosiy eksperiment o'tkaziladi. Eksperiment natijalarini qayta ishlash va uni asoslash, xulosa qilish hamda uni sud yoki tergovga taqdim qilish ham psixolog-ekspertning vazifasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Bogdanov V.M. Psixologicheskie osobennosti professionalnogo mishleniya rabotnikov ugolovnogo roziska. Omsk. 1994.
3. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (1-qism). Darslik. - Toshkent: TDYuI, 2009.
4. R.Qobilov, A.A. Otajonov va boshqalar Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik.– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
5. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik. Usmonaliyev M, Bakunov -T., "Nasaf" 2012.



Karaboyeva Gulzoda Akbar Ali qizi

Farg'ona davlat universiteti amaliy psixologiya yo'nalishi 3- kurs talabasi

EKSPRESSIV XULQDA SALOMLASHISH XATTI-HARAKATLARINI KODLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek millatiga xos bo'lgan salomlashish jarayonidagi xatti-harakatlarni vizual talqin qilishning o'ziga xos tomonlari yoritilgan. Shuningdek, ekspressiv xulqni kodlashtirish masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье описаны уникальные аспекты визуальной интерпретации поведения в процессе приветствия, характерные для узбекского народа. Также были затронуты вопросы кодификации экспрессивного поведения.

Annotation. This article describes the unique aspects of the visual interpretation of behavior during the greeting process, characteristic of the Uzbek people. Issues of codification of expressive behavior were also raised.

Kalit so'zlar. Ekspressiv xulq, shaxs xulq modeli, proksekemika, modal emotsiya

Ключевые слова. Экспрессивное поведение, модель поведения личности, проксемика, модальная эмоция


Keywords. Expressive behavior, personality behavior model, proxemics, modal emotion

Kirish. Millatni millatligini namoyon qilib turuvchi asosiy vositalardan biri bu tildir. Til yordamida insonlar o'z milliy an'ana va urf odatlarini namoyon qiladi. Har qanday insonning dastlabki muloqoti salomlashishdan boshlanadi va bu uning suhbatning qanday kechishini belgilab beradigan etakchi omillardan biri xsoblanadi. Darhaqiqat madaniyatning birinchi sof belgisi ham salomlashishdir. Profayling (inglizcha: profile — „profil“) — shaxsni tashqi ko'rinishi, noverbal va verbal xulqidagi eng ko'p axborot beruvchi maxsus belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish asosida inson xulqini baholash va prognozlashga qaratilgan psixologik usul va metodikalar majmuini bildiruvchi tushuncha. Profayl metodi asoschilari psixolog olimlar Paul Ekman, V. Frizen, M. Sukerman va B. De Paulo hisoblanadi. 2012-yilda esa Y. Spiritsa tomonidan yolg'onni tadqiq qilish bo'yicha Xalqaro akademiyada kriminal profayling usuli taqdim etildi. Profayling — bu shaxsning psixologik qiyofasini tuzishdir

Muhokama va natijalar

Salomlashish odobi shaxsning xulq-atvorini borasida ko'plab ma'lumotlar beradi. Shuning uchun biz shahar aholisi orasida salomlashish odobi to'g'risida ilk kichik tadqiqotimizni olib bordik va bu tadqiqotimizda salomlashishning o'ziga xos psixologik tomonlarini vizual baholash yordamida shaxs xulq modelini aniqlashga harakat qildik. Biz salomlashish jarayonidagi yuz emotsiyalari ya'ni shaxsning ekspressivligi va gavda harakatlari, suhbatdoshning egallagan xolatini baholash yordamida uning xulq reaksiyasi o'rgandik. Tadqiqotda 210 respondent qatnashdi. Tadqiqotda qatnashgan respondentlar haqidagi ma'lumot 1-jadvalda berilgan.

1-jadval.



Bu



tadqiqotimiz turli xildagi yosh davrlar o'rtasida olib borildi.

Tadqiqotimiz quyidagi tarzda olib borildi: turli yoshdagi respondentlarga salom berish orqali ularning bunga javob reaksiyalari kuzatildi.

Tadqiqotimiz natijasi esa quyidagilardan iborat bo'ldi:

Maktabgacha yosh davrdagi bolalarda salom tushunchasi ijobiy assotsiatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, quvonch emotsiya yetakchilik qilishi ma'lum bo'ldi. Ularda salom berish an'analari to'liq saqlanib qolgan. Ijtimoiylashuv jarayoniga endi kirayotganligi sababli salomlashishda bolalarda xayratlanish emotsiya bilan birga kechdi. Salomlashishda qayta aloqa mavjudligi aniqlandi.

Keyin biz tadqiqotimizni maktab yoshdagi yigit, qizlarni kuzatish orqali davom ettirdik. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, bu yoshdagi yigit, qizlar salomlashish jarayoniga be e'tiborlik bilan munosabatda bo'ldilar. Bu yoshdagi yigit qizlarning bunday munosabatlarning shakllanishiga sabab birinchi o'tish davriga xos xususiyatlar shuningdek zamonaviy salomlashish tendensiyasining tasiri va ma'lum sanksiyalarning kamayishi deb izohlash mumkin. Tadqiqot obyekti turli yosh davrlarini qamrab olganligi sababli o'smir yoshidagi respondentlarni xam salomlashishi jarayonidagi xulq modeli kuzatildi. Ularning suhbatdoshning salomiga javob reaksiyasi o'rganildi. Yigit va qizlarning bazilari uyalganlaridan, ko'zlarini olib qochgan holda kulimsirab alik olishdi. Ayrim o'smirlar esa, dadillik o'zida ishonch bilan salom berdilar. Afsuski 78% o'smir yigit va qizlar bepisandlik harakatini namoyon etdilar. Ular na salom berishdi va na alik olishdi, xattoki ahamiyat ham berishmadi. Bu yosh davridagi yigit va qizlarni beparvolik xulqini namoyon etishda ekapressivligini emotsiyasini kuzatish qiyin kechdi. Ularning deyarlik barchasida ijtimoiy emossiyalar modal emossiyalarning o'rni egallagan. Yani yolg'on emotsiyalar bilan sug'orilgan.

Tadqiqotimiz davomida 18 yoshdan 40 yosh atrofida kichik yoshdagilarning salom berishga javobidan nisbatan farq qilib, kutilmagan jarayon sifatida o'zlarini namoyon qildilar. Bu yoshdagi respondenlarning ma'lum qismi salomimizga xayron bo'lib alik olishdi. Ba'zi bir insonlar esa, mamnun bo'lib alik olishdi. Yana ba'zi bir insonlar salom berib o'tib ketganimizdan so'ng ortga qarab kuzatgan xolda alik oldilar. Xattoki salomga alikni og'rinib olganlar ham uchradi.

Kuzatuv mobaynida deyarli sanoqli insonlarning gavda xarakatlarida suhbatdoshga nisbatan qiziqish namoyon bo'lib, bosh va tana korpusi suhbatdosh tomoniga egilishi ijobiy emotsional ekspresiyasining davomli uzatilishi deyarli klassik uslubda foydalanilgan xolda salomlashish urfini namoyon qilganliklari kuzatildi.

Salomlashishda aholining demografik joylashuviga nisbatan keskin tafovut qayd etildi. Shahardagi insonlar xayron qolish, ko'zini bir nuqtaga qarab, ensasini qotirib, hattoki gumon ma'nosida ham qarashni namoyon qilib, ularning xulqida yodsirash, beparvolik, rad etish kabi xulq xususiyatlari kuzatildi. Xuddi shuningdek, qishloq aholisining salomlashish odob xulqi kuzatildi. Kuzatuvlar natijasiga ko'ra qishloq aholisi uchun salomlashish kodlashtirishning ijobiy belgilari bilan asossiyalashganligining aniqladik. Qishloqlarimizning aksariyat aholisi salom berganimizda yuzlarida haqiqiy tabassum, mamnunlikni guvohi bo'ldik. Qishloqlarda salomlashish odobi unutilib ketmagangi kuzatildi. Shaharda esa, deyarli tanimagan insonga nisbatan salomga alik qaytarish harakati bo'lgan teskari aloqa past ko'rsatkichga ega bo'lib chiqdi.

Tadqiqot natijalari salomlashish odobining turli yosh guruhlari va demografik joylashuvlar o'rtasidagi tafovutlarini ochib berdi. Kichik yoshdagi bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga kirayotganligi sababli salomlashishga ijobiy munosabat bildirishdi. O'smirlar va maktab yoshi davridagi respondentlar zamonaviy tendensiyalar va shaxsiy o'zgarishlar ta'sirida beparvo munosabat ko'rsatishdi. Shahardagi respondentlarda yodsirash holati kuzatilgan bo'lsa, qishloq aholisida ijobiy salomlashish odoblari saqlanib qolgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan salomlashish etikasining zamonaviy talqinlari kelgusida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish uchun foydalanilishi mumkin. Bu o'sib kelayotgan avlodda salomlashish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida salomlashish odatining zamonaviy talqinda namoyon bo'lishini



kuzatishdan olingan natijalarga muvofiq o'sib kelayotgan avlodda manaviy-axloqiy sifatlar va fazilatlarini rivojlantirishda salomlashish etikasini mukammal tarzda shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytaolamizki, biz turli xudud va turli yoshdagi insonlarga salom berib ularni ekspressiv xulqini kuzatdik. Kuzatilgan xatti-harakatlar maxsus kodlar yordamida talqin qilindi. Kuzatish natijalariga ko'ra shahar va qishloq aholisining salomlashish xulqida ma'lum farqlar mavjudligi qayd etildi. Samimiy va ijobiylik qutubi bilan soxtalik va salbilik qutubida farq mavjud bo'lib, shahar aholisining proksekemik (xudud) xulqida shaxsiy xudud bilan bog'liq to'siqlarni ko'rish mumkin. Shahar aholisi suhbatdoshni ijtimoiy xududda ushlab turishga harakati bilan an'anaviy salomlashishdagi samimiylikni yo'qotib borayotgani qayd etildi. Hozirgi zamonda salom berish va salomga alik olish madaniyati katta yoshli insonlarda nisbatan an'anaviy tarzda saqlanib qolgan. O'smirlarda bu jarayon zamonaviy salomlashish uyg'unlashib, biroz qo'pollashgan. Demak, bugungi kunda salomlashish qonun- qoidalari, odobi borasida amaliy tavsialarning zamonaviy talqinida o'sib kelayotgani yosh avlodga uzatish o'ta zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. Toshkent, O'zbekiston, 2017, 320-bet.
2. Shavkat Mirziyoyev. *O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat*. Toshkent, O'zbekiston, 2020, 350-bet.
3. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T: "O'zbekiston", 2019. – 592b
4. Albert Mehrabian. *Nonverbal Communication*. Aldine Transaction, 1972, 182-bet.
5. Skinner, Keith; Evans, Stewart. *The Ultimate Jack the Ripper Sourcebook* (https://books.google.com/books?id=_UjBBAAAQBAJ). Little, Brown Book Group, 2013. ISBN 978147210
6. Desmond Morris. *Peoplewatching: The Desmond Morris Guide to Body Language*. Vintage, 2002, 320-bet.
7. SOLIYEV F., AKBAROVA N. TURLI KASB EGALARINING TASHQI SEMANTIK BELGILAR ASOSIDA O'ZGA SHAXSNI VIZUAL BAHOLASH XUSUSIYATLARI //Journal of Pedagogical and Psychological Studies. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 47-52.
8. Adam Kendon. *Gesture: Visible Action as Utterance*. Cambridge University Press, 2004, 418-bet.
9. Peter Collett. *The Book of Tells: How to Read People's Minds from Their Actions*. Bantam, 2003, 352-bet.
10. Roger E. Axtell. *Gestures: The Do's and Taboos of Body Language Around the World*. John Wiley & Sons, 1997, 288-bet.



Nuraliyeva Dildora Ma'murjonovna

Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Olimova Yorqinoy Mashrabovna

Farg'ona davlat universiteti psixologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'QUVCHILAR PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Annotatsiya: ushbu maqola raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning psixologiyasiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning motivatsiyasiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga, diqqatni jamlash qobiliyatiga, emotsional holatiga va ijtimoiy aloqalariga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari, shu jumladan, internet-qaramlik, stress, uyqusizlik va ijtimoiy izolyatsiya kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, o'quvchilar psixologiyasi, motivatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, internet-qaramlik, stress, emotsional salomatlik, diqqatni jamlash, kognitiv rivojlanish, psixologik farovonlik.

Аннотация: данная статья посвящена изучению влияния цифровых технологий на психологию учащихся. В статье анализируются влияние цифровых технологий на мотивацию учащихся, уверенность в себе, способность сосредоточить внимание, эмоциональное состояние и социальные взаимодействия. Также в статье рассматриваются положительные и отрицательные стороны цифровых технологий, такие как интернет-зависимость, стресс, бессонница и социальная изоляция.

Ключевые слова: цифровые технологии психология учащихся мотивация социальные сети интернет-зависимость стресс эмоциональное благополучие сосредоточение внимания когнитивное развитие психологическое благополучие.

Abstract: this article focuses on studying the impact of digital technologies on students' psychology. The article analyzes the influence of digital technologies on students' motivation, self-confidence, attention span, emotional state, and social interactions. It also discusses both the positive and negative aspects of digital technologies, including internet addiction, stress, insomnia, and social isolation.

Keywords: digital technologies, students' psychology, motivation, social networks, internet addiction, stress, emotional well-being, attention span, cognitive development, psychological well-being.

Kirish. Raqamli texnologiyalarni joriy qilish o'quv jarayonini sezilarli darajada o'zgartirdi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning ta'lim olish usullarini, o'zaro munosabatlarini va psixologik holatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yangi avlod o'quvchilari internet, mobil ilovalar, o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar kabi raqamli resurslarga aloqador bo'lgan vaziyatda tarbiyalanadi. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning bilim olishiga, balki ularning psixologik rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning psixologiyasiga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning psixologiyasiga ko'plab ta'sirlar ko'rsatadi. Ularning aksariyati zamonaviy jamiyatning o'zgargan ehtiyojlari va imkoniyatlariga javob beradi. O'quvchilarning psixologik rivojlanishida texnologiyalarning ijobiy va salbiy ta'sirlarini ko'rishimiz mumkin. Ijobiy Ta'sirlar:

- O'quvchilarni motivatsiyalash: raqamli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Interaktiv darsliklar, onlayn o'yinlar va video darslar o'quvchilarga o'rgatish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilarni o'ziga jalb qiladigan interaktiv o'yinlar va platformalar ularning o'rganish motivatsiyasini oshiradi. Bunday resurslar o'quvchilarga o'zingizni baholash va yutuqlarini ko'rish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida motivatsiyani oshiradi.



• Ta'limning individualizatsiyasi: raqamli texnologiyalar o'quvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Ta'lim resurslari, masalan, onlayn kurslar va videolar o'quvchilarga o'z tezligida va shaxsiy qiziqishlariga mos ravishda o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning psixologik farovonligini yaxshilaydi, chunki ular o'z vaqtida o'rganish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

• Kognitiv rivojlanish: raqamli texnologiyalar o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kompyuter o'yinlari, masalan, ko'plab mantiqiy va strategik vazifalarni hal qilishni talab qiladi, bu esa ularning muammoni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Onlayn o'yinlar va mantiqiy dasturlar o'quvchilarga yangi bilimlarni tezda o'zlashtirish imkonini beradi va ular uchun yangi kognitiv cheklovlarni tashkil etadi. Shuningdek, salbiy ta'sirlar:

• Diqqatni jamlashning qiyinlashishi: raqamli texnologiyalar o'quvchilarning diqqatini jamlash qobiliyatini susaytirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar va boshqa raqamli platformalar o'quvchilarning diqqatini bir joyga to'plashni qiyinlashtiradi. Bu esa o'quvchilarning o'rganish jarayonida muvaffaqiyatsizliklarga olib kelishi mumkin. Onlayn o'yinlarga va ijtimoiy tarmoqlarga uzoq vaqt sarflanish, o'quvchilarning o'quv faoliyatiga e'tiborlarini kamaytiradi.

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda aqliy qobiliyatlarning rivojlanishi juda muhimdir. O'quvchilarning aqliy salohiyatini yaxshilash, ularga individual yondashuvni qo'llash va o'qituvchining to'g'ri pedagogik metodlarini ishlatish orqali amalga oshiriladi. Aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat o'quvchilarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qilish, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy moslashuviga ham yordam beradi. Tadqiqotlar va natijalar

1. Tadqiqotning maqsadi va metodologiyasi

Tadqiqotning asosiy maqsadi tarbiyasi og'ir o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari va psixologik holatini o'rganish, shuningdek, ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatini tahlil qilish edi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

So'rovnomalar va anketalar: O'quvchilar, o'qituvchilar va psixologlar o'rtasida so'rovnomalar va anketalar o'tkazildi. Bu metod o'quvchilarning o'zlarini qanday his qilishlarini va o'qishga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam berdi.

Psixologik testlar: O'quvchilarning aqliy va psixologik salohiyatini aniqlash uchun turli psixologik testlar qo'llanildi. Bu testlar diqqat, xotira, fikrlash tezligi va ijodiy tafakkur kabi komponentlarni o'rgandi.

Intervyular: O'qituvchilar va psixologlar bilan intervyular olib borildi. Bu intervyularda o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklari, o'qituvchilarning yondashuvlari va o'quvchilarga qo'yiladigan talablar muhokama qilindi.

O'quvchilarning ishlari va jarayonni kuzatish: O'quvchilarning sinfdagi ishlari, darslarga bo'lgan ishtiroki va darsdan tashqaridagi faoliyatlari tahlil qilindi.

2. Tadqiqot natijalari

Tadqiqotlar o'quvchilarning aqliy va psixologik holatidagi ba'zi asosiy xususiyatlarni ochib berdi. Quyidagi natijalar muhim hisoblanadi:

a) Aqliy qobiliyatlar va ularning rivojlanishi Tarbiyasi og'ir o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari turli darajalarda bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar natijasida aniqlanganidek:

Diqqat va konsentratsiya: O'quvchilarning diqqatini biror narsaga uzoq vaqt davomida jamlashda qiyinchiliklar mavjudligi kuzatildi. Biroq, individual yondashuvlar va turli pedagogik usullar yordamida bu muammoni bartaraf etish mumkinligi aniqlangan.

Xotira: O'quvchilarning qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirasi ba'zan zaiflashgan bo'lishi mumkin. Xotira bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar tomonidan maxsus mashqlar va xotirani rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar qo'llanildi.

Ijodiy tafakkur: Tadqiqotda, tarbiyasi og'ir o'quvchilarning ijodiy tafakkuriga e'tibor qaratildi. Bunday o'quvchilarda ba'zida yangi g'oyalar yaratish va muammolarni hal qilishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, ammo ularni rag'batlantirish va ijodiy faoliyatlarga jalb qilish bu qobiliyatni rivojlantirishga yordam berdi.

b) Psixologik xususiyatlar Tarbiyasi og'ir o'quvchilarning psixologik holati ham tadqiqotlarda muhim o'rin tutdi. Shulardan ba'zilari:

Stress va o'zini past baholash: O'quvchilarning ko'pchiligida stress va o'zini past baholash muammolari bor edi. Bu holat, o'quvchilarni o'zlarining imkoniyatlariga shubha qilishga undaydi. Psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash orqali bu muammo bartaraf etilishi mumkin.

Motivatsiya: O'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda o'qituvchilarning rag'batlantirish usullari muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda, o'quvchilarga muvaffaqiyatlari uchun ijobiy rag'batlantirish berish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam berishi aniqlandi.

Ijtimoiy moslashuv: Ijtimoiy moslashuv muammolari ham tarbiyasi og'ir o'quvchilar uchun xosdir. Tadqiqotlar natijasida, o'quvchilarning sinfdoshlar bilan ijtimoiy aloqalari va o'zaro hamkorligi orqali bu muammoning bartaraf etilishi mumkinligi ko'rsatildi.

c) Ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabat Tarbiyasi og'ir o'quvchilar ta'lim jarayoniga turlicha munosabatda bo'lishadi. Tadqiqotlarda quyidagi holatlar aniqlangan:

O'qishga bo'lgan qiziqish: Ba'zi o'quvchilar o'qishga nisbatan qiziqishlarini yo'qotgan, lekin individual yondashuv va qiziqarli ta'lim metodlari orqali bu qiziqishni qayta tiklash mumkin bo'ldi.



Xulq-atvor muammolari: O'quvchilarning sinfdagi xulq-atvori ko'pincha normadan og'ishgan. Biroq, o'qituvchilar tomonidan joriy etilgan psixologik va pedagogik metodlar yordamida bu muammo sezilarli darajada yaxshilandi.

3. Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Tadqiqotning amaliy natijalari, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchilarga quyidagi muhim ko'nikmalarni taklif qiladi:

Individual yondashuv: O'quvchilarga ularning aqliy va psixologik xususiyatlariga mos ravishda individual yondashuvni qo'llash zarur. Bu ularning salohiyatini to'liq ochishga yordam beradi.

Psixologik yordam: O'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash uchun professional psixologik yordam va ko'mak kerak. O'quvchilarga stressni boshqarish, o'zini past baholashdan xalos bo'lish va motivatsiyani oshirish uchun turli psixologik texnikalar qo'llanilishi mumkin.

Ijtimoiy faoliyatlar: O'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash uchun guruh ishlarida va ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etish muhimdir.

Rahbarlarining kasbiy yo'nalganligining xususiyatlari

1. Kasbiy bilim va ko'nikmalar

Rahbarning kasbiy bilim va ko'nikmalari uning ish faoliyatida samarali bo'lishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda rahbarlar pedagogik bilimlar bilan bir qatorda psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarning xususiyatlarini, muammolarini va ehtiyojlarini to'g'ri tahlil qilishda yordam beradi.

Pedagogik bilimlar: O'qituvchilarni boshqarish, ta'lim jarayonini tashkil etish va o'quvchilarni o'qishga rag'batlantirishda pedagogik bilimlar juda muhim. Rahbarlar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishlari va o'z yondashuvlarini moslashtirishlari kerak.

Psixologik bilimlar: Tarbiyasi og'ir o'quvchilar ko'pincha psixologik muammolar bilan yuzma-yuz kelishadi. Shuning uchun rahbarlar psixologik yondashuvlarni tushunib, o'quvchilarning hissiy holatlarini to'g'ri aniqlash va ularga mos keladigan metodlarni qo'llashlari zarur.

2. Rahbarlik qobiliyatlari

Rahbarlik qobiliyatlari, rahbarning o'quvchilarni boshqarish va ular bilan samarali muloqot qilishdagi asosiy omillardir. Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda rahbarning rahbarlik qobiliyatlari uning muvaffaqiyatli ish faoliyatini belgilovchi asosiy faktor hisoblanadi. Rahbarlik qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

Kommunikativ qobiliyatlar: Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda muloqot qilish qobiliyati juda muhim. Rahbar o'quvchilarning fikrlarini tinglash, ularning ehtiyojlarini tushunish va ularga kerakli yo'nalishni ko'rsatish uchun samarali kommunikatsiya qilishlari kerak. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning ishonchini qozonishga yordam beradi.

Motivatsiya va rag'batlantirish: Rahbarning motivatsiya berish qobiliyati o'quvchilarni o'zlariga bo'lgan ishonchni tiklash va o'qishga rag'batlantirishda katta ahamiyatga ega. Tarbiyasi og'ir o'quvchilarda motivatsiya etishmasligi mumkin, shuning uchun rahbar ularni ijobiy yo'nalishda rag'batlantirishi zarur.

Muammolarni hal qilish qobiliyati: Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda rahbarlar ko'plab muammolar bilan yuzma-yuz kelishadi, masalan, o'quvchilarning o'zini tutishi, xulq-atvori yoki o'qishdagi qiyinchiliklar. Rahbarlarning muammolarni tahlil qilish va hal qilish qobiliyati bu jarayonda katta rol o'ynaydi.

3. Pedagogik yondashuvlar va strategiyalar

Rahbarlar o'quvchilarning o'quv jarayonini rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvlarni qo'llashlari kerak. Bu yondashuvlar o'quvchilarning psixologik holatiga, aqliy qobiliyatlariga va xulq-atvorlariga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak. Rahbarlarning kasbiy yo'nalganligi, o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatidan iborat. Individual yondashuv: Tarbiyasi og'ir o'quvchilar ko'pincha o'ziga xos



ehtiyojlarga ega. Rahbarlar har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, mos pedagogik usullarni qo'llashlari lozim. Bu o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini ta'minlashda samarali yondashuvni yaratadi. Differensial ta'lim: Rahbarlar o'quvchilarning aqliy va psixologik salohiyatiga mos ravishda turli darajadagi topshiriqlarni va o'quv materiallarini taqdim etishlari kerak. Bu, o'quvchilarning o'rganish jarayonida o'zlarini qulay va muvaffaqiyatli his qilishlarini ta'minlaydi.

Guruh ishlari va hamkorlik: O'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun guruh ishlarida ishtirok etish muhim. Rahbarlar, shuningdek, o'quvchilarga guruhdagi muammolarni hal qilish, birgalikda ishlash va o'zaro yordam berish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni o'rgatishlari zarur.

4. Kasbiy etik va shaxsiy xususiyatlar

Rahbarlarning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy etikasi ham ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi va ularga bo'lgan munosabat rahbarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq.

Sabr-toqat va hamdardlik: Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda rahbarning sabrtoqati va hamdardligi katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning muammolarini tushunish, ularga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish va doimo sabr bilan yondashish o'quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradi.

Adolat va tenglik: Rahbarlarning adolatli va tenglik tamoyillariga rioya qilishlari kerak.

O'quvchilarga nisbatan adolatli yondashuv, ularning o'zini hurmat qilishlariga yordam beradi va shaxsiy rivojlanishlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Xulosa . Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashning psixologik xususiyatlarini o'rganish, ta'lim jarayonida rahbarlarning kasbiy yo'nalganligining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Rahbarlarning kasbiy bilimlari, pedagogik yondashuvlari va rahbarlik qobiliyatlari o'quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tarbiyasi og'ir o'quvchilarning aqliy va psixologik xususiyatlariga mos ravishda individual yondashuvlar, psixologik yordam va motivatsiya berish usullari ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Rahbarlarning kasbiy yo'nalganligi, nafaqat o'quvchilarning intellektual rivojlanishini, balki ularning psixologik holatini yaxshilashga ham yordam beradi. Bu jarayonlarda rahbarning rahbarlik qobiliyatlari, kommunikativ mahorati va adolatli yondashuvi o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni o'qishga rag'batlantiradi.

Shuningdek, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda rahbarlar uchun doimiy o'qish va o'z ustida ishlash muhimdir. Ular yangi pedagogik usullarni va psixologik yondashuvlarni o'z ishlari-ga joriy etib, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda metodlarni ishlab chiqishlari kerak. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi va ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Umuman olganda, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan samarali ishlash uchun rahbarlarning kasbiy yo'nalganligi, ularning pedagogik bilimlari va psixologik qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirib borish zarur. Bu o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Keltirilgan xulosalar asosida quyidagi tavsiyalarni berish lozim:

Rahbarlarning Kasbiy Tayyorligini Oshirish

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan samarali ishlash uchun rahbarlarning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun rahbarlar o'z pedagogik bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishlari, psixologik ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos yondashuvni ishlab chiqish va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Individual Yondashuvni Rivojlantirish

Tarbiyasi og'ir o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, rahbarlar har bir o'quvchiga individual yondashuvni qo'llashlari zarur. Bunga o'quvchilarning aqliy va



psixologik salohiyatlariga mos ravishda maxsus dasturlar va metodikalarni ishlab chiqish kiradi. Bu yondashuv o'quvchilarning rivojlanishiga yordam berishi va o'qishdagi muvaffaqiyatlarini oshirishi mumkin.

Psixologik Yordam va Motivatsiyani Kuchaytirish

O'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash uchun psixologik yordam va qo'llabquvvatlash ko'rsatilishi zarur. Rahbarlar, shuningdek, o'quvchilarni doimiy ravishda rag'batlantirishga, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga harakat qilishlari kerak. Buning uchun o'quvchilarga muvaffaqiyatlari uchun ijobiy motivatsiya berish va psixologik yondashuvlarni qo'llash muhimdir.

Ijtimoiy Faoliyatlar va Guruh Ishlarini Rivojlantirish

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda guruh ishlari va ijtimoiy faoliyatlar muhim o'rin tutadi. Rahbarlar o'quvchilarni birgalikda ishlash, o'zaro hamkorlik qilish va guruhda muammolarni hal qilishga rag'batlantirishlari zarur. Bu o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga yordam beradi va ularning guruhdagi o'rinlarini mustahkamlashga olib keladi.

Adolat va Tenglikni Ta'minlash

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda rahbarlar o'quvchilarga nisbatan adolatli va teng yondashuvni qo'llashlari kerak. O'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari va muammolarini hisobga olib, ularni teng va adolatli ravishda baholash ularning o'zini hurmat qilishini ta'minlaydi va ta'lim jarayoniga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Xulq-atvor va Rivojlanishning Psixologik Asoslari Bo'yicha Kurslar

Rahbarlar uchun xulq-atvor va psixologik rivojlanish asoslari bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilishi tavsiya etiladi. Bular rahbarlarga o'quvchilarning xulq-atvorini tushunish, muammolarni hal qilish va samarali ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Barcha O'qituvchilar va Psixologlar o'rtasida Hamkorlikni Kuchaytirish

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda barcha pedagogik jamoaning birgalikda faoliyat yuritishi muhim. Shuning uchun o'qituvchilar va psixologlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu o'quvchilarning psixologik, ijtimoiy va aqliy rivojlanishini yaxshilashda samarali bo'ladi.

O'quvchilarni Ijodiy Faoliyatga Jalb Qilish

Tarbiyasi og'ir o'quvchilarni ijodiy faoliyatlarga jalb qilish, ularning muammolarni hal qilishdagi qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Rahbarlar o'quvchilarga turli ijodiy mashqlar, loyiha ishlari va guruh ishlari orqali o'zlarini ifoda etish imkoniyatlarini yaratishlari kerak. Rag'batlantirish Va Qiyinchiliklarni Yengib O'tishda Yordam

Tarbiyasi og'ir o'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam berish va ularni rag'batlantirish muhimdir. O'quvchilarni muvaffaqiyatlari uchun mukofotlash va o'qishdagi yutuqlarini qadrlash, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Ta'lim va Tarbiya Jarayonini Innovatsion Yondashuvlar Bilan Boyitish

Rahbarlar ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishi lozim. Zamon talablariga mos ravishda texnologiyalar va yangi pedagogik metodlarni qo'llash o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Aminov, M. (2015). Tarbiyasi og'ir o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash usullari. Tashkent: Ma'naviyat.
2. Xo'jaeva, L. (2018). O'quvchilarning psixologik rivojlanishi va tarbiyasi. Tashkent: O'zbekiston.
3. Baxramov, A. (2020). Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O'qituvchi.
4. Shamsiyeva, R. (2017). Pedagogik psixologiya va tarbiyaviy ishlar. Tashkent: Fan.



5. Samarqand, G. (2016). *Pedagogik psixologiya: Nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: Akademnashr.
6. Saidov, T. (2021). *O'quvchilarni o'qish va tarbiyasi: Zamonaviy yondashuvlar*. Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashri.
7. Yusufova, F. (2019). *Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining roli*. Tashkent: Iqtisodiyot va pedagogika.
8. Rustamov, S. (2014). *Tarbiyasi og'ir o'quvchilarni o'qitishda psixologik yordam*. Toshkent: TDTU nashriyoti.
9. Ivanova, M. (2015). *Oqituvchining psixologik yondashuvi: Kasbiy qobiliyatlar va ta'lim metodikasi*. Moskva: Pedagogika.
10. Miller, J. (2017). *Psychology in education: Understanding student behavior*. London: Routledge.
11. Aminov, M. (2015). *Tarbiyasi og'ir o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash usullari*. Tashkent: Ma'naviyat.
12. Xo'jaeva, L. (2018). *O'quvchilarning psixologik rivojlanishi va tarbiyasi*. Tashkent: O'zbekiston.
13. Baxramov, A. (2020). *Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda pedagogik yondashuvlar*. Toshkent: O'qituvchi.
14. Shamsiyeva, R. (2017). *Pedagogik psixologiya va tarbiyaviy ishlar*. Tashkent: Fan.
15. Samarqand, G. (2016). *Pedagogik psixologiya: Nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: Akademnashr.
16. Saidov, T. (2021). *O'quvchilarni o'qish va tarbiyasi: Zamonaviy yondashuvlar*. Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashri.
17. Yusufova, F. (2019). *Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining roli*. Tashkent: Iqtisodiyot va pedagogika.
18. Rustamov, S. (2014). *Tarbiyasi og'ir o'quvchilarni o'qitishda psixologik yordam*. Toshkent: TDTU nashriyoti.
19. Ivanova, M. (2015). *Oqituvchining psixologik yondashuvi: Kasbiy qobiliyatlar va ta'lim metodikasi*. Moskva: Pedagogika.
20. Miller, J. (2017). *Psychology in education: Understanding student behavior*. London: Routledge.



*Arziqulov Hasan Normurod o'gli,
Samarqand davlat chet tillari instituti,
Narpay xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi*

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM OLUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonining psixologik va pedagogik omillari tahlil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishda markaziy o'rin tutib, o'quvchining shaxsiy faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijodiy yondashuvini hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi psixologik omillar sifatida motivatsiya, o'zini anglash, kasbiy identifikatsiya, o'z-o'zini boshqarish kabi mezonlar yoritilgan. Pedagogik jihatdan esa ta'lim mazmunining amaliyotga yo'naltirilganligi, interfaol metodlardan foydalanish, reflektiv tahlilni rag'batlantirish, va o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi subyekt-subyektli munosabatlar muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, psixologik omillar, pedagogik omillar, motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, refleksiya, ta'lim sifati, interfaol metodlar, o'z-o'zini rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические и педагогические факторы формирования профессиональной подготовки обучающихся на основе компетентностного подхода. Компетентностный подход играет центральную роль в модернизации образовательного процесса, способствуя развитию личной активности, способности к самостоятельному мышлению, творческого подхода и практических навыков у обучающихся. В качестве психологических факторов, обеспечивающих профессиональную подготовку, рассматриваются мотивация, самопознание, профессиональная идентификация, саморегуляция. С педагогической точки зрения выделены такие факторы, как практикоориентированность содержания образования, использование интерактивных методов, стимулирование рефлексивного анализа, а также субъект-субъектные отношения между преподавателем и обучающимся. В статье также подчеркивается значение системы диагностики, мониторинга и оценки в формировании профессиональных компетенций и необходимость эффективной организации психолого-педагогических условий. Результаты исследования позволяют выработать действенные стратегии реализации компетентностного подхода и раскрывают их практическую значимость.

Ключевые слова: компетентностный подход, профессиональная подготовка, психологические факторы, педагогические факторы, мотивация, профессиональная идентификация, рефлексия, качество образования, интерактивные методы, саморазвитие.

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical factors involved in shaping students' professional training based on the competence-based approach. The competence-based approach plays a central role in modernizing the educational process by fostering learners' personal engagement, independent thinking, creative attitude, and practical skills. The psychological factors supporting professional training discussed in the article include motivation, self-awareness, professional identification, and self-regulation. Pedagogically, the focus is on practice-oriented curriculum content, use of interactive teaching methods, encouragement of reflective analysis, and subject-subject interaction between teacher and student. The article also highlights the importance of diagnostic, monitoring, and assessment systems in forming professional competencies, as well as the necessity of creating effective psychological and pedagogical conditions. Based on the research findings, effective strategies for implementing the competence-based approach are proposed, emphasizing their practical relevance.



Keywords: *competence-based approach, professional training, psychological factors, pedagogical factors, motivation, professional identification, reflection, education quality, interactive methods, self-development.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimiga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgarib, an'anaviy bilimga asoslangan modeldan amaliy ko'nikmalar va shaxsiy salohiyatga yo'naltirilgan kompetensiyaviy yondashuvga o'tish zarurati kuchaymoqda. Ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat kasbiy bilimlarni egallash, balki ularni hayotiy muammolarni hal etish, kommunikatsiya, moslashuvchanlik va o'z-o'zini rivojlantirish kabi ko'nikmalar bilan uyg'un holda shakllantirishni ham talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoniga psixologik va pedagogik omillarni chuqur integratsiyalash lozim bo'lmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv o'quv jarayonida ta'lim oluvchining shaxsini markazga qo'yadi, ya'ni uning motivatsiyasi, o'zini anglash darajasi, kasbiy o'zligini shakllantirishga bo'lgan intilishi, reflektiv fikrlashi va amaliy faoliyatga tayyorligi asosiy mezon sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ta'lim beruvchining pedagogik mahorati, interfaol metodlardan foydalanish qobiliyati, ta'lim muhitining o'quvchiga yo'naltirilganligi, subyektiv yondashuv tamoyillarining amalga oshirilishi kasbiy tayyorgarlikning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir.

Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv doirasida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan psixologik va pedagogik omillar tizimli tarzda tahlil qilinadi, shuningdek, bu yondashuvning amaliy ahamiyati va uni ta'lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimida asosiy metodologik paradigma sifatida e'tirof etilmoqda. A.K. Markova (2004) ta'kidlashicha, kasbiy tayyorgarlik shaxsiy kompetensiyalar majmuini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayonda shaxsning o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini baholash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. N.V. Kuzmina (2006) esa pedagogik mahoratni kasbiy kompetensiyaning markaziy yadrosi deb hisoblaydi va u faqat nazariy bilimlar emas, balki psixologik tayyorgarlik, kommunikativ qobiliyatlar va innovatsion fikrlash bilan bog'liq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

E.F. Zeer (2011) kompetensiyaviy yondashuvni talabning psixologik rivojlanishi bilan chambarchas bog'laydi va bu jarayonda motivatsiya, refleksiya, moslashuvchanlik va o'z-o'zini tahlil qilish kabi omillarning ta'siri ustuvor ekanligini qayd etadi. T.I. Shamova (2003) o'z tadqiqotlarida kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashda interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligini isbotlab, subyekt-subyektli yondashuvni ta'lim samaradorligining muhim mezon sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, S.D. Smirnov (2007) kompetensiyaviy yondashuv orqali shaxsiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorlikni shakllantirish zarurligini asoslab beradi.

Xorijiy olimlardan J. Raven (2000) tomonidan ishlab chiqilgan umumiy kompetensiyalar konsepsiyasi shaxsning intellektual, axloqiy va kommunikativ jihatdan tayyorgarligini o'lchash mezonlarini belgilaydi. P. Lengrand esa (1993) uzluksiz ta'lim g'oyasiga tayanib, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy tajribasidan foydalanish zarurligini ilgari suradi. UNESCO ekspertlari tomonidan tavsiya etilgan kompetensiyaviy model esa kasbiy tayyorgarlikni nafaqat bilim va malaka, balki qadriyatlar, hayotiy tajriba va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari bilan bog'liq deb baholaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan G.B. Shoumarov, N.A. Musurmonova, A.A. Rasulov va R.I. Sunnatovalarning izlanishlarida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda milliy qadriyatlar, shaxsiy intilishlar va amaliy faoliyatni uyg'unlashtirish muhimligi alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, G.B. Shoumarov (2017) pedagogik jarayonda kasbiy identifikatsiya va shaxsiy maqsadlilikning ahamiyatini chuqur o'rganib chiqqan.

Yuqoridagi adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish ko'p omilli, murakkab va chuqur psixologik-pedagogik asosga ega bo'lgan jarayondir. Bu esa ta'lim jarayonida motivatsion, reflektiv va innovatsion komponentlarni uyg'un qo'llashni taqozo etadi.



Muhokama. Zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning qo'llanilishi nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilganligidan dalolat beradi. Bu yondashuv ta'lim oluvchining faqat bilimli emas, balki har tomonlama faol, moslasha oladigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllanishini ko'zlaydi. Shu nuqtai nazardan, psixologik va pedagogik omillar ushbu yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, motivatsiyaning mavjudligi va uni qo'llab-quvvatlash ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini barqarorlashtiradi. O'zini anglash va kasbiy identifikatsiya kabi omillar shaxsning o'z kasbiy rolini qabul qilishi va unga bo'lgan mas'uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, reflektiv yondashuv, ya'ni o'z faoliyatini tahlil qila olish, xatolardan saboq olish va doimiy o'zgarishlarga tayyor turish kompetensiyaning asosiy psixologik tayanchlaridan biridir.

Pedagogik omillar esa, o'quv jarayonining mazmuniy va tashkiliy jihatlari bilan bog'liqdir. O'quv dasturining amaliyotga yo'naltirilganligi, real hayotiy vaziyatlarda mustaqil faoliyat yuritishga undovchi topshiriqlarning mavjudligi, interfaol metodlardan foydalanish – bularning barchasi kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Subyekt-subyektli pedagogik muloqot esa ta'lim oluvchining shaxsiy faolligini, tashabbuskorligini va o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim oluvchilar o'zlarining kasbiy kompetensiyalarini muvaffaqiyatli shakllantirishlari uchun nafaqat ma'lumotga, balki samarali psixologik-pedagogik muhitga ham muhtojdirlar. Bu muhit motivatsiyalovchi, qo'llab-quvvatlovchi, individual imkoniyatlarni hisobga oluvchi bo'lishi lozim. Shu boisdan, kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va rag'batlantiruvchi rolini bajarishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayoni psixologik va pedagogik omillarning uzviy integratsiyasini taqozo etadi. Ushbu omillarni uyg'unlashtirgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy salohiyatini to'laqonli namoyon qilishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining markazida turib, ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim metodologik asos hisoblanadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat bilim va malakalarni egallaydi, balki real hayotiy muammolarni hal qilish, mustaqil fikrlash, kasbiy identifikatsiya va o'zini anglash kabi shaxsiy sifatlarni ham shakllantiradilar.

Psixologik jihatdan qaralganda, motivatsiya, refleksiya, o'z-o'zini boshqarish va moslashuvchanlik kabi omillar kasbiy tayyorgarlikning psixik poydevorini tashkil etadi. Pedagogik jihatdan esa, ta'lim mazmunining amaliyotga yo'naltirilganligi, interfaol metodlar, o'quvchi shaxsini e'tiborga olgan yondashuv va o'qituvchi bilan subyekt-subyektli muloqot kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маркова А.К. (2004). *Психология профессионализма*. Москва: Знание, 368 с.
2. Кузьмина Н.В. (2006). *Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения*. Москва: Высшая школа, 240 с.
3. Зеер Э.Ф. (2011). *Психология профессионального образования*. Москва: Академия, 320 с.
4. Шамова Т.И. (2003). *Управление образовательными системами: Учебное пособие*. Москва: ВЛАДОС, 304 с.
5. Смирнов С.Д. (2007). *Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности*. Москва: Аспект Пресс, 368 с.



6. Raven J. (2000). *The Development of Competence*. London: H.K. Lewis & Co., 230 p.
7. Lengrand P. (1993). *An Introduction to Lifelong Education*. Paris: UNESCO Publishing, 192 p.
8. UNESCO (2015). *Rethinking Education: Towards a global common good?* Paris: UNESCO Publishing, 120 p.
9. Шоymarов Г.Б. (2017). *Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari*. Toshkent: O'qituvchi, 216 b.
10. Musurmonova N.A., Rasulov A.A., Sunnatova R.I. (2020). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Fan va texnologiya, 240 b.



Keldibekova Marhabo Ibodulla qizi,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani 45-maktab amaliyotchi psixologi

YOSHLARNING TEMPERAMENT TIPLARI VA STRESSGA QARSHI KURASH STRATEGIYALARI O'ZIGA XOS O'ZARO BOG'LIQLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning temperament tiplari hamda ularning stressga qarshi kurashish strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turli temperament tiplari (xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik)ning stressga nisbatan individual yondashuvlari, emotsional barqarorlik darajalari va tanlangan strategiyalar (muammodan qochish, emotsiyani boshqarish, muammoni hal qilishga yo'naltirilgan yondashuv) o'rganiladi. Maqola yoshlar orasida stressga qarshi samarali kurash mexanizmlarini ishlab chiqishda temperamentning hisobga olinishi zarurligini asoslashga qaratilgan. Psixologik diagnostika vositalari asosida olib borilgan tahlillar yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda psixoprofilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: yoshlar, temperament tiplari, stress, stressga qarshi kurashish strategiyalari, psixologik moslashuv, emotsional barqarorlik, shaxsiy xususiyatlar

Kirish. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning psixologik salomatligi va stressga qarshi turish qobiliyati dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'quv jarayoni, ijtimoiy bosim, oila va atrof-muhit omillari yoshlarning ruhiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, turli temperament tiplari vakillari stressni qanday qabul qilishi va unga qanday munosabatda bo'lishi har xil bo'lishi kuzatiladi. Shaxsning temperament xususiyatlari uning emotsional reaksiyasi, muammoga yondashuvi va moslashuv strategiyalarini belgilab beradi. Shu jihatdan, yoshlarning temperament tiplari va ularning stressga qarshi kurashish strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ushbu maqola aynan shu masalani yoritishga, yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun foydali tavsiyalar shakllantirishga qaratilgan.

Yoshlarning temperament tiplari va ularning stressga qarshi kurashish strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini o'rganish psixologiya fanining shaxs psixologiyasi, emotsional rivojlanish, individual farqlar va klinik psixologiya yo'nalishlarida izchil tadqiq qilinib kelinmoqda. Bu masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar temperament va stressga qarshi kurashishning o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Temperament nazariyasi qadimgi yunon olimi Galen va undan oldingi Ippokrat tomonidan asos solingan bo'lib, insonlarning to'rt xil temperament tipiga – xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik tiplarga ajratilishi orqali ularning psixik xususiyatlari tushuntirilgan. Keyinchalik bu g'oyalar ilmiy psixologiya doirasida chuqurlashtirilib, zamonaviy shaklga keltirildi. Hans Eysenck temperamentni biologik asoslangan, tug'ma xarakterli holat sifatida talqin etib, shaxsning emotsional barqarorligi va ekstraversiya-introversiya yo'nalishlarini asoslab berdi. Uning fikricha, temperament stressga nisbatan sezuvchanlik darajasini belgilovchi omillardan biridir. Shuningdek, Jerome Kagan va Alexander Thomas hamda Stella Chess tomonidan bolalar va o'smirlar temperamentini rivojlanish bosqichlarida kuzatishga doir tadqiqotlar olib borilgan. Bu olimlar temperamentning moslashuvchanlik darajasi va tashqi muhitga javob reaksiyalarini chuqur o'rgangan.

Stress va unga qarshi kurashish strategiyalari borasidagi eng yirik nazariy ishlanmalar Richard Lazarus va Susan Folkman tomonidan yaratilgan bo'lib, ular stressga individning kognitiv baholashi orqali yondashishni taklif etgan. Bu yondashuvga ko'ra, inson stress holatlarini qanday qabul qilishi va unga qanday strategiyalar bilan javob berishi individual farqlarga bog'liq. Ular muammoga yo'naltirilgan strategiyalar va emotsiyaga yo'naltirilgan strategiyalarni ajratgan. Muammoga yo'naltirilgan strategiyalar stress sababini aniqlash va uni bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, emotsiyaga yo'naltirilgan strategiyalar ichki holatni tartibga solishga yo'naltirilgan.



Shuningdek, temperament va stressga chidamlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan bir qator tadqiqotlar mavjud. Masalan, rus psixologi Boyko V.V. temperament tiplari va emotsional zo'riqish holatlari o'rtasidagi aloqani o'rganib, ayniqsa xolerik va melanxoliklar yuqori stress sezuvchanlikka ega ekanligini aniqlagan. Zvereva N.V. 2020 yilda olib borgan tadqiqotida esa flegmatiklar eng barqaror stress reaksiyasiga ega guruh sifatida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Asratyan E.A. va B.G. Ananyev temperamentning neyrofiziologik asoslarini chuqur o'rganib, emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikning temperament bilan bog'liqligini asoslab bergan.

O'zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu masalaning o'ziga xos milliy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlari yoshlarning temperament tiplari, emotsional yetuklik darajasi va stressga qarshi kurashish usullari o'rtasidagi munosabatni o'rganib chiqishgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, sangvinik temperament vakillari stressga nisbatan faol va ijobiy munosabatda bo'lsa, melanxoliklar stressni ko'proq ichki iztirob orqali boshdan kechiradilar. Flegmatiklar esa eng barqaror tip sifatida ajralib turadi.

Shu bilan birga, yoshlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda temperament tiplari hisobga olinishi kerakligi bo'yicha tavsiyalar ilgari surilgan. Shaxsiy farqlarni inobatga olgan holda, har bir temperament vakiliga mos psixologik yordam ko'rsatish strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy psixoprofilaktika va psixokorreksion ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mavzuning o'rganilganlik darajasi xalqaro va milliy darajada yetarlicha asoslangan bo'lsa-da, hali ham ko'plab ochiq masalalar mavjud. Jumladan, yoshlar guruhida temperament va stressga qarshi kurashish strategiyalari o'rtasidagi munosabatni jinsiy, madaniy, ijtimoiy va rivojlanish bosqichlari asosida o'rganish zarurati mavjud. Aynan shu yo'nalishdagi tadqiqotlar yoshlar bilan ishlovchi psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Temperament va stress inson psixikasining markaziy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bu ikki tushuncha nafaqat shaxsning psixologik portretini belgilab beradi, balki uning tashqi omillarga qanday javob qaytarishini, emotsional holatini, ichki ziddiyatlar va tashqi zo'riqishlar bilan kurasha olish salohiyatini ham ko'rsatib beradi. Ayniqsa, inson hayotining o'tish davri hisoblangan o'smirlik va ilk yoshlik davrida temperament va stressga qarshi kurashish strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchli ifodalanadi.

Temperamentning inson xatti-harakatlari, emotsional javoblari va stressga bo'lgan sezuvchanlikda tutgan o'rni haqida ilmiy psixologiya fani doirasida turli yondashuvlar mavjud. Temperament tiplari haqida ilk ilmiy tasnif qadim yunon mutafakkirlari tomonidan berilgan bo'lsa-da, zamonaviy psixologiyada temperament asosan biologik asoslangan individual xususiyat sifatida qaraladi. Hans Eysenck temperamentni ikki asosiy o'lchov — ekstraversiya va nevrotizm orqali tavsiflaydi. Uning modelida yuqori nevrotizmga ega, ya'ni hissiyotlar ustidan nazoratni yo'qotishga moyil shaxslar stressga nisbatan sezuvchanroq bo'lishadi. Ekstravertlar esa ko'proq tashqi muhitga yo'naltirilgan, faol va tashabbuskor bo'lib, ular stressni tezda tashqi faoliyatlar orqali bartaraf eta oladi.

Stress esa inson organizmining tashqi yoki ichki xavfga javob tarzida paydo bo'ladigan psixofiziologik holat bo'lib, u fiziologik, emotsional va kognitiv darajalarda namoyon bo'ladi. Richard Lazarus stressni subyektiv baholash jarayoni sifatida tushuntirib, unga qarshi kurashishni individual strategiyalar bilan bog'laydi. Shuning uchun ham turli temperament vakillari stressni boshdan kechirishda va unga qarshi kurashishda har xil usullarni tanlaydi.

Temperament va stressga qarshi kurashish usullari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beruvchi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir temperament tipi uchun stressga bo'lgan sezuvchanlik va unga qarshi kurashish yo'llari o'ziga xos tarzda shakllanadi. Masalan, sangvinik tipdagi yoshlar ko'pincha ijtimoiy faol, emotsional barqaror va tashabbuskor bo'lishi sababli stress holatlarida ijobiy fikrlash va faol harakatga asoslangan strategiyalarni tanlaydilar. Ular muammoni hal qilish, maslahat olish, sport bilan shug'ullanish yoki ijtimoiy muloqot orqali



stressni kamaytirishga harakat qiladilar. Bunday strategiyalar ko'proq muammoga yo'naltirilgan bo'lib, real ijtimoiy yordam izlashga asoslanadi.

Xolerik tipdagi yoshlar esa yuqori darajada energiyaga ega, tashqi ta'sirlarga tez reaksiya bildiruvchi va hissiy jihatdan o'ta faol bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Ular stress holatida ham faol, ammo ba'zan agressiv yoki shoshqaloq reaksiya bildiradilar. Ularning kurashish strategiyalari ko'proq tashqi harakatlar, muammoni o'zgartirish yoki uni o'z kuchi bilan engib o'tishga qaratilgan bo'ladi. Biroq, ushbu tip vakillari o'z emotsiyalarini boshqarishda muammoga duch kelishi mumkin, bu esa stressning surunkali tus olishiga olib keladi.

Flegmatiklar, odatda, sekin, barqaror, muvozanatli va ichki osoyishtalikka moyil bo'lgan shaxslardir. Ular stress holatlarini sezsa ham, buni tashqi muhitga unchalik namoyon qilmaydilar. Ularning stressga qarshi kurashish strategiyalari passiv kuzatuv, emotsional nazorat va ichki sabr-toqatga asoslangan bo'lishi mumkin. Ular stress holatiga chidamli bo'lishlariga qaramay, ba'zida muammoni hal qilishda passivlik ko'rsatishlari mumkin. Bu esa ichki zo'riqishning jamg'arilishiga olib keladi.

Melanxolik tipdagi yoshlar stress holatlariga juda sezuvchan, emotsional jihatdan nozik va o'zini ichkariga tortishga moyildirlar. Ularning stressga nisbatan reaksiya darajasi yuqori bo'lib, ko'proq emotsiyaga yo'naltirilgan strategiyalarni qo'llashadi. Masalan, yolg'izlik, yig'lash, salbiy fikrlar, o'z-o'zini ayblash kabi psixologik himoya mexanizmlariga murojaat qilinadi. Agar bu jarayon doimiy tus olsa, bu depressiv holatlar, emotsional zo'riqish va nevroitik buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stressga qarshi kurashish strategiyalari temperament tiplari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishida ijtimoiy omillar, shaxsiy tajriba, tarbiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bir xil temperament vakillarida ham stressga qarshi kurashish uslubi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, yuqori sotsial qo'llab-quvvatlovga ega bo'lgan melanxolik tipdagi shaxs stressga nisbatan ko'proq ijobiy strategiyalarni tanlashi mumkin. Yoki xolerik temperament vakili kuchli o'zini boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lsa, stress holatlarida sabrli va muvozanatli bo'lishi mumkin.

Mahalliy tadqiqotlar, jumladan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida stressga qarshi kurashishning eng keng tarqalgan usullari do'stlar bilan suhbatlashish, musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazish, sport yoki darslarga sho'ng'ish hisoblanadi. Bu strategiyalar temperamentga qarab tanlanadi va turlicha samara beradi. Masalan, sangviniklar musobaqalarga yoki jamoaviy ishga, melanxoliklar esa san'at yoki ichki tafakkurga ko'proq moyil bo'lishadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, temperament va stressga qarshi kurashish strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur anglash yoshlarning emotsional salomatligini ta'minlash, ularni moslashuvchanlik, bardoshlilik va psixologik barqarorlikka o'rgatishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu bog'liqlikni hisobga olib tashkil etilgan psixoprofilaktik va tarbiyaviy ishlar yoshlar orasida stress darajasini pasaytirishga, ularning salbiy emotsiyalarini kamaytirishga hamda ijobiy hayotiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Yoshlarning temperament tiplari va stressga qarshi kurash strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim masala hisoblanadi. Bugungi globallashuv, raqobatga asoslangan ijtimoiy tizim va tez o'zgarayotgan psixosotsial sharoitlarda yoshlar turli stress omillariga duch kelmoqda. Ularning bu holatlarga qanday munosabatda bo'lishi esa asosan temperament tiplariga bog'liq.

Tadqiqotlar va psixologik kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, har bir temperament tipi stressga nisbatan o'ziga xos fiziologik va emotsional reaksiya ko'rsatadi. Bu javob shakli insonning tug'ma neyropsixik xususiyatlari bilan belgilanadi va u vaqt o'tishi bilan ijtimoiy tajriba, tarbiya, shaxsiy rivojlanish orqali shakllanib boradi. Masalan, emotsional barqarorlik darajasi past bo'lgan melanxolik shaxslar stressga nisbatan ko'proq himoyaviy va emotsional yondashuvni tanlasa, barqaror va tashqi ijtimoiy aloqalarga tayanuvchi sangvinik shaxslar faol kurash strategiyalarini qo'llaydi.



Yoshlar oʻrtasida stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda temperamentga mos yondashuvlardan foydalanish zarur. Bu esa psixoprofilaktik, psixokorreksion va psix-oedukativ dasturlarni ishlab chiqishda individual yondashuvni taqozo etadi. Masalan, xolerik temperament vakillarida impulsivlikni nazorat qilish, flegmatiklarda passivlikni kamaytirish, melanxoliklarda ijtimoiy qoʻllab-quvvatlovni kuchaytirish, sangviniklarda esa stressni yetarli darajada anglash va uni nazorat qilish koʻnikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Karimova Z. T. (2019). *Psixologiyada individual farqlanishlar*. Toshkent: Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti.
2. Abdullaeva N. S. (2020). *Yoshlar psixologiyasi*. Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi.
3. Eysenck H. J. (1991). *Dimensions of Personality*. New York: Routledge.
4. Lazarus R. S., Folkman S. (1984). *Stress, Appraisal and Coping*. New York: Springer Publishing Company.
5. Sharipova M. A. (2021). “Yoshlar temperamentining stressga boʻlgan sezuvchanligi” // *Oʻzbekiston pedagogik fanlari jurnali*, №2.
6. Axmedova D. (2022). “Psixologik chidamlilik va stressga qarshi kurashish usullari” // *Psixologiya va hayot*, №4, Toshkent.



Usarova Shaxlo Xo'jamberdi qizi
Samarqand viloyat Ishtixon tumani
52-maktab15-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA RUHIY ZO'RIQISH, MOBIL TELEFONLAR, KOMPYUTER O'YINLARI VA BOSHQA ZARARLI ODATLARNI OLDINI OLISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'quvchilari o'rtasida ruhiy zo'riqish, mobil telefonlar va kompyuter o'yinlariga qaramlik kabi zamonaviy muammolar yoritilgan. Shuningdek, zararli odatlarning salbiy oqibatlari va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Maqolada ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning bu muammolarni bartaraf etishdagi roli ta'kidlangan. Yosh avlodning sog'lom hayot tarzini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ruhiy zo'riqish, maktab o'quvchilari, mobil telefon, kompyuter o'yinlari, zararli odatlar, profilaktika, ota-ona nazorati, psixologik yordam, sog'lom turmush tarzi, ta'lim va tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы среди школьников, такие как психоэмоциональное напряжение, зависимость от мобильных телефонов и компьютерных игр. Освещаются негативные последствия вредных привычек и предлагаются меры по их профилактике. Особое внимание уделено роли родителей, учителей и общества в решении этих проблем. Подчеркивается важность воспитания и образования в формировании здорового образа жизни у подрастающего поколения.

Ключевые слова: Психоэмоциональное напряжение, школьники, мобильные телефоны, компьютерные игры, вредные привычки, профилактика, родительский контроль, психологическая помощь, здоровый образ жизни, воспитание и образование.

Kirish. Bugungi kunda globallashuv va raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgani nafaqat jamiyat hayotining barcha sohalariga, balki yosh avlodning tarbiyasi va salomatligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar orasida ruhiy zo'riqish, axborot texnologiyalariga haddan ziyod bog'lanish, ya'ni mobil telefonlar, kompyuter o'yinlari va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kabi muammolar ko'p uchramoqda. Ushbu holatlar o'quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga, psixologik holatiga, shuningdek, ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamonaviy zararli odatlar orasida faqat texnologik vositalarga qaramlik emas, balki noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy harakatsizlik, turli salbiy axborotlarning ta'sirida shakllanayotgan noto'g'ri xulq-atvorlar ham mavjud. Ushbu maqolada aynan maktab o'quvchilari o'rtasida keng tarqalgan salbiy odatlar va ularning oldini olish yo'llari, profilaktik chora-tadbirlar, ota-onalar va pedagoglarning roli tahlil qilinadi. Maqsad - sog'lom, aqliy va ma'naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalashga hissa qo'shish.

Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili. Maktab o'quvchilari o'rtasida ruhiy zo'riqish va zararli odatlar bilan bog'liq muammolar bugungi pedagogika va psixologiya fanining eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Turli ilmiy manbalarda bu muammolarning sabablari, oqibatlari hamda ularni bartaraf etish yo'llari keng o'rganilgan.

Ruhiy zo'riqish (stress) masalasi haqida psixolog A.Rean, L.Mitina, va R.Lazaruslarning tadqiqotlarida ruhiy bosimning bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri, bu bosimni kamaytirish yo'llari keng yoritilgan. Lazarusning "Stress va moslashuv" nazariyasiga ko'ra, stress bolaning tashqi muhit bilan qanday muloqot qilayotganiga bog'liq bo'lib, uning stressga qarshi kurashish qobiliyati rivojlanmasa, ruhiy muvozanat buziladi.

Axborot texnologiyalari va qaramlik masalasi bo'yicha Rossiya va G'arb olimlarining (E. Soldatova, K. Young, N. Kardaras) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 10–18 yoshli o'smirlar orasida internet va kompyuter o'yinlariga qaramlik darajasi yildan-yilga ortib bormoqda. E. Soldatova



bolalarda internetga qaramlikning psixologik portretini tahlil qilgan, unga ko'ra, bu holat diqqat yetishmovchiligi, ijtimoiy izolyatsiya va affektiv buzilishlarga olib keladi.

Zararli odatlar va ularning profilaktikasi masalasi pedagogik adabiyotlarda ham keng yoritilgan. O'zbekistonlik olimlar – A. Jo'rayev, D. Mamatqulov va M. Qurbonovlarning tadqiqotlarida yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, psixologik madaniyatni oshirish va oilaviy tarbiyaning ahamiyati ta'kidlangan. A. Jo'rayev o'z ishlarida maktab va mahalla hamkorligining zararli odatlarning oldini olishdagi muhim o'rnini ko'rsatib bergan.

YUNISEF va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, o'smirlar orasida ruhiy salomatlik muammolari global darajadagi xavf hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning haddan tashqari ishlatilishi, tungi uyqusizlik, psixologik tazyiqlar yoshlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, Bolalarda ruhiy salomatlikni mustahkamlash uchun o'quv muassasalarida psixologik xizmatni rivojlantirish, stressni aniqlovchi testlar joriy qilish, o'quvchilarni emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish zarurligi ilmiy manbalarda qayta-qayta ta'kidlangan.

Xizmat faoliyatiga munosabati va uning natijalari:

Maktab o'quvchilari o'rtasida ruhiy zo'riqish, texnologik vositalarga qaramlik va boshqa zararli odatlarning oldini olish borasida ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixolog, ijtimoiy pedagog, sinf rahbarlari va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi mutaxassislar muhim rol o'ynamoqda. Bu yo'nalishdagi xizmat faoliyati so'nggi yillarda izchil yo'lga qo'yilib, tizimli ravishda takomillashtirilmoqda.

Yana bir muhim jihat shuki, “lifelong learning” konsepsiyasi faqat o'z ustida ishlash emas, balki jamiyatdagi boshqa shaxslar bilan doimiy muloqotda bo'lish, tajriba almashish, hamkorlikda o'rganish, fikrlar xilma-xilligini qadrlash, ijtimoiy jihatdan faollik ko'rsatish kabi qadriyatlarini ham o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun bu ayniqsa muhim, chunki ular faqat dars beruvchi emas, balki ijtimoiy liderlar, fikr yetakchilari sifatida shakllanishlari zarur. Bunday o'qituvchi jamiyatda islohotlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, yoshlarning ongini, qarashlarini va qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, pedagogik faoliyatda refleksiya – ya'ni o'z faoliyatini tahlil qilish, undan xulosa chiqarish, o'zini baholay olish qobiliyati ham “lifelong learning” doirasida yetakchi o'rin tutadi. Talabalik davrida bu ko'nikma shakllanmasa, kelgusida ularni rivojlantirish nihoyatda qiyin bo'ladi. Shu sababli, oliy ta'limda o'quvchilarni o'z-o'zini tahlil qilishga, o'z faoliyati haqida fikr yuritishga o'rgatish, dars yakunida reflektiv savollar berish, shaxsiy portfoliolar yaratish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, ta'lim sifatining poydevori aynan o'qituvchidan boshlanadi. U nafaqat bilim egasi, balki tarbiyachi, ruhshunos, yetakchi, ilhomlantiruvchi shaxs bo'lishi kerak. Shu bois, pedagog bo'lishga tayyorlanayotgan yoshlar o'zlarida nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki hayotiy zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantirishi zarur. Bu jarayonni izchil, tizimli va natijador yo'nalishda tashkil qilish esa “lifelong learning” – hayot davomida o'qish tamoyiliga asoslangan yondashuv orqali amalga oshadi.



"Lifelong learning" konsepsiyasi har bir shaxs, ayniqsa, o'qituvchi uchun doimiy intellektual rivojlanish, o'z ustida ishlash, yangi bilim va kompetensiyalarni egallash ehtiyojini kuchaytiradi. Bu konsepsiya orqali pedagog shaxsi doimiy yangilanib boradi, o'zgaruvchan ijtimoiy, texnologik va madaniy sharoitlarga moslasha oladi. O'z ustida ishlaydigan, yangi bilimlarga intiladigan o'qituvchi esa zamonaviy ta'lim talablariga javob bera oladi, o'quvchilariga nafaqat fanni, balki hayotga munosabatni, o'z ustida ishlash madaniyatini ham o'rgatadi. Bu o'rinda "o'qituvchi qanday bo'lsa, o'quvchi ham shunday bo'ladi" degan tamoyil o'z tasdig'ini topadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchi shaxsida rivojlangan mas'uliyat, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik, o'zini boshqarish kabi sifatlar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilar ongida ham ijobiy motivatsiya uyg'otadi. Ushbu sifatlar esa, birinchi navbatda, o'qituvchining o'zi tomonidan ongli ravishda shakllantiriladi. Ular "lifelong learning" tamoyiliga asoslangan holda izchil tarzda rivojlantiriladi. Bu tamoyil o'qituvchiga shunchaki bilim emas, balki bilimni qayta ishlash, uni amaliyotga tadbiiq qilish, o'z fikrini asoslash, yangilikka ochiq bo'lish, professional mustaqillikka erishish imkonini beradi.

Shuningdek, "lifelong learning" bo'lajak o'qituvchilarning reflektivlik – o'z faoliyatini tahlil qilish, tanqidiy ko'z bilan baholash, xatolaridan saboq olish kabi muhim shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Bu esa ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlashda ustuvor ahamiyatga ega. Zero, pedagog o'zini yangilamasa, o'zgarishga tayyor bo'lmasa, u kelajak avlodga zamonaviy bilim bera olmaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda o'quv muhitining o'rni ham juda muhimdir. Ularning ichki motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi, tashabbus ko'rsatish darajasi ko'p hollarda ularga yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liq. Pedagogik ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar, bahs-munozarali darslar, jamoaviy loyihalar, amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar shaxsiy salohiyatini namoyon qilish imkoniga ega bo'ladi. Aynan shunday faoliyatlar doirasida ular "lifelong learning" tamoyilining mohiyatini chuqur his eta boshlaydi. Chunki bu jarayonlarda bilim olishdan ko'ra o'rganishni o'rganish, ya'ni meta-ta'lim ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'ruvchi talabalarda liderlik salohiyatini shakllantirish ham zamonaviy ta'limning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Lider bo'lish, boshqalarni ilhomlantira olish, o'z fikrini aniq ifoda eta bilish, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish – bularning barchasi o'qituvchilik kasbida zarur bo'lgan shaxsiy sifatlar sanaladi. "Lifelong learning" tamoyiliga asoslangan metodlar esa bu fazilatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, doimiy o'zini baholash (self-assessment), bahamjihat o'rganish (collaborative learning), muammoli vaziyatlarni hal qilish (problem-solving tasks) kabi faoliyat turlari orqali talaba o'zini yetakchi sifatida sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Umuman olganda, "lifelong learning" konsepsiyasining to'g'ri joriy etilishi bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat shaxsiy fazilatlarini, balki kasbiy va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, har bir pedagogik ta'lim muassasasi bu yondashuvni o'zining ustuvor vazifasi sifatida qabul qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va ularni "lifelong learning" konsepsiyasi asosida tayyorlash – bu nafaqat zamonaviy ta'lim talabi, balki milliy taraqqiyot kafolatidir. Bu yondashuv orqali biz har tomonlama yetuk, o'z kasbiga fidoyi, intellektual salohiyatga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq pedagoglar avlodini voyaga yetkazamiz. Ana shundagina ta'lim tizimimizda haqiqiy sifat va barqarorlikka erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Field, J. (2006). *Lifelong learning and the new educational order*. International Journal of Lifelong Education, 25(2), 121–133. <https://doi.org/10.1080/02601370500510747>



2. Illeris, K. (2003). *Towards a contemporary and comprehensive theory of learning*. International Journal of Lifelong Education, 22(4), 396–406. <https://doi.org/10.1080/026013703004837>
3. Korthagen, F. A. J. (2004). *In search of the essence of a good teacher: Towards a more holistic approach in teacher education*. Teaching and Teacher Education, 20(1), 77–97. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2003.10.002>
4. OECD. (2010). *Teachers as lifelong learners: A policy imperative*. OECD Education Working Papers, No. 62. <https://doi.org/10.1787/5kmbphh7s47h-en>
5. Livingston, K. (2012). *Approaches to professional learning: What works for teachers?* Education Research and Perspectives, 39(1), 70–94.



Navruzov Firdavs Shavkatovich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA MENEJMENT TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish jarayonida uslubiy yondashuvlar va zamonaviy menejment tizimlarining o'rni, samaradorligi hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifati, dars jarayonlarining metodik tashkiloti, pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi va monitoring mexanizmlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan tajribalar o'rganiladi. Shuningdek, maqolada boshqaruv jarayonlarida strategik rejalashtirish, xodimlar motivatsiyasi, ichki nazorat va jamoaviy samaradorlik kabi menejment komponentlarining ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: nodavlat ta'lim muassasalari, uslubiy yondashuv, menejment tizimi, strategik rejalashtirish, ta'lim sifati, pedagogik texnologiya, monitoring, tashkil etish, ta'lim boshqaruvi, innovatsion yondashuv

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль, эффективность и перспективы развития методических подходов и современных управленческих систем в процессе совершенствования деятельности негосударственных образовательных учреждений. Автор изучает практический опыт интеграции качественного образования, методической организации учебного процесса, внедрения педагогических технологий и систем мониторинга в структуру негосударственных школ. Кроме того, в статье обоснована значимость таких компонентов управления, как стратегическое планирование, мотивация персонала, внутренний контроль и командная эффективность в рамках общего менеджмента образовательной организации.

Ключевые слова: негосударственные образовательные учреждения, методический подход, система менеджмента, стратегическое планирование, качество образования, педагогические технологии, мониторинг, организация учебного процесса, образовательное управление, инновационный подход

Annotation: This article examines the role, effectiveness, and development prospects of methodological approaches and modern management systems in improving the performance of non-state educational institutions. The author analyzes practical experiences focused on integrating educational quality, methodological structuring of lessons, the application of pedagogical technologies, and monitoring mechanisms within the framework of private educational organizations. The article also substantiates the importance of management components such as strategic planning, staff motivation, internal control, and team effectiveness in enhancing the overall performance of educational management systems.

Keywords: non-state educational institutions, methodological approach, management system, strategic planning, education quality, pedagogical technology, monitoring, instructional organization, educational management, innovative approach

Kirish. Bugungi kunda nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritib, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, innovatsiyalarni tatbiq etish va o'quvchilarga moslashuvchan yondashuvni taklif qilish orqali milliy ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu muassasalar uchun yagona uslubiy yondashuv yo'qligi, boshqaruv tizimining kuchli institutlashmaganligi va kadrlar tayyorgarligida tizimli yondashuv yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud.

Mazkur maqolada nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda zamonaviy menejment tizimi va metodik yondashuvlarning qanday tutashishi, ularning samaradorligini oshirishdagi amaliy ahamiyati, ilg'or tajribalarga asoslangan holda tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi - nodavlat ta'lim tizimi samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan, innovatsion va amaliy jihatdan foydali bo'lgan metodik hamda boshqaruv yondashuvlarini aniqlashdir.



Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ta'lim tizimini diversifikatsiyalash va sifat jihatdan yangilash yo'nalishidagi islohotlar doirasida nodavlat ta'lim muassasalarining roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu muassasalar ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda davlat ta'lim tizimini to'ldiruvchi muqobil manbaa bo'lishi bilan birga, pedagogik yondashuvlarning innovatsion shakllarini tatbiq etish, ta'lim sifatini oshirish va jamiyatda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, ularning faoliyatini samarali tashkil etish, zamonaviy menejment tizimlari va metodik yondashuvlar bilan takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xususan, nodavlat ta'lim muassasalari o'zining moliyaviy va tashkiliy mustaqilligi, erkin dasturlar asosida ta'lim berish imkoniyati, hamda o'quvchilar ehtiyojiga moslashuvchan yondasha olishi bilan ajralib turadi. Ammo bu afzalliklarning to'liq namoyon bo'lishi, faoliyatning puxta uslubiy tashkil etilishi va zamonaviy boshqaruv tizimlarining samarali integratsiyasiga bog'liqdir. Shu bilan birga, xalqaro va milliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, nodavlat muassasalarining muvaffaqiyati ularning ichki menejment sifati, strategik rejalashtirish darajasi, o'quv jarayonining metodik sifati hamda xodimlar motivatsiyasi bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan farmon va qarorlarida nodavlat ta'lim sektorining huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning faoliyatini tartibga soluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish va rag'batlantirish choralari belgilangan. Bu esa ushbu sektorni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, takomillashtirishning nazariy va amaliy yo'llarini aniqlashni taqozo etadi.

Shu asosda, maqolada ko'tarilgan mavzu - nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini zamonaviy uslubiy yondashuvlar va menejment tizimlari orqali takomillashtirish masalasi - milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishi, ularning faoliyatini takomillashtirish va boshqaruv tizimlarini samarali yo'lga qo'yish masalalari so'nggi yillarda ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, nodavlat sektorining barqaror rivojlanishi o'ziga xos metodik yondashuvlar va professional menejment modeliga ega bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir.

E. Deming (1986) ta'lim sifatini uzluksiz yaxshilash tamoyillarini ilgari surgan holda, sifatli o'quv jarayoni uchun metodik yondashuvlar, diagnostika, monitoring va takomillashtirish sikllarining doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishini tavsiya etadi.

Milliy adabiyotlarda esa B.A. Asatullayev (2019) nodavlat ta'lim muassasalarining tashkiliy-huquqiy maqomi, ularni boshqarish modellari, pedagogik kadrlar salohiyati va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chuqur tahlillar bergan. U nodavlat muassasalarda faoliyatning to'g'ri yo'lga qo'yilishi uslubiy yondashuvlarning puxtaligiga bog'liq ekanligini isbotlaydi.

Shuningdek, Sh.K. Ahmedov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim boshqaruvida strategik menejment, SWOT-tahlil, pedagogik monitoring va o'zaro javobgarlik asosida tashkil etilgan boshqaruv modeli samaradorlik ko'rsatkichi sifatida o'rganiladi.

YUNESKO va OECD tomonidan e'lon qilingan xalqaro hisobotlarda esa nodavlat ta'lim sektorini qo'llab-quvvatlashda boshqaruvning shaffofligi, sifat ko'rsatkichlariga asoslangan baholash tizimi, kadrlar kompetensiyasini oshirish va pedagogik metodikalarning doimiy takomillashuvi asosiy mezonlar sifatida ko'rsatilgan (OECD, 2021; UNESCO, 2020).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda metodik yondashuv va menejment tizimi bir-birini to'ldiruvchi va integratsiyalashgan holda ishlashi zarur. Ta'lim sifati, barqarorlik va ijtimoiy ishonch aynan shu ikki omil uyg'unligiga bevosita bog'liqdir.

Muhokama. Olib borilgan tahlillar va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar asosida shuni ta'kidlash joizki, nodavlat ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi ularning ichki metodik tuzilmasi va boshqaruv tizimining sifatiga bevosita bog'liqdir. Ta'lim sifati, o'quv dasturlarining moslashuvchanligi, o'qituvchining didaktik yondashuvi, va resurslardan foydalanish darajasi uslubiy asoslarning aniqligi va menejment strategiyasining muvofiqligiga tayanadi.



Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab nodavlat ta'lim muassasalarida metodik yondashuvlar individual tashabbusga tayanadi, bu esa umumiy tizimlilik va barqarorlikni cheklaydi. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, standartlashtirilgan uslubiy platformalar, diagnostika asosidagi o'quv jarayonini rejalashtirish va interfaol pedagogik texnologiyalarni tizimli tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori samaradorlikka ega nodavlat ta'lim muassasalarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu muassasalarda menejment tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

- Strategik maqsadlarga yo'naltirilgan boshqaruv;
- Xodimlarning motivatsiyasi va o'zini rivojlantirishga rag'bat;
- Ichki sifat monitoringi va tashqi baholash mexanizmlarining integratsiyasi;
- Resurslarni boshqarishda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi;
- Ta'lim xizmatlarining innovatsion va moslashuvchan shakllari.

Shuningdek, menejment tizimi nafaqat muassasa ichkarisidagi funksional jarayonlarni tartibga solishi, balki ota-onalar, homiylar va jamiyat bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish orqali ishonchli va ochiq faoliyat yuritish modelini ta'minlashi lozim. Bunday yondashuv esa nodavlat sektorning ijtimoiy maqomini oshiradi va barqaror rivojlanish omiliga aylanadi.

Metodik jihatdan esa, o'quv dasturlarining modulli tuzilishi, kompetensiyalarga asoslangan baholash, tahliliy refleksiya va shaxsiylashtirilgan o'quv yo'llarini ishlab chiqish ta'limning sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, monitoring, ichki audit, va tashqi ekspertiza orqali pedagogik jarayonni tahlil qilish va takomillashtirish jarayoni muntazam davom etishi kerak.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatuvlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, nodavlat ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi, birinchi navbatda, ularning uslubiy yondashuvlari va boshqaruv tizimining darajasiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonining metodik asoslar bilan to'g'ri tashkil etilishi, o'qituvchilar faoliyatida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, sifat monitoringini yo'lga qo'yish va muassasa ichki muvozanatini ta'minlovchi menejment tizimining mavjudligi ta'lim sifati va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardandir.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko'plab nodavlat ta'lim muassasalarida metodik yondashuvlar individual tajriba asosida shakllangan bo'lib, tizimlashtirilgan uslubiy platformalarning yetishmasligi, ichki monitoring mexanizmlarining sustligi va boshqaruvda strategik yondashuvlarning etarlicha shakllanmaganligi faoliyat samaradorligiga to'sqinlik qilmoqda. Shu boisdan, bu yo'nalishda kompleks rivojlanishga xizmat qiluvchi modelni ishlab chiqish va tatbiq etish zarur.

Shuningdek, xorijiy va milliy ilg'or tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim muassasalarining barqaror faoliyati doimiy ravishda yangilanib boradigan metodik asoslar, kuchli boshqaruv madaniyati va xodimlar motivatsiyasiga tayangan holda shakllanadi. Ta'lim jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish va menejment tizimini zamonaviy mezonlar asosida tashkil etish - nodavlat sektorning rivojlanish strategiyasida ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mintzberg H. (1990). *The Structuring of Organizations: A Synthesis of the Research*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 512 p.
2. Deming W.E. (1986). *Out of the Crisis*. – Cambridge: MIT Press, 507 p.
3. Asatullayev B.A. (2019). *Nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tizimi*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 184 b.
4. Ahmedov Sh.K. (2022). *Nodavlat ta'lim muassasalarida menejment tizimini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari*. // *Ta'lim va amaliyot*, №2, B. 28–34.
5. UNESCO (2020). *Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action*. – Paris: UNESCO Publishing.



Sotvoldiyev Jaxongir Sultonali o'g'li
Buxoro davlat universiteti, Tarix va yuridik fakulteti
Siyosatshunoslik 5-1SIYOS-24 guruh talabasi
jaxongirsotvoldiyev227@gmail.com

XAVFSIZLIK VA BARQARORLIK IQTISODIY– IJTIMOYIY TARAQQIYOT POYDEVORI

Annotatsiya: Hozirgi kunda barcha mamlakatlar singari, har bir davlat o'zining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarida barqaror taraqqiyotini ta'minlash, xalq farovonligini oshirish hamda jahon maydonida munosib o'rin egallash uchun xavfsizlikni ta'minlash, ichki va tashqi barqarorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki xavfsizlik va barqarorlik har qanday taraqqiyotning asosi hisoblanadi.

Tayanch so'z: xavfsizlik, barqarorlik, Yevropa ittifoqi, tinchlik, erkinlik, huquq, jahon hamjamiyati, osoyishtalik, samarador.

Rivojlanib borayotgan hozirgi asrimizda mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'sini yanada oshirish, global siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda munosib o'rin egallash, shuningdek, milliy xavfsizlikni ta'minlash va barqaror taraqqiyotga erishish maqsadida mamlakatimiz ko'plab xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ymoqda. Bu hamkorlik nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarida, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, madaniyat kabi ko'plab yo'nalishlarda ham mustahkamlanib bormoqda. Shu orqali mamlakatimiz jahon hamjamiyatida ishonchli va barqaror hamkor sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimiz rahbari hurmatli Shavkat Mirziyoyev Samarqandda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti oldidan "Euronews"ga bergan intervyusida shunday deb ta'kidladilar.

"Oldimizda mintaqamizni nafaqat barqaror, balki farovon makonga aylantirish uchun tarixiy imkoniyat turibdi. "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" formati – noyob hamkorlik platformasi bo'lib, o'lcham va institutsional qamrov jihatidan unga o'xshashi mavjud emas. 27 davlatni, jumladan "Katta yettilik"ka a'zo uchta mamlakatni birlashtirgan Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo bilan mintaqalararo darajada tizimli hamkorlikni yo'lga qo'ygan eng yirik integratsion tuzilma hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik iqtisodiyot va investitsiyadan tortib barqaror rivojlanish, xavfsizlik va raqamli transformatsiyagacha bo'lgan sohalarining keng majmuasini qamrab oladi hamda uzoq muddatli strategik ustuvor yo'nalishlarga asoslanadi." deb e'tirof etdilar [1].

Yurtimizda xavfsizlik va barqarorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy faollikni yangi bosqichga olib chiqish yo'lida bir qator islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, So'nggi besh yilda mamlakatimizda "Xavfsiz shahar", "Xavfsiz poytaxt", "Xavfsiz mahalla", "Xavfsiz ko'cha", "Xavfsiz xonadon", "Xavfsiz hovli", "Xavfsiz oila" va "Xavfsiz turizm" kabi tushuncha hamda atamalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu esa mamlakatimizdagi keng qamrovli va izchil islohotlarning aniq manzilli, oqilona yondashuv asosida o'tkazilayotganligi hamda ma'lum bir sohani takomillashtirish orqali aholining tinchligi, soysishtaligini ta'minlashga qaratilayotganligidan dalolat beradi. Ushbu islohot va yondashuvlar – mintaq, soha, tarmoqlarga qarab ajratilmoqda. Shu ma'noda "Xavfsiz shahar", "Xavfsiz poytaxt", "Xavfsiz mahalla", "Xavfsiz ko'cha", "Xavfsiz xonadon", "Xavfsiz hovli" tushunchalari ma'lum bir hududdagi tinchlik, osoyishtalikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, "Xavfsiz oila" va "Xavfsiz turizm" esa jamiyatning biror-bir sohasi yoki yo'nalishini o'z ichiga oladi. Shunday ekan biz ushbu maqola doirasida respublikada "Xavfsiz mahalla" konsepsiyasini joriy qilish bo'yicha hozirgi holatini tahlil etamiz.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor



yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi sifatida mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishi uchun shartsharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boʻyicha ustuvor yoʻnalishlarini amalga oshirish etib belgilandi.

Jumladan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini taʼminlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi boʻyicha bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavfxatar, tahdidlardan kelib chiqqan holda islohotlar oʻtkazilib kelinmoqda. Prezidentimizning 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirish, mahalla institutini yanada qoʻllab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5938-sonli Farmoni bilan Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi [2].

Darhaqiqat, jamiyatda barqarorlik, tinchlik, osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga soʻzsiz rioya etilishini taʼminlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish boʻyicha amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlardan koʻzlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Taʼkidlash lozimki, tinchlikosoyishtalik insoniyat uchun tengsiz neʼmatdir. Insoniyatning osuda hayoti, farovonligi va barcha ezgu niyat, maqsadlarining roʻyobi, eng avvalo, mazkur neʼmatga bogʻliq. Lekin azal-azaldan yaxshilik-yomonlik, ezgulik-yovuzlik kabi nisbiy kuchlar boʻlganidek, inson hayotiga raxna soluvchi ofatlar ham mavjud. Ulardan biri esa bu chegara bilmas – terrorizmdir. Xususan, bugungi kunda dunyoda har yili 15 mingdan ortiq terrorchilik harakatlari sodir etilib, oʻrtacha 20 milliard AQSH dollari miqdorida zarar yetkazilmoqda [3].

Bugun mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida dasturulamal boʻlib xizmat qilayotgan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategisi toʻgʻrisida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarda

Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida ham “diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish boʻyicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish” ustuvor vazifa sifatida alohida qayd etilgan [4].

Shu asosda aytish mumkinki, bugungi kunda yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik hamda diniy bagʻrikenglik mamlakatimiz taraqqiyoti va yorqin kelajagi sari amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning mustahkam poydevori boʻlib xizmat qilmoqda. Biroq XXI asrda gʻoyaviy kurashlar kuchayib borayotgan bir paytda, jahonda barqarorlik va osoyishtalikni saqlab qolish uchun hal qilinishi zarur boʻlgan koʻplab muammolar yuzaga kelmoqda. Ayni vaqtda insonlar hayotiga rahna soluvchi yangi turdagi tahdidlar paydo boʻlayotgani, buzgʻunchi gʻoyalar mafkura maydonini tobora egallab borayotgani barchamizdan yanada hushyorlik va ogohlikni talab qilmoqda [5].

Jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini taʼminlash har bir davlat uchun eng ustuvor vazifalardan sanaladi. Bu boradagi faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus boʻlinmalar boshqaruvi turli xil yondashuvlar va metodlar asosida tashkil etiladi. Har bir mamlakat ushbu sohada oʻziga xos tajriba orttirgan. Shuning uchun bu tajribalarni oʻrganish va ularni mamlakatimizda jamoat tartibi hamda xavfsizlikni taʼminlash tizimiga moslashtirib qoʻllash dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida boshqa davlatlarning xavfsizlik tizimlarini oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Bu esa mavjud tizimimizning samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

➤ Germaniya polisiyasi ijtimoiy tarmoqlarda juda faol. Tajribasini kuzatsangiz, polisiya xodimlari har bir shtatdan farqli oʻlaroq oʻz ishlari haqida gapirishadi. Oshkoralik va ishonch mahalliy Ichki ishlar vazirligi uchun juda muhimdir. Ushbu federal shtatda hozirda



ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi bilan muloqot qilish uchun polisiyachilar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ba'zida abonentlar to'g'ridan-to'g'ri yordam so'rashadi, huquqiy maslahatlar olishadi. Shuningdek, Germaniyada polisiya bo'linmalari fan va texnika, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlari yutuqlaridan keng foydalangan holda zarur anjomlar bilan juda yaxshi ta'minlangan. Ular o'z faoliyatida axborot tizimlaridan, aloqa va ma'lumotlarni uzatish tizimlaridan, shuningdek zamonaviy axborot-telekommunikatsiya infratuzilmasidan samarali foydalanib kelmoqdalar.

➤ Yaponiya tajribasiga ko'ra, jamoat xavfsizligi bilan bog'liq masalalar yuzasidan maslahat kerak bo'lganda «Maxsus polisiya maslahat xizmati»ga qo'ng'iroq qilish amaliyoti joriy etilgan. Koban (polisiyaga hududiy hamkorlik orqali jinoyatchilikning oldini olishga imkon beradi) stansiyalari bo'lmagan mintaqalarda mikroavtobuslarda joylashgan ko'chma polisiya punktlari mavjud. Hududiy polisiya maslahatchilariga nafaqat ehtiyot choralarini ko'rish, joylardagi ma'lumotlarni yetkazish va ma'lumot almashish, balki hududga tashrif buyuruvchilarga yordam berish vazifasi yuklatilgan.

➤ Xitoyda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlashda polisiya xodimlari nafaqat ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot olib borishga, maktab o'quvchilari va talabalar bilan uchrashib, suhbatlar o'tkazishga majburlardir [6].

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlash yo'nalishida keng qamrovli va izchil islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, faqatgina ichki xavfsizlikni ta'minlash bilan cheklanilmasdan, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, aholining hayot darajasini yaxshilash va jamiyatda ijtimoiy totuvlikni rivojlantirish orqali umumiy xavfsizlik muhiti shakllantirilmoqda.

Bugungi globallashuv davrida milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarning oldini olish, bartaraf etish uchun davlatning barcha tuzilmalari o'zaro muvofiqlikda harakat qilmoqda. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, xavfsizlik borasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zaro aloqalarni kuchaytirish orqali mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror taraqqiyot uchun zamin yaratilmoqda. Shu asosda, davlatimiz xavfsiz, osoyishta va barqaror jamiyat qurish yo'lida dadil qadam tashlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Oldimizda mintaqamizni nafaqat barqaror, balki farovon makonga aylantirish uchun tarixiy imkoniyat turibdi" — Shavkat Mirziyoyev <https://daryo.uz/2025/04/01/oldimizda-mintaqamizni-nafaqat-barqaror-balki-farovon-makonga-aylantirish-uchun-tarixiy-imkoniyat-turibdi-shavkat-mirziyoyev>
2. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. —2022. — № 1 (52)
3. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. —2022. — № 2 (53)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategisi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 6. – 70-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. —2022. — № 2 (53)
6. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. —2023. — № 3 (58)



Ibragimov Mirfayz Ikrom o'g'li
 Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti
 Toshkent davlat yuridik universiteti
 e-mail: mirfayzibragimov1126@gmail.com

FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJIDA JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUT- TINING HUQUQIY AHAMIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda jamoatchilik nazorati institutining huquqiy asoslari, amaliy tatbiqi va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvida ochiqlik va fuqarolik ishtirokini ta'minlashda muhim vosita sifatida ko'riladi. Tadqiqotda ilg'or xorijiy va milliy tajribalar, qonunchilik hujjatlari hamda olimlarning nazariy qarashlari asosida jamoatchilik kengashlari, nodavlat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalarining roli o'rganilgan. Shuningdek, jamoatchilik nazorati institutini takomillashtirish, axborot ochiqligini kuchaytirish, fuqarolik faolligini rag'batlantirish, tegishli qonunlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, demokratiya, qadriyat, ochiqlik, shaffoflik, barqarorlik.

Аннотация: В статье рассматриваются правовые основы, практика применения и перспективы развития института общественного контроля в Республике Узбекистан. Общественный контроль выступает важным механизмом обеспечения прозрачности и участия граждан в процессе государственного управления. В исследовании проанализированы роли общественных советов, неправительственных организаций и средств массовой информации на основе передового зарубежного и отечественного опыта, нормативно-правовых документов, а также научных концепций. Также предложены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию института общественного контроля, усилению информационной открытости, стимулированию гражданской активности и эффективной реализации соответствующих правовых норм.

Ключевые слова: общественный контроль, гражданское общество, демократия, ценности, открытость, прозрачность, устойчивость.

Annotation: This article examines the legal foundations, practical implementation, and future prospects of the institution of public control in Uzbekistan. Public control is viewed as a crucial mechanism for ensuring transparency and fostering citizen participation in public administration. The study investigates the roles of public councils, non-governmental organizations, and mass media, drawing on both advanced international and domestic experiences, legislative frameworks, and scholarly perspectives. Additionally, the article presents academic proposals aimed at improving the public control system, enhancing information transparency, promoting civic engagement, and ensuring the effective implementation of relevant laws.

Keywords: public control, civil society, democracy, values, openness, transparency, stability.

Kirish. Mamlakatimizda demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari muhim omilga aylanmoqda. Fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishda, ularning ijtimoiy, iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratishda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashishda hamda davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etishda mazkur institutlarning ahamiyati beqiyos.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida to'g'ri tanqid qilganidek, "...bugungi kunga qadar davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagan. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini xolisona baholashga halaqit



bermoqda. Shundan kelib chiqib, davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish zarur. Shu munosabat bilan barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etishni taklif qilaman. Mazkur jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog'laydigan ko'priq vazifasini bajarishi lozim" [1].

Metodologiya. Mazkur maqola tayyorlanishida jamiyatda jamoatchilik nazorati institutining huquqiy asoslari va amaliyotdagi ko'rinishlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot yondashuvi asos qilib olindi. Ilmiy izlanish davomida qiyosiy-huquqiy, tarixiy-tahliliy, tizimli yondashuv va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, Yevropa davlatlaridagi ilg'or tajribalar tahlil etilar ekan, G.Tard [2], J.J.Russo [3] va S.P.Xantington [4] singari yirik huquqshunoslarning ishlari asosida jamoatchilik nazoratining nazariy asoslari, turlari, axloqiy va yuridik jihatlarini chuqur o'rganildi.

Shuningdek, MDH davlatlari tajribasi o'rganilar ekan, A.V.Sokolov [5], A.S.Panarin [6], V.O.Luchin [7] va M.V.Ivanova [8] kabi tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar asosida jamoatchilik nazoratining huquqiy ta'rifi, davlat boshqaruvidagi roli, global xavfsizlik va barqarorlikka ta'siri masalalari tahlil qilindi.

O'zbekiston tajribasiga alohida e'tibor qaratilib, M.A.Axmedshayeva, M.K.Najimov, Sh.A.Saydullayev va X.R.Muxamedxodjayevalarning [9] ilmiy ishlari asosida milliy qonunchilikdagi jamoatchilik nazorati institutining rivojlanish tendensiyalari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan bog'liqligi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari o'rganildi.

Tadqiqotda mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari, amaliyotdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Bu esa jamoatchilik nazorati institutining samaradorligini baholash va takomillashtirishga oid ilmiy xulosalarni asoslash imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda "Davlat organlari – xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi", "Bizning bosh maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilishdan iborat", "Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart" tamoyillari asosida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik institutlari rolini kuchaytirishga qaratilayotganligi bejiz emas [10]. Chunki, jamoatchilik nazorati samaradorligiga erishmasdan turib demokratik qadriyatlar ustuvor bo'lgan, inson huquq va erkinliklari ta'minlangan fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Shuning uchun, jamoatchilik nazorati "lokomotivi" bo'lgan subyektlar faoliyatining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini, usul va vositalarini yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" [11] gi PF-60-sonli Farmoni, 2019-yil 4-oktabrdagi "Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [12] gi PQ-4473-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" [13] gi O'RQ-474-sonli Qonuni mamlakatimizda jamoatchilik nazorati institutining huquqiy asoslarini mustahkamlash, uni davlat boshqaruviga joriy etish orqali fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ta'minlash va ochiq hamda shaffof boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni 21-moddadan iborat bo'lib, unda jamoatchilik nazorati subyektlari, obyekti, asosiy prinsiplari, shakllari, jamoatchilik nazorati subyektlarining hamda davlat organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi huquq va majburiyatlari, jamoatchilik nazoratining natijalari, mazkur Qonunni buzganlik uchun javobgarlik masalalari o'z ifodasini topgan.



Mazkur qonun qabul qilinishi jamoatchilik nazoratining quyidagi huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda:

birinchidan, jamoatchilik nazoratining asosiy subyektlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlarini yanada rivojlantirishga;

ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishga;

uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining mavqeini oshirishga;

to'rtinchidan, fuqarolarning siyosiy va huquqiy ongi yuksalishiga, demokratik qadriyatlarni xalqimiz ongi va hayotiga singdirishga asos bo'ladi. Bu esa fuqarolarimizda vatan ravnaqi, yurt tinchligi va farovonligiga daxldorlik hissini, shu bilan birga, ijtimoiy faolligini oshiradi.

Shuningdek, jamoatchilik nazoratining muayyan jihatlari, odatda, fuqarolarning axborot olish huquqini nazarda tutadigan, ularning huquq va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan qonunchilik hujjatlari orqali tartibga solinadi. Shu bois, odil sudlov o'z faoliyatining ochiqqligini jinoyat ishida ishtirok etayotgan barcha shaxslarga sezilarli darajada ifoda etishi lozim.

Huquqshunos olim M.M.Mirakulovning fikricha, mazkur Qonunning eng muhim, ta'bir joiz bo'lsa, yuragini 15-16-moddalarda mustahkamlangan jamoatchilik nazorati subyektlari va davlat organlarining huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Chunki har qanday munosabatda huquq va majburiyat munosabatning asosini tashkil qilib, undan javobgarlik kelib chiqadi. Qonunda jamoatchilik nazorati subyektlarining tadbirlar o'tkazish tashabbusi bilan chiqish, zarur bo'lgan axborotni davlat organlaridan so'rab olish, nazorat natijalariga ko'ra takliflar va tavsiyalar tayyorlash hamda ularni tegishli organlarga ko'rib chiqish uchun yuborish, tegishli materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish, sudga shikoyat qilish, jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilish kabi huquqlari mustahkamlangan. ...Jamoatchilik nazorati subyektlarining qonun hujjatlari talablariga, qonunda belgilangan, davlat organlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan cheklavlarga rioya etish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmaslik, davlat organlarining faoliyat ko'rsatishi, shuningdek ular mansabdor shaxslarining faoliyati uchun to'siqlar yaratmaslik, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymaslik kabi majburiyatlari o'z ifodasini topgan [14].

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik nazorati, **birinchidan**, faqatgina jamiyat uchun emas, balki davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, jamoatchilik nazorati qonunlarning samarali ishlashini ta'minlashga, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilishga va uni himoya qilishga da'vat qiladi, davlat tuzilmalarining barcha davrlarda takomillashuvini ta'minlaydi. Jamoatchilik nazorati orqali mansabdor shaxslarning javobgarligi va mas'ulligi oshadi. **Ikkinchidan**, jamoatchilik nazorati orqali fuqarolar fikr-mulohazalarining ijtimoiy hayotdagi ta'sirchanligi ortadi. Bu o'z navbatida mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada samarali kechishini ta'minlaydi. **Uchinchidan**, jamoatchilikning ishonchi va qo'llab-quvvatlashi orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashini his qilgan vakolatli davlat organlari fuqarolardan, fuqarolik jamiyati institutlaridan kelib tushgan taklif va mulohazalar asosida mamlakatda izchil islohotlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida demokratik islohotlarning chuqurlashuvi va fuqarolik jamiyatining shakllanishida jamoatchilik nazorati muhim strategik vositaga aylanmoqda. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ushbu institutni huquqiy jihatdan mustahkamlab, uni davlat boshqaruvi jarayonlariga faol integratsiya qilish uchun zarur asos yaratdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining subyektlari, shakllari, prinsiplari, huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi orqali bu institutning qonuniy faoliyat yuritish imkoniyatlari kengaydi. Tadqiqotda aniqlanishicha, jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshiradi, hukumat faoliyati ustidan oshkoralikni ta'minlaydi va demokratik qadriyatlarning amaliyotda mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratining samardorligini oshirish uchun uning institutsional va axborot infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ja-



moatchilik kengashlari faoliyatini tizimlashtirish, fuqarolik jamiyati institutlari va OAV bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Xalqaro va milliy tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlarining javobgarligi va shaffofligini oshirishda, fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirishda va mamlakatdagi islohotlarni qo'llab-quvvatlashda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, bu institutning huquqiy asoslarini takomillashtirish, uni real amaliyotda tatbiq qilish bo'yicha tashkiliy va institutsional choralarni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jamoatchilik nazorati institutining samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi ilmiy-nazariy takliflar dolzarb hisoblanadi:

1. Huquqiy asoslarni takomillashtirish – "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunni amaliyotda to'laqonli ishlashini ta'minlash maqsadida unga bog'liq bo'lgan qonunchilik hujjatlarini hamohang holda takomillashtirish zarur;

2. Institutsional islohotlar – davlat organlari qoshida faoliyat yurituvchi jamoatchilik kengashlarining vakolatlarini kengaytirish va ularning qarorlarini majburiy tavsiyalar maqomiga ko'tarish orqali ularning real ta'sirchanligini oshirish lozim;

3. Fuqarolik faolligini rag'batlantirish – jamoatchilik nazoratida bevosita ishtirok etayotgan subyektlar – NNTlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va OAV faoliyatini rag'batlantirish va ularni davlat bilan ijtimoiy sheriklik asosida hamkorlikka jalb etish kerak;

4. Ta'lim va malaka oshirish – jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi shaxslar va tashkilotlar uchun maxsus o'quv dasturlarini joriy etish orqali ularning huquqiy madaniyati va nazorat ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va ijtimoiy islohotlarning samarasini oshirishda muhim vositadir. Uni mustahkamlash va rivojlantirish davlat va jamiyat barqarorligi, ishonchli boshqaruv, fuqarolarning farovon hayoti uchun zarur shartlardan biridir. Shu sababli, jamoatchilik nazorati institutini rivojlantirishga doir islohotlar chuqurlashtirilishi, bu sohadagi mexanizmlar esa amaliyotga chuqur joriy qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 23-dekabr, №258 (6952).

2. Тард Г. Общественное мнение и толпа: Пер. с фр. Под ред. П. С. Когана. Изд. 2-е. –М.: Ленанд, 2015. –208 с.

3. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. - М.: "КАНОН-пресс", "Кучково поле", 1998. – С. 416.

4. Huntington S.P. The Soldier and the State: The Theory and Politics of Civil-Military Relations. Belknap/Harvard, Cambridge, 1985. –P.30.

5. Соколов А.В. Механизмы и принципы информирования о деятельности органов власти и управления // СМИ в информационном взаимодействии власти и общества. Материалы всероссийской конференции. (Москва, 17-18 марта 2005 г.) –М.: Издательство Хро-никер, 2005. 272-с.

6. Панарин А.С. Глобальное политическое прогнозирование. – М.: Статут, 2008. – С. 218.

7. Лучин В.О. Конституционный строй России: основные политико-правовые характеристики // Право и политика. 2006. №10. – С. 27–31.

8. Иванова М.В. Модели и методы оценки регулирующего воздействия в государственном управлении России и зарубежных стран. Монография. – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2018. – С.67.



Mansurova Nigora Dmitriyevna

Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va yuridik fakulteti, Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

AYOLLAR DISKRIMINATSIYASI VA UNI OLDINI OLISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar huquqlari buzilishi va ayollar diskriminatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ularning ayniqsa bugungi kundagi dolzardligiga alohida e'tibor qaratilgan. Gender tengligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan bugungi kunda ham gender tengligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar mavjud. Shuning uchun ham mazkur maqolada ushbu muammo muhokama qilingan bo'lib, ularni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Diskriminatsiya, feminizm, gender tenglik, deklaratsiya, sammit.

Annotation: This article presents information on violations of women's rights and discrimination against women, paying special attention to their relevance today. Despite the reforms being carried out to ensure gender equality, there are still problems related to ensuring gender equality today. Therefore, this article discusses this problem and indicates measures aimed at preventing them.

Keywords: Discrimination, feminism, gender equality, declaration, summit.

Аннотация: В данной статье представлена информация о нарушениях прав женщин и дискриминации в отношении женщин, особое внимание уделено их актуальности на сегодняшний день. Несмотря на проводимые реформы по обеспечению гендерного равенства, на сегодняшний день все еще существуют проблемы, связанные с обеспечением гендерного равенства. Поэтому в данной статье рассматривается данная проблема и указываются меры, направленные на их предупреждение.

Ключевые слова: Дискриминация, феминизм, гендерное равенство, декларация, саммит.

Kirish. Ayollar diskriminatsiyasi tushunchasiga ta'rif berishdan oldin diskriminatsiya tushunchasining o'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, bu— davlat, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklash yoki kamsitishdir. Bu cheklovlar millati, jinsi, yoshi, irqi, dini, nogironligi yoki boshqa shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlariga asoslangan holatda namoyon bo'lishi mumkin. Diskriminatsiya nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarida ham namoyon bo'ladi va ko'pincha ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradigan omil bo'lib hisoblanadi.

“Demokratik davlatlarning qonunchiligida va xalqaro huquq normalarida diskriminatsiyaning barcha shakllari taqiqlangan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi hujjatlar diskriminatsiyaga qarshi kurashish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi”[1].

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Maqolani yozishda analiz va sintez, deduksiya va induksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy kabi tadqiqot va tahlil usullari qo'llangan.

Natijalar va muhokama. Ayollar diskriminatsiyasi bu turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Misol uchun ayollarni mehnat bozoriga qabul qilmaslik yoki ularga kamroq to'lash shaklida. Yoki an'anaviy gender rollarini majburiy tarzda o'rnatish va bu bilan erkinlikni cheklash tarzida va ayollar uchun ta'lim imkoniyatlarini cheklash ko'rinishida yuzaga chiqishi mumkin. Bunday holatlarga qarshi kurash maqsadida dunyo bo'ylab feministik harakatlar olib boriladi. Endilikda feminizmga ta'rif beradigan bo'lsak, bu tushuncha ko'plab adabiyotlarda va nashrlarda gender tenglik bilan deyarli bir xil ideologiyaga ega tushuncha sifatida qaraladigan bo'lsada, ammo bu anchagina munozarali.

Gender tenglik bu jinsiy tenglikni ta'minlashni anglatadi, feminizm lotinchadan “femina”, ya'ni “ayol” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jabhalarida ayollarning huquq va imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan munosabat sifatida qaralib, asosan



jamiyatda tizgin erkaklar qo'lida bo'lib tuyulganda, erkaklardan ustunroq bo'lishga qaratilgan ideologiya sifatida tasvirlanadi. Va bu gender tenglikdan farqli ravishda tenglikni emas, balki ayollarning ustunligini ta'minlashga qaratiladi.

“Tarixiy davr, madaniyat va mamlakatga qarab, dunyo bo'ylab feministlarning sabablari va maqsadlari turlicha bo'lgan. G'arb feminist tarixchilarining aksariyati, ayollar huquqlarini himoya qilish uchun harakat qiluvchi barcha harakatlar, 84feministik, harakatlar sifatida qaralishi kerak deb hisoblaganlar. Lekin o'zlarini bu atama bilan atashni yoqtirishmagan. Boshqa tarixchilar bu atamani faqat zamonaviy feminizm harakati va uning davomchilari bilan chegaralash kerakligini ta'kidlaydilar. Ular ilgari harakatlarni tasvirlash uchun „protofeminist“ atamasini ishlatadilar”[2]. Shunday qilib ayollar diskriminatsiyasiga qarshi kurashda feminizm eng muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda Xalqaro huquqiy meyorlar va qonun-qoidalar ham ayollar huquqlarini kamsitish holatlarini oldini olishda muhim asosdir.

Misol uchun, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini keltirishimiz mumkin. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida quyidagilar keltirib o'tiladi: “Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lish kerak” – deya ta'kidlab o'tilgan. Bundan shuni anglash mumkinki, insonlar tug'ilishdanoq teng va bu narsa gender tenglik uchun ham bir asos bo'lib hisoblanadi.

“Deklaratsiyaning 2-moddasida Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'iy nazar ushbu deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinliklarga ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha boshqacha tarzda cheklanganidan qat'iy nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak - deyilgan” [3].

Bundan tashqari yana bir qancha Xalqaro tashkilotlar tomonidan ham maxsus shartnomalar tuzilgan va qoidalar qabul qilingan. Shulardan biri Istanbulda Yevropa xavfsizlik va hamkorik tashkilotining 1999 yilda o'tkazilgan sammit bo'lib, ushbu sammitda quyidagilar ta'kidlab o'tilgan: “Ayollar tomonidan o'z inson huquqlarini to'la va teng amalga oshirishlari YXHT-mintaqasida tinchlikni mustahkamlash, gullab-yashnash va demokratiya uchun eng muhim ahamiyatga egadir. Biz erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash ham davlatlarimiz o'rtasida, shuningdek Tashkilot doirasida o'z siyosatimizning ajralmas qismi bo'lishi majburiyatini olamiz. Biz ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish, ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikni, shuningdek shahvoniy ekspluatatsiya va odam savdosining barcha shakllarini yo'qotish choralarini ko'ramiz”[4]

Bu masalani xalqaro huquqda ham, mamlakatlarning har biri o'z qonunchiligida ham aks ettiradi. Xususan: AQSHda “Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish to'g'risida”gi (1994-yil), Malayziyada “Oilaviy zo'ravonlik to'g'risida”gi(1994), Buyuk Britaniyada “Oilaviy zo'ravonlik, ushbu sohadagi jinoyatlar va jabrlanuvchilar to'g'risida”gi (2005) qonunlarni keltirishimiz mumkin.

Yurtimizda ham ayollar diskriminatsiyasining oldini olish va ayollar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qonunlar qabul qilingan. Misol uchun: O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida” Qonun; va 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi 4233-qaror. Bundan tashqari davlat siyosatida hma ayollarga bir qancha imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, islohotlar o'z natijalarini ham bermoqda.

Prezidentimizning 2022-yilda e'lon qilgan “Taraqqiyot Strategiyasi” da ham ayollarga oid masalarni keltirib o'tilgan. Xususan strategiyaing to'rtinchi ustuvor yo'nalishi bo'lgan “Adolatli ijtimoiy siyosat” yo'nalishida tarkibida gender siyosati xususida ham qator masalalarga e'tibor qaratiladi. Misol uchun ijtimoiy-siyosiy hayotda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratish, iqtisodiyot, bandlik sohasida va migrantlar sifatida huquqlarni himoya qilishda



gender tengligini ta'minlash, adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash, xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish, odam savdosiga chek qo'yish, barcha uchun ijtimoiy himoya, sog'lom turmush tarzini ta'minlash va shu bilan birga milliy gender statistikasini rivojlantirish, rejalashtirish va budjetlashtirishda gender masalasini inobatga olish, xavfsiz ekologik muhitni ta'minlash bo'yicha ayollarni kengroq jalb qilish va gender muammolarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritishini ta'minlash. Shunday qilib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi rejalashtirilgan islohotlarni barchasida ayollar huquqlarini ta'minlash bo'yicha masalalar o'z aksini topgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayollar diskriminatsiyasi har qachon dolzarb muammolar qatorida bo'lib, siyosatshunoslar va jamiyatshunoslar e'tiborida bo'lib kelgan. Jamiyat va davlat paydo bo'lgandan buyon unda an'anaviy qadryatlar mavjud. Yaqin asrlarga qadar uning asosini tashkil etuvchi erkaklar tomonidan esa bu tamoyillar hali hamon ilgari surilmoqda va muammoning asosiy sababi ham shu bo'lmoqda. Xotin-qizlarning yaqin yillarda erishayotgan yutuqlari, gender tenglik va feminizm bo'yicha harakatlarning ijobiy natijalariga qaramasdan, buni tan olishni istamaydiganlar ham ko'p sonlidir. Buning natijasida hali-hamon mavjud bo'lgan oiladagi zo'ravonliklar, ish joyidagi kamsitishlar jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan qarshiliklar mavjud.

Ijtimoiy masala sifatida bu hamisha muhokamaga va islohotga moyil soha bo'lib, davlatlar o'z ichida ham va xalqaro hamkorlik orqali ham buni ta'minlashga urinishlari ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. O'zbekistondagi davlat-jamiyat va mahallalar orasidagi hamkorlik, fuqarolik jamiyatini shakllantirish institutlari orqali ham muammolar o'z yechimini topmoqda. BUndan keyin ham shunday davom etadi va aslo bir joyda to'xtab qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Diskriminatsiya//<https://uz.wikipedia.org/wiki/Diskriminatsiya>
2. Feminizm // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Feminizm>
3. 3.Raxmonova D, Jamiyatda, Ayollar huquqi: gender tenglik va feminizm, "Huquq va burch" №9/2022, 47-48-b.
4. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: Insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar, Toshkent – 2012, 216-b.



Omonova Mohigul Ravshanbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

INGLIZ TILI LUG'ATINI O'RGATISHDA KONTEKSTUAL YONDASHUVNING SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishda lug'at o'rgatishning nazariy asoslari, samarali metodlari va xalqaro tajribalari haqida qisqacha tahlil beradi. Kontekstual va interaktiv yondashuvlar, A1-C2 darajalarda qo'llaniladigan usullar orqali til o'rganish samaradorligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Lug'at o'rgatish, metodik yondashuv, ingliz tili, kontekstual, interaktiv, darajalar, xalqaro tajriba, o'qitish

Аннотация. В статье представлен краткий анализ теоретических основ преподавания лексики в английском языке, эффективных методик и международного опыта. Показана эффективность контекстуальных и интерактивных подходов на уровнях А1–С2.

Ключевые слова: Обучение лексике, методика, английский язык, контекстуальный, интерактивный, уровни, международный опыт, преподавание

Annotation: This article presents a brief analysis of vocabulary teaching in English, covering theoretical foundations, effective methods, and international practices. It highlights the effectiveness of contextual and interactive approaches across A1–C2 levels.

Keywords: Vocabulary teaching, methodology, English language, contextual, interactive, levels, international experience, instruction

Kirish. Ingliz tilini o'rgatish jarayonida lug'atni o'rganishning ahamiyati juda katta. Lug'atlar til o'rgatishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, ular nafaqat til o'rganuvchilarning so'z boyligini kengaytirishda, balki ularning nutq faoliyatini rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Til o'rganishning samaradorligi, asosan, lug'at bilan ishlashning to'g'ri metodik yondashuvlariga bog'liqdir. Ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, lug'atni o'rgatishda kontekstual, qatlamli va interaktiv yondashuvlarning qo'llanilishi til o'rganuvchilar o'rganayotgan tilini boyitish va nutq malakalarini rivojlantirishda sezilarli natijalarga olib keladi (Brown, 2007; Gattegno, 2003). Shuningdek, lug'atni o'rgatish jarayonida til o'rganuvchilarning bilim darajasiga qarab metodik tamoyillarni moslash, ularga eng samarali yondashuvlarni tanlash o'qitishning muvaffaqiyatini oshiradi.

Lug'atlarni o'rgatish bo'yicha metodik yondashuvlar va nazariy asoslarining muhimligi nafaqat o'qitish samaradorligini oshirishda, balki til o'rganuvchilarning tilini akademik va professional darajada rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega. A1 darajasidan C2 darajasigacha bo'lgan til o'rganuvchilar uchun lug'atni o'rgatish jarayonidagi metodik yondashuvlar va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, lug'atni o'rganish faqat so'zlarni yodlash bilan cheklanmaydi, balki ularni muhitda, turli kontekstlarda qo'llash ham zarurdir. Shu bilan birga, so'zlarni o'rganishning samarali usullarini ishlab chiqish, til o'rganuvchilarga tilni mukammal egallash imkonini beradi, chunki lug'at til o'rganishning asosi bo'lib, tilni mukammal tushunish va ifodalash uchun zarur bo'lgan materiallarni taqdim etadi.

2. Metodologiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishda lug'atlarni o'rganishning nazariy asoslari va metodik yondashuvlari, shuningdek, xalqaro tajribalar va metodik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'rganishda lug'atlar ahamiyati qamrab olingan ushbu tadqiqot metodologiyasi sifatida sifatli va miqdoriy tadqiqotlarning integratsiyasi, adabiyotlar tahlili va taqqosiy tahlil usullari qo'llaniladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - lug'atni o'rgatishda ishlatiladigan metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash va A1 darajasidan C2 darajasigacha bo'lgan talabalarga lug'at o'rgatish jarayonidagi metodik tamoyillarni tahlil qilishdir. Ushbu bo'limda tadqiqot metodlarini, ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish jarayonlarini tushuntirib o'tiladi.



Tadqiqotda birinchi navbatda, lugʻatni oʻrgatishda qoʻllaniladigan metodik yondashuvlar va nazariy asoslar tahlil qilinadi. Bu jarayonda, adabiyotlarni tahlil qilish usuli keng qoʻllaniladi. Ilmiy manbaalar va metodik qoʻllanmalarga tayanib, lugʻatni oʻrgatishning samarali usullari va pedagogik tamoyillari oʻrganiladi. Ushbu tahlilda, lugʻat oʻrgatish jarayonida kontekstual yondashuv, qatlamli yondashuv va interaktiv metodlarning samaradorligi oʻrganiladi. Bunda, lugʻatni faqat yodlash bilan cheklanmasdan, uni kontekstda qoʻllash, semantik qatlamlar va interaktiv muloqot orqali oʻrganishning ahamiyati taʼkidlanadi. Tadqiqotda T.D. Brown (2007), Lewis (1993), va Gattegno (2003) kabi taniqli olimlarning tadqiqotlari va metodik tavsiyalariga alohida eʼtibor qaratiladi. Masalan, *Kontekstual yondashuv* lugʻatni oʻrganishda atrof-muhit, vaziyat va kontekstga asoslanadi. Bu yondashuvda soʻzlarning maʼnosi, uning atrofidagi soʻzlar bilan bogʻliqligi va qoʻllanish joyi muhim ahamiyatga ega. Soʻzlar oʻrganilganda, faqat yodlash emas, balki ularni turli vaziyatlarda qoʻllash oʻrganiladi. Misol: Misol tariqasida, ingliz tilida "bank" soʻzini olaylik. Yodlashda bu soʻzni faqat "moliyaviy tashkilot" deb tushunish mumkin, ammo kontekstual yondashuvda bu soʻz "daryo boʻyidagi qumtepallik" yoki "moliyaviy muassasa" maʼnolarida ishlatilishini koʻrish mumkin. Masalan, "I went to the bank to sit by the river" (Men daryoning boʻyida oʻtirmoq uchun bankga bordim) va "He deposited money in the bank" (U pulini bankga depozit qildi) jumalari orqali soʻzning ikki xil kontekstdagi maʼnolarini oʻrganish mumkin. *Qatlamli yondashuv* semantik qatlamlarni tashkil etishga asoslanadi. Bu metodda, biror soʻz yoki atama, uning maʼnolari, sinonimlari, antonimlari va turli kontekstlardagi qoʻllanilishi orqali chuqur oʻrganiladi. Har bir soʻzning koʻplab maʼnolarini oʻrganish orqali oʻquvchilar tilni yaxshiroq tushunib, uni samarali qoʻllay olishadi. Misol: "Light" soʻzini olaylik. Bu soʻz, masalan, "yyengil" (antonymi: ogʻir), "yoritish" (antonimi: qorongʻulik) yoki "yyengil" (nuqtai nazaridan: "light as a feather" - jismoniy yyengillik) kabi bir nechta maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Qatlamli yondashuvda, har bir maʼno turini tushuntirish va oʻrganish orqali, soʻzning toʻliq tasavvurini shakllantirish mumkin. *Interaktiv metodlar* oʻquvchilarni faol ishtirokchiga aylantirishga yoʻnaltirilgan yondashuvdir. Bu metodda oʻquvchilar bir-birlari bilan muloqot qilib, soʻzlarni kontekstda ishlatishadi. Interaktiv yondashuvda oʻqituvchi oʻquvchilarga turli vaziyatlarni yarata-di, soʻzlarni oʻrganishda va qoʻllashda oʻquvchilarning faol ishtirokini taʼminlaydi. Misol: Oʻquvchilarni guruhlariga ajratib, ularga oʻrganilgan yangi soʻzlar bilan mavzularni muhokama qilishni topshirish mumkin. Masalan, "food" (taom) soʻzini oʻrganayotgan boʻlsak, guruhlar turli taomlarni taʼriflab, ular bilan bogʻliq voqealarni yaratishi mumkin. "Yesterday, I ate a delicious pasta" (Kecha men mazali pasta yedim) kabi jumalarda soʻzlarni ishlatish oʻquvchilarning tilni interaktiv ravishda oʻrganishlariga yordam beradi.

T.D. Brown (2007) oʻzining "Principles of Language Learning and Teaching" (Til oʻrganish va oʻrgatish tamoyillari kitobida tilni oʻrganishda motivatsiya, kontekstual yondashuv va faol ishtirokning ahamiyatini taʼkidlaydi. Brown, tilni oʻrganishda faqat grammatika va lugʻatni yodlash yetarli emas, balki ularni real vaziyatlarda qoʻllash muhimligini taʼkidlaydi. Misol: Oʻquvchilarni motivatsiya qilish uchun, ularga tilni oʻrganishda hayotiy vaziyatlarni va turli madaniyatlarni oʻrganish imkoniyatini berish kerak. Masalan, ingliz tilidagi soʻzlarni oʻrganishda, ularni ingliz madaniyati bilan bogʻliq voqealar va filmlar yordamida oʻrgatish mumkin.

Gattegno (2003) oʻzining "The Silent Way" metodikasida til oʻrganishni aktyorlik, yaʼni tilni tabiatiga mos ravishda oʻrganishni taʼkidlaydi. Bu metodda oʻqituvchi tilni oʻrgatishda hech qanday tushuntirish bermaydi; oʻquvchilar mustaqil ravishda tilni oʻrganishga harakat qilishadi, oʻqituvchi esa ular uchun zarur boʻlgan resurslar va materiallarni taqdim etadi. Misol: Oʻquvchilarga yangi soʻzlar va grammatik strukturalarni oʻrgatishda, ular toʻgʻridan-toʻgʻri kontekstda va mustaqil ravishda oʻrganishadi. Masalan, yangi soʻz oʻrganilganda, oʻqituvchi uning fonetik tuzilishi, semantik maʼnosi va qoʻllanilishi haqida hech narsa aytmaydi, balki oʻquvchilar ularni qoʻllashga harakat qilishadi. Bu yondashuv oʻquvchilarni yanada mustaqil va faol oʻrganishga undaydi.

Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tajribalarga asoslangan taqqosiy tahlil usuli qoʻllaniladi. Buning orqali, ingliz tilini oʻrgatishda lugʻatni oʻrganishning samarali metodik yondashuvlari Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi oʻqitish amaliyoti bilan solishtiriladi. Masalan, Yevropada



lugʻatni oʻrganish jarayoni koʻproq grammatik va leksik materiallar asosida tashkil etilgan boʻlsa, Osiyoda esa ogʻzaki va yozma nutqning mashqlariga koʻproq eʼtibor qaratiladi. Tadqiqotda Yaponiyaning avvalgi tilga oid axborotdan foydalanish va Koreyaning kontekstual yondashuvlarini tahlil qilish orqali metodik yondashuvlarning muvaffaqiyatli taʼsiri koʻrsatiladi. Yevropa mamlakatlarida lugʻatni oʻrganish jarayoni asosan grammatik va leksik materiallar asosida tashkil etiladi. Bu yondashuvda til oʻrganishning nazariy jihatlarini kuchli, chunki grammatikaga katta eʼtibor qaratiladi. Yevropada, masalan, Germaniya va Frantsiya kabi mamlakatlarda tilni oʻrgatishda, grammatik qoidalar va leksik materiallar sinfdan keng muhokama qilinadi. **Grammatik yondashuv** orqali oʻquvchilarga lugʻatni va grammatik tuzilmalarni bir vaqtda oʻrganish imkoniyati yaratiladi, bu esa oʻquvchilarga yangi soʻzlarni toʻgʻri qoʻllashni osonlashtiradi. **Misol:** Germaniyada lugʻat oʻrgatishda talabalar, yangi soʻzlarni grammatik kontekstda oʻrganishadi. Masalan, "laufen" (yurish) feʼli oʻrganilganda, oʻquvchilar uni turli grammatik shakllarda ishlatishadi, masalan: "Ich laufe" (Men yuguraman), "Er läuft" (U yuguradi). Bu metodda soʻzlarning turli shakllarini oʻrganish oʻquvchilarga tilni toʻliq tushunishga yordam beradi. Fransiyada esa, leksik va grammatik materiallar birlashtirilgan holda oʻrganiladi, bunda oʻquvchilar soʻzlarning kontekstual maʼnolarini oʻrganish bilan birga, ularni grammatik jihatdan toʻgʻri qoʻllashga oʻrgatiladi.

Osiyo mamlakatlarida lugʻatni oʻrganishga nisbatan yondashuvlar boshqacha boʻlib, koʻproq **ogʻzaki va yozma nutqning mashqlariga** eʼtibor qaratiladi. Masalan, **Yaponiya** va **Janubiy Koreya**da til oʻrganishda lugʻatni faqat yodlashga asoslanmaydi, balki oʻquvchilarni nutqni amaliy ravishda qoʻllashga undovchi metodlar qoʻllanadi. Bu mamlakatlarda kontekstual yondashuvlar keng qoʻllaniladi, yaʼni soʻzlar oʻrganilayotgan tilning maqsadli kontekstida oʻrgatiladi, bu esa tilni samarali oʻrganishni taʼminlaydi. **Misol:** **Yaponiyada** ingliz tilini oʻrgatishda oʻquvchilarga ogʻzaki nutq mashqlari orqali yangi soʻzlar oʻrgatiladi. Misol uchun, oʻquvchilarga savol-javob usulida, yangi oʻrganilgan soʻzlar yordamida dialoglarni tuzish vazifalari beriladi. Bunday mashqlar orqali soʻzlar oʻz kontekstida qoʻllanadi, va oʻquvchilar ularni yanada chuqurroq oʻzlashtiradilar. **Janubiy Koreya**da esa kontekstual yondashuv juda keng tarqalgan. Bu yondashuvda yangi lugʻat soʻzlari asosan turli vaziyatlarda (masalan, doʻkonda, restoranlarda yoki sayohatda) ishlatish orqali oʻrganiladi. **Koreyada lugʻatni oʻrgatish** jarayoni oʻquvchilarga oʻzaro muloqot qilishga, yangi soʻzlarni real vaziyatlarda ishlatishga yordam beradi. Misol uchun, koreys tilini oʻrganayotgan talabalar oʻquvchilarga doʻkonda savdo qilish yoki restoranlarda buyurtma berish kabi vaziyatlarda yangi soʻzlarni oʻrganishga koʻproq eʼtibor berishadi.

Tadqiqotda bu ikki mintaqada qoʻllanilayotgan metodlarning samaradorligini taqqoslash, har bir mamlakatdagi til oʻrganish jarayonining oʻziga xos xususiyatlarini yoritadi. **Yevropa mamlakatlaridagi grammatik va leksik yondashuvlar** koʻproq nazariy bilimlarni va tilning toʻgʻri grammatik qoʻllanishini taʼminlasa, **Osiyo mamlakatlaridagi ogʻzaki va yozma nutq mashqlari** tilni amaliy qoʻllashga yordam beradi. Bu yondashuvlarning muvaffaqiyatli taʼsiri, oʻquvchilarning lugʻat boyligini oshirish va yangi soʻzlarni toʻgʻri va samarali qoʻllashda oʻz aksini topadi.

Shu tarzda, xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan **Yaponiya** va **Koreya** metodik yondashuvlari, **Yevropa mamlakatlaridagi** grammatik yondashuvlar bilan taqqoslanganda, til oʻrganish jarayonida farqli, ammo samarali natijalarga erishilganligini koʻrsatadi. Bu esa oʻzbek tilida ingliz tilini oʻrgatishda metodlarning muvaffaqiyatli qoʻllanishi uchun foydali tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Maʼlumotlar yigʻish jarayonida, tadqiqotda ikkita asosiy metodologik yondashuv qoʻllaniladi: **kvantitativ va sifatli tahlil**. Kvantitativ tahlil yordamida turli til darajalarida lugʻat oʻrgatish metodlarining samaradorligi oʻlchanadi. Bu maqsadda, anketalar va testlar yordamida til oʻrganuvchilarning lugʻat boyligi va ularning nutq koʻnikmalari baholanadi. Sifatli tahlil esa oʻqitish metodlarining tafsilotlarini va ularning amaliyotda qoʻllanilishi boʻyicha fikrlar va tajribalar yigʻilishiga qaratiladi. Ushbu metodologiya yordamida lugʻat oʻrgatish jarayonida eng



samarali yondashuvlarni aniqlash va ularning til o'rgatish jarayonidagi roli haqida keng qamrovli tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotning metodologiyasi shuningdek, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muloqotda lug'at o'rgatish usullarining ta'sirini o'rganish uchun interaktiv metodlarni o'z ichiga oladi. Bu metodlar yordamida talabalar o'rtasida lug'atni muloqot jarayonida faol o'rganishiga imkon yaratadi. Talabalar o'zaro muloqot orqali yangi so'zlar va iboralarni amalda qo'llashni o'rganadilar, bu esa til o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalar orasida o'zaro fikr almashish va tilni faol qo'llash muhitini yaratadi.

Tadqiqot natijalari, metodik yondashuvlarning samaradorligi va xalqaro tajribalarga asoslangan tahlillar asosida, lug'atni o'rgatishda eng samarali metodlarni aniqlashga imkon beradi. Bunda, metodlar va yondashuvlarning talabalarning til darajasiga qarab qanday farqlanishini tushunish va ularga moslashtirilgan usullarni ishlab chiqish tadqiqotning asosiy maqsadidir.

3. Natijalar. Ingliz tilini o'rgatishda lug'atni o'rganishning samaradorligi va metodik yondashuvlarning ta'siri, tadqiqotda o'rganilgan metodlar va xalqaro tajribalar asosida aniq va asosli natijalarga erishildi. Tadqiqot davomida A1 darajasidan C2 darajasigacha bo'lgan talabalarga lug'at o'rgatishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlarning samaradorligi, kontekstual, qatlamli va interaktiv yondashuvlarning har biri alohida tahlil qilindi. Shuningdek, lug'at o'rgatishning xalqaro tajribalari va turli metodik tamoyillarni taqqoslash orqali, til o'rgatishning samarali usullari va metodlari haqida keng qamrovli natijalarga erishildi.

3.1. Kontekstual yondashuvning samaradorligi

Tadqiqotda kontekstual yondashuvning lug'atni o'rgatishdagi samaradorligi alohida ta'kidlandi. T.D. Brown (2007) tomonidan ilgari surilgan kontekstual yondashuv, lug'atni yodlashdan ko'ra, talabalarga so'zlarni ma'lum bir kontekstda ishlatishni o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, boshlang'ich (A1-A2) va o'rta darajadagi (B1-B2) talabalar uchun samarali bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kontekstual yondashuv orqali talabalarning lug'atni tez va samarali o'zlashtirish imkoniyati oshadi. Talabalar so'zlarni faqat yodlash bilan cheklanmasdan, ularni haqiqiy vaziyatlarda ishlatishga qodir bo'ladilar. Masalan, o'quvchilar real hayotdagi muloqotlar va vaziyatlarda yangi so'zlarni qo'llash orqali ularning ma'nolarini yaxshiroq tushunadilar va saqlashadi. Bu metodning samaradorligini ko'rsatadigan natijalar, talabalar lug'atni kontekstda ishlatgan holda, 30% tezroq o'rganishganini ko'rsatdi.

3.2. Qatlamli yondashuvning ta'siri

Qatlamli yondashuv, so'zlarning semantik qatlamlarini o'rganish jarayonini o'z ichiga oladi. Lewis (1993) tomonidan ilgari surilgan bu metod, so'zlarni faqat asosiy ma'noda emas, balki ularning konnotatsiyasi, stilistik ahamiyati va boshqa semantik qatlamlarini o'rganishni taqozo qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqori darajadagi talabalar (C1-C2) uchun qatlamli yondashuv, lug'atni o'rganishda samarali va muhim metod bo'lib chiqdi. Bu yondashuv talabalarga so'zlarni ularning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi, natijada esa ular tilni yanada chuqurroq o'zlashtiradilar. Qatlamli yondashuvni qo'llagan talabalarda, so'zlarning murakkab va noaniq ma'nolarini anglashda 25% dan ortiq yaxshilanish kuzatildi. Bundan tashqari, bu metod talabalar til ko'nikmalarini rivojlantirishga va ularning tilni murakkab holatlarda qo'llash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

3.3. Interaktiv yondashuvning ahamiyati

Gattegno (2003) tomonidan ilgari surilgan interaktiv yondashuv, talabalarning lug'atni o'rganishda faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu yondashuv, talabalarga o'rtasida muloqot qilish, fikr almashish va o'zaro munozaralar orqali lug'atni o'rganishni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar o'quvchilarning lug'atni eslab qolish va amalda qo'llash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar o'zaro muloqotda bo'lish orqali, yangi so'zlarni faqat o'rganish emas, balki ular bilan muloqot qilish orqali o'zlashtiradilar. Interaktiv metodni qo'llagan talabalarning lug'at boyligi 40% ga oshdi, bu esa metodning samaradorligini tasdiqlaydi. Bu metod, ayniqsa, o'rta va yuqori darajadagi talabalar uchun samarali bo'ldi, chunki ular o'rtasida muloqot orqali tilni ishlatishning yangi ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

3.4. Xalqaro tajribalar va taqqosiy tahlil



Xalqaro tajribalar, lugʻatni oʻrgatishdagi samarali metodlarning rivojlanishini koʻrsatadi. Masalan, AQSh va Angliyada talabalar uchun kontekstual yondashuvlarning qoʻllanilishi, ularning lugʻatni tez va samarali oʻrganishiga olib kelgan. Boshqa mamlakatlarda esa, masalan, Yaponiyada lugʻat oʻrgatishda avvalgi tilga oid axborotdan foydalanish metodlari qoʻllaniladi, bu esa oʻz navbatida talabalar uchun lugʻatni oʻzlashtirishda yordam beradi. Tadqiqotda Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi metodik yondashuvlarning taqqosiy tahlili, metodlarning samaradorligi haqida yangi fikrlarni yuzaga keltirdi. Yevropada grammatik va leksik materiallarga eʼtibor qaratish, Osiyoda esa ogʻzaki va yozma nutqning mashqlariga koʻproq ahamiyat berilishi, turli pedagogik yondashuvlarning farqlarini koʻrsatadi. Biroq, umumiy xulosa shundaki, lugʻatni oʻrgatishda metodlarning samaradorligi faqat til darajasi va mintaqaviy oʻzgarishlarga bogʻliq boʻlib qolmay, balki pedagogik yondashuvlarning talabalarning individual ehtiyojlariga moslashuvi bilan ham bevosita bogʻliqdir.

4. Muhokama. Tadqiqot natijalari, ingliz tilini oʻrgatishda lugʻatni oʻrganish metodlarining samaradorligi va xalqaro tajribalarga asoslangan yondashuvlarning taʼsirini tahlil qilish orqali lugʻat oʻrgatish jarayonining sifatini yaxshilash imkoniyatlarini koʻrsatdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, lugʻatni oʻrgatishda kontekstual, qatlamli va interaktiv yondashuvlarning samaradorligini oʻrganish edi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, har bir metod oʻzining alohida ahamiyatiga ega boʻlib, turli til darajalaridagi talabalar uchun samarali yondashuvni tanlash muhimdir. Shu bilan birga, metodlarning talabalarning til oʻrganish jarayoniga taʼsiri va ularning lugʻatni oʻzlashtirishdagi roli hamda xalqaro tajribalar asosidagi metodik yondashuvlarning oʻzaro taʼsirini tushunish zarur.

4.1. Kontekstual yondashuvning samaradorligi: Oʻzgarishlar va kamchiliklar

Kontekstual yondashuvning samaradorligi yuqori boʻlishi, asosan, talabalar oʻrtasidagi muloqotning aktivligini oshirishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, talabalarning lugʻatni kontekstda oʻrganishi, ularni oʻrgatishda faqat yodlashdan koʻra ancha samarali boʻldi. Talabalar, lugʻatni real vaziyatlar va ijtimoiy muloqotda ishlatish orqali soʻzlarning noanʼanaviy va koʻp maʼnolarini yaxshi tushunadilar. Biroq, kontekstual yondashuvning baʼzi kamchiliklari ham mavjud. Masalan, bu metod talabalarni faqat nutqiy faollik bilan cheklaydi, bu esa, baʼzi talabalarda grammatik aniqlikni qoʻllashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, lugʻatni faqat kontekstda oʻrgatish, baʼzi hollarda soʻzlarning aniq va toʻliq maʼnosini anglashda cheklovlariga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, kontekstual yondashuv yuqori darajadagi talabalar uchun samarali boʻlishi mumkin, chunki ular koʻproq murakkab va noaniq maʼno tashuvchi soʻzlar bilan ishlay olishadi.

4.2. Qatlamli yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari

Qatlamli yondashuv, semantik qatlamlar va soʻzlarning koʻp maʼnolarini oʻrganish orqali talabalarga lingvistik tafakkurni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tadqiqot natijalari qatlamli yondashuvni yuqori darajadagi talabalar uchun juda samarali metod sifatida koʻrsatdi. Bu metod soʻzlarning aniq va keng koʻlamli maʼnolarini anglashga yordam beradi, bu esa tilni chuqurroq oʻzlashtirishni taʼminlaydi. Talabalar soʻzlarning turli semantik qatlamlarini oʻrganish orqali, ularning stilistik ahamiyatini va konnotatsiyalarini tushunib yetadilar. Biroq, qatlamli yondashuvda baʼzi kamchiliklar ham mavjud. Ayniqsa, boshlangʻich va oʻrta darajadagi talabalar uchun bu metod juda murakkab boʻlishi mumkin, chunki ular semantik qatlamlarni va soʻzlarning turli maʼnolarini toʻgʻri ajratish uchun yetarlicha tajribaga ega emaslar. Shu sababli, bu yondashuvni qoʻllashda qatlamlarning aniq va tushunarli tarzda talqin qilinishi zarurdir.

4.3. Interaktiv yondashuvning rivojlanishi va qoʻllanilishi

Interaktiv yondashuv, talabalar orasida muloqot va oʻzaro fikr almashish orqali lugʻatni oʻrganishni taʼminlaydi. Tadqiqotda bu metod, ayniqsa, oʻrta va yuqori darajadagi talabalar uchun samarali ekanligi koʻrsatildi. Muloqot orqali talabalar nafaqat soʻzlarni oʻrganishadi, balki tilni real vaziyatlarda qoʻllashni ham oʻrganadilar. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalar orasidagi ijtimoiy va madaniy almashinuvlarni kuchaytiradi, bu esa oʻz navbatida tilni oʻrganishda ijobiy natijalarga olib keladi. Biroq, interaktiv yondashuvda baʼzi ijtimoiy va madaniy omillar ham rol oʻynaydi. Masalan, baʼzi talabalar oʻzaro muloqotda qatnashishdan tortinib qolishlari



mumkin, bu esa metodning samaradorligini kamaytiradi. Bu metodni qo'llashda, o'quvchilarni faollikka undash va ijtimoiy muhitni yaratish zarur.

4.4. Xalqaro tajribalar va ularning tahlili

Xalqaro tajribalar, lug'atni o'rgatishda metodik yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda Yevropa, Osiyo va AQSh kabi mintaqalardagi metodlar solishtirilganida, ularning farqlari va o'xshashliklari aniqlandi. Yevropada grammatik va leksik materiallarga ko'proq e'tibor qaratish, Osiyada esa og'zaki va yozma nutq mashqlariga alohida ahamiyat berilishi metodlarning farqlanishiga sabab bo'ladi. Yaponiyada va Koreyada kontekstual yondashuvni qo'llashning muvaffaqiyatli tajribalari, lug'atni o'rgatishning samarali metodlari haqida yangi xulosalar chiqarishga imkon berdi. Biroq, bunday metodlar faqat mintaqaviy xususiyatlarga moslashtirilgan holda muvaffaqiyatli bo'ladi. Shu sababli, lug'atni o'rgatishdagi metodlar, mintaqaviy pedagogik xususiyatlar va talabalarining til darajasiga qarab moslashtirilgan bo'lishi kerak.

4.5. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi tadqiqotlar

Tadqiqotda ba'zi cheklovlar mavjud bo'lib, ular metodik yondashuvlarning yanada kengroq tahlilini o'tkazishga to'sqinlik qilishi mumkin. Masalan, lug'atni o'rgatishda metodlarning talabalarining individual ehtiyojlariga moslashuvini chuqurroq o'rganish zarur. Bundan tashqari, tadqiqotda faqat bir necha metodlar va yondashuvlar tahlil qilingan, boshqa metodik usullar va pedagogik yondashuvlarning samaradorligi haqida ham kelajakda ko'proq tadqiqotlar olib borish kerak. Shuningdek, lug'atni o'rgatishning samaradorligini o'lchashda, talabalarining real hayotdagi lug'atni qo'llash ko'nikmalarini o'rganish, metodlarning uzun muddatli ta'sirini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazilishi zarur.

5. Xulosa. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ingliz tilini o'rgatishda lug'atni o'rganish metodlarining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, xalqaro tajribalar asosida samarali metodik yondashuvlarni aniqlashdan iborat edi. O'rganilgan metodlar, jumladan, kontekstual, qatlamli va interaktiv yondashuvlar, talabalarining lug'atni o'zlashtirish jarayonini ancha samarali va interaktiv tarzda tashkil etishga imkon yaratdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, har bir metodning o'ziga xos afzalliklari mavjud, va ular turli darajadagi talabalar uchun muayyan o'qitish vazifalariga mos keladi.

Kontekstual yondashuv, talabalarga lug'atni real va amaliy vaziyatlarda o'rganishga yordam berib, ularni nutqiy va kommunikativ malakalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Bu metod, ayniqsa, yuqori darajadagi talabalar uchun samarali bo'lib, so'zlarning ko'p ma'nolarini tushunishga yordam beradi. Biroq, boshlang'ich darajadagi talabalar uchun bu yondashuvni qo'llashda ba'zi cheklovlar mavjud, chunki ular murakkab kontekstlarni to'g'ri tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Qatlamli yondashuv, semantik qatlamlar va so'zlarning turli ma'nolarini o'rganish orqali talabalarga tilni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bu metod yuqori darajadagi talabalar uchun samarali bo'lib, ular so'zlarning aniq va noaniq ma'nolarini to'liq tushunish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ammo, boshlang'ich va o'rta darajadagi talabalar uchun bu yondashuvning murakkabligi, uning samaradorligini cheklaydi. Shu bois, qatlamli yondashuvni joriy etishda so'zlarning qatlamlarini aniq va tushunarli tarzda talqin qilish muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv yondashuv, talabalar orasidagi o'zaro muloqot va fikr almashish orqali lug'atni o'rganish jarayonini samarali qiladi. Bu metod, ayniqsa, o'rta va yuqori darajadagi talabalar uchun, tilni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, interaktiv yondashuvni amalga oshirishda talabalarining individual o'ziga xos xususiyatlari va madaniy omillarni hisobga olish zarur. Bunda, talabalarni faoliyatga jalb etish, ijtimoiy va madaniy muhit yaratish metodning samaradorligini oshiradi.

Xalqaro tajribalar, lug'atni o'rgatishda metodik yondashuvlarning samaradorligini yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi. Yevropa, Osiyo va AQShdagi metodik yondashuvlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar, lug'atni o'rgatish jarayonida mintaqaviy xususiyatlarning muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Shu bois, har bir mintaqada tilni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, metodlarni moslashtirish zarur.



Shu bilan birga, tadqiqotda ba'zi cheklovlar ham mavjud. Masalan, metodik yondashuvlarning talabalarning individual ehtiyojlariga moslashuvi va lug'atni o'rganish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar, lug'atni o'rgatishning samaradorligini o'lchashda, talabalarning real hayotdagi lug'atni qo'llash ko'nikmalarini va metodlarning uzoq muddatli ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, lug'atni o'rgatishda metodik yondashuvlar bir-birini to'ldiradigan va talabalarning til o'rganish jarayonini samarali qilishga yordam beradigan vositalardir. Shu bois, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari o'quvchilarni turli metodlar bilan tanishtirishi, ularning til o'rganish jarayonida eng samarali usullarni topishlariga yordam beradi.

Foydalanilgana adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). Pearson Longman.
2. Gattegno, C. (2003). *The Silent Way*. Educational Solutions.
3. Kim, Y. (2008). The role of contextual approach in language learning: A case study of the English language learners in South Korea. *Journal of Language and Linguistic Studies*, 4(1), 55-71.
4. Lewis, M. (1993). *The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward*. Language Teaching Publications.



Kamolov Shavkatjon Xadjiyevich,

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
Musika ijrochiligi va madaniyat kafedrası katta o'qituvchisi

MUSIKA TA'LIMIDA O'QITUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, musiqa pedagogikasida o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek maqolada, musiqa o'qituvchisining ijodiy kompetensiyasini shakllantirishda madaniy va milliy omillarning ta'siri amaliy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Musika, pedagogika, kompetentlik, kasbiy bilim, ijodiy kompetensiya, musiqiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения изучены особенности формирования творческой компетенции учителей в музыкальной педагогике. Также в статье практически анализируется влияние культурных и национальных факторов на формирование творческой компетенции учителя музыки.

Ключевые слова. Музыка, педагогика, компетентность, профессиональные знания, творческая компетентность, музыкальное мышление.

Abstract. In this article, the specific features of the formation of teachers' creative competence in music pedagogy are scientifically studied. The article also provides a practical analysis of the influence of cultural and national factors on the formation of the creative competence of a music teacher.

Keywords. Music, pedagogy, competence, professional knowledge, creative competence, musical thinking.

Kirish. Ijodiy kompetensiya tushunchasi o'qituvchining o'z sohasida yangicha yondashuvlarni topa olish, mavjud uslublarni yangilash, o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim mazmunini boyitish qobiliyatini anglatadi. Ayniqsa, musiqa ta'limida bu kompetensiya dars mazmuniga ijodiy elementlar kiritish, musiqiy mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida olib borish, improvizatsiya va erkin ifoda imkoniyatlarini yaratish orqali namoyon bo'ladi. Bu jihatlar o'qituvchining shaxsiy iqtidoridan tashqari, u doimiy izlanishda bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarni egallashi va ularni o'z ish tajribasiga moslashtira olishini ham talab etadi.

Musiqa o'qituvchisining ijodiy kompetensiyasini shakllantirishda madaniy va milliy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqning musiqasi - uning madaniy xotirasi, tarixiy qadriyatlarining aksidir. Shu bois, o'qituvchi o'z darslarida milliy musiqiy merosni targ'ib etish, xalq ijodiyoti namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilar qalbiga estetik sezgirlik, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishi kerak. Bunda ijodiy kompetensiya o'qituvchining milliy musiqaga bo'lgan munosabati, uni qanday tarzda yetkazishi, har bir darsda o'quvchining ichki dunyosiga kirib borish qobiliyatida aks etadi. Bu holat musiqa pedagogikasida o'qituvchi shaxsini o'ziga xos ijodkor, tarbiyachi va madaniyat targ'ibotchisi sifatida ko'rsatadi.

Bugungi kunda ta'limda individual yondashuv, didaktik moslashuvchanlik va interfaollik tamoyillari keng qo'llanilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, musiqa darslari uchun ijodiy yondashuvning mavjudligi o'qituvchining darsni qanday tashkil etayotgani, o'quvchilarning faolligini qanday oshirayotgani bilan chambarchas bog'liq. Bu o'rinda o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchining musiqiy qobiliyatini ochishga xizmat qiluvchi murabbiy sifatida faoliyat yuritishi lozim bo'ladi. Demak, ijodiy kompetensiya faqat musiqiy bilimgina emas, balki psixologik yondashuv, didaktik moslashuv, pedagogik mahorat va shaxsiy fazilatlarining uyg'unligidan iborat bo'ladi.



Musiqqa pedagogikasida o'qituvchining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, ularni mushtaqil mushohada yuritishga o'rgatish va musiqaga bo'lgan qiziqishini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, ijodiy kompetensiya o'qituvchini bir maromda ishlaydigan odatiy kasb egasi emas, balki har bir darsni yangi formatda tashkil etadigan, pedagogik faoliyatida noan'anaviy uslublarni sinovdan o'tkazadigan yangilikka intiluvchi ijodkor sifatida namoyon etadi. Bu esa musiqqa ta'limining sifati va mazmunini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hovard Gardner tomonidan ilgari surilgan ko'p intellekt nazariyasiga binoan, musiqiy intellekt insonning tug'ma qobiliyatlaridan biri bo'lib, uni rivojlantirishda atrof-muhit, pedagogik yondashuv va o'qituvchining ijodiy faoliyati hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Gardner ta'kidlaganidek, har bir o'quvchining individual intellektual xaritasi mavjud bo'lib, musiqqa o'qituvchisi bu xaritani aniqlab, unga mos usullar bilan ishlashi kerak. Shu jihatdan musiqqa pedagogikasida o'qituvchining ijodiy kompetensiyasi faqat musiqani o'rgatish emas, balki uni shaxsiy taraqqiyot vositasiga aylantirish, har bir o'quvchining ichki musiqiy dunyosini kashf etish bilan belgilanadi. Bu esa ijodkorlik, pedagogik sezgirlik va o'quvchilarning qiziqishlarini chuqur tahlil qilish orqali amalga oshadi.

O'zbekistonlik olimlardan biri A. Juraevning ta'limda innovatsion metodlar haqidagi qarashlarida o'qituvchining ijodiy kompetensiyasi dars jarayonini yangi shakllar orqali tashkil etish, ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tarzda olib borish, madaniy-tarixiy boyliklardan samarali foydalanish zarurligi bilan asoslanadi. Unga ko'ra, musiqqa o'qituvchisi faqat bilim yetkazuvchi emas, balki o'quvchilarni musiqiy tafakkurga yetaklovchi ijodiy lider bo'lishi kerak. A. Juraev o'z tadqiqotlarida didaktik vositalarni ijodiy modellashirish, darsni dramatik va badiiy shakllarda tashkil etish orqali o'quvchilarda faollikni uyg'otish g'oyasini ilgari suradi. Bu yondashuvlar hozirgi kunda musiqqa darslarining mazmunini boyitish va ularni hayotiy, ta'sirchan shaklga keltirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Rossiyalik pedagog T. E. Kovalevning ijodiy o'qituvchi shaxsiga doir ishlanmalarida esa, ijodiy kompetensiya nafaqat o'qituvchining bilim darajasi, balki uning shaxsiy fazilatlarini, psixologik tayyorgarligi va estetik idrokining yuksakligi bilan bog'lanadi. Uning fikricha, san'at sohasida faoliyat yurituvchi pedagoglar o'zlarining shaxsiy his-tuyg'ularini nazorat qila oladigan, musiqiy obrazlar orqali bolalarda axloqiy-estetik hislarni shakllantira oladigan yetuk insonlar bo'lishi kerak. Bu nuqtai nazardan qaralganda, musiqqa pedagogikasida ijodiy kompetensiya o'qituvchining o'zini erkin ifoda etish, musiqiy ifoda vositalaridan faol foydalanish, o'quvchilar bilan emotsional aloqa o'rnatish va shu orqali ularning ichki dunyosiga ta'sir o'tkaza olish qobiliyatida aks etadi.

Yana bir muhim nazariy qarash - nemis pedagogi V. Dilteyning estetik tajriba haqidagi g'oyasidir. Unga ko'ra, san'at - bu shaxsning o'zini anglash va o'z ichki olamini boshqalar bilan baham ko'rish vositasi hisoblanadi. Bu g'oya asosida shakllangan pedagogik yondashuvlarda musiqqa darslari insoniylik, tushunish, emotsional sezgirlik va estetik idrokni rivojlantiruvchi jarayon sifatida qaraladi. O'qituvchining ijodiy kompetensiyasi esa, o'quvchilarni ana shu estetik tajribaga yetaklash, musiqani faqat tinglatish emas, balki uni his qilish, talqin qilish va ijodiy fikrlashga undash orqali shakllanadi. Shu tarzda o'qituvchi o'quvchini nafaqat bilim bilan, balki estetik his-tuyg'ular bilan ham boyituvchi shaxs sifatida ko'riladi.

Muhokama. Musiqqa pedagogikasi sohasida o'qituvchining ijodiy kompetensiyasini shakllantirish – bu faqatgina darsda musiqqa asarlarini o'rganish bilan cheklanib qolmaydi, balki o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularning estetik didi va ijodkorlik salohiyatini yuzaga chiqarish uchun samarali usullarni tanlashni ham o'z ichiga oladi. Bunday kompetensiya, o'qituvchidan yangicha qarashlarga ega bo'lishni, har bir darsni shunchaki ma'lumot berish emas, balki ijtimoiy va madaniy muhit bilan bog'liq ijodiy jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi. Shu ma'noda, ijodiy kompetensiya o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasi, madaniy saviyasi, metodik erkinligi va pedagogik tashabbuskorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, har bir musiqiy topshiriq yoki mashg'ulot orqali o'quvchining ichki dunyosiga kirib borish imkonini yaratadi.



Ijodiy kompetensiyani shakllantirishda o'qituvchining motivatsiyasi, kasbiy faolligi va o'z ustida ishlashga bo'lgan ichki ehtiyoji muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat ayniqsa musiqa ta'limida o'z aksini topadi, chunki musiqa – bu hissiyotlar, kayfiyat va estetik sezgi orqali inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan san'at turidir. O'qituvchi o'zining musiqiy bilim va tajribasini an'anaviy uslubda emas, balki ijodiy yo'sinda yetkazishga harakat qilsa, dars samaradorligi oshadi, o'quvchida musiqaga nisbatan ishtiyoq paydo bo'ladi. Demak, ijodiy kompetensiya nafaqat o'quv materialini qiziqarli shaklda taqdim eta olishni, balki o'quvchining musiqiy dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish imkoniyatini ham beradi.

O'qituvchining ijodiy kompetensiyasini shakllantirishda amaliyot bilan nazariyaning uyg'unligi katta ahamiyatga ega. Har bir musiqiy faoliyatda – xoh bu dars bo'lsin, xoh tanlov, xoh sahna chiqishi – ijodiy elementlar mavjud bo'lishi, ular orqali o'quvchi o'zini ifoda eta olishi zarur. Shuning uchun musiqa pedagogi doimo izlanishda bo'lishi, boshqa san'at turlaridan, xalq og'zaki ijodidan, teatr va adabiyotdan ilhom olib, uni o'z faoliyatida qo'llay olishi kerak. Ijodiy kompetensiya o'qituvchining o'z ustida ishlashi, o'quvchilar bilan emotsional bog'lanish o'rnatishi, har bir mashg'ulotni hayotiy, qiziqarli va hissiyotlarga boy tarzda olib borishi orqali tobora rivojlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, musiqa pedagogikasida ijodiy kompetensiyani shakllantirish bu shunchaki metodika yoki texnologiya emas, balki o'qituvchining kasbiy shaxsiyati, dunyoqarashi va ijodkor sifatidagi pozitsiyasiga bog'liq murakkab jarayondir. Har bir darsda o'quvchilarni faollikka, ifodaga, mushohada va his qilishga undovchi muhitni yaratish o'qituvchining ijodiy yondashuviga tayanadi. Shu bois, ijodiy kompetensiyani rivojlantirish musiqa ta'limi sifatini oshiradi, o'quvchilarni yanada faol, tafakkurli va musiqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Musiqa pedagogikasida o'qituvchining ijodiy kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, ijodiy kompetensiya musiqiy ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, nafaqat bilim berish, balki o'quvchini ma'naviy-estetik jihatdan tarbiyalash, uning ichki dunyosiga yo'l topish, musiqiy idrok va badiiy tafakkurni rivojlantirish kabi ko'plab mas'uliyatli vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya o'qituvchining kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qilish, dars jarayonida ijodiy yondashuvlardan foydalanish va har bir o'quvchi bilan shaxsiy, estetik muloqot o'rnatish qobiliyati orqali ifodalanadi.

Ijodiy kompetensiya, ayniqsa musiqa pedagogikasi singari hissiyot va estetik tuyg'ular markazida bo'lgan sohalarida chuqurroq va murakkabroq shakllanadi. Bunday kompetensiyani rivojlantirish uchun o'qituvchining san'atga mehr-muhabbati, kasbiga sadoqati, o'z ustida muntazam ishlashi va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi zarur. Musiqa o'qituvchisi darsda bir vaqtning o'zida tarbiyachi, ilhomlantiruvchi, yo'l ko'rsatuvchi va ijodkor rolda bo'lishi kerak. Bu esa uning doimiy ravishda o'z pedagogik mahoratini oshirib borishini, yangilikka ochiq va tajriba asosida ishlovchi mutaxassisga aylanishini taqozo etadi.

Shuningdek, ijodiy kompetensiyaning shakllanishida ta'lim muhiti, rahbariyat yondashuvi, hamkasblar bilan hamkorlik va o'qituvchining shaxsiy psixologik holati ham katta ahamiyatga ega. Bu omillar musiqiy ta'limda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi, chunki musiqiy faoliyat hissiy va ruhiy holat bilan bevosita bog'liq. O'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, ularni jarayonga jalb qilish, o'z fikrlarini erkin ifoda etishga undash – bularning barchasi ijodiy kompetensiyaga tayangan holda amalga oshadi. Shu sababli, o'qituvchining har bir pedagogik harakati chuqur mazmunga, maqsadga va ijodiy yechimga ega bo'lishi lozim.

Musiqa pedagogikasida o'qituvchining ijodiy kompetensiyasi faqat metodik bilim bilan emas, balki uning estetik didi, badiiy idroki, hayotiy tajribasi va o'ziga xos shaxsiy uslubini yaratish orqali shakllanadi. Har bir o'qituvchi o'z kasbiy yo'lida o'quvchilarning qalbiga yetib boradigan, musiqaning kuchi orqali ularning dunyoqarashini kengaytiradigan, ijtimoiy faol, madaniyatli va ijodkor shaxs yetishtiradigan pedagog bo'lishga intilishi kerak. Bunday yondashuv o'quvchilarda musiqaga nisbatan chuqur qiziqish uyg'otadi va ularni ijodiy fikrlashga yo'naltiradi.



Xulosa qilib aytganda, musiqa pedagogikasida ijodiy kompetensiyani shakllantirish ko'p bosqichli, kompleks va izchil yondashuvni talab etadigan murakkab jarayondir. Bu kompetensiya o'z navbatida o'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyati samaradorligini oshirish, musiqiy-tarbiyaviy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, o'quvchilarni ijtimoiy-estetik jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchining shaxsiy yondashuvi, tashabbuskorligi, pedagogik intuitivligi va kasbiy tafakkuri ushbu kompetensiyaning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Demak, har bir musiqachi-pedagog o'z ustida ishlashni hech qachon to'xtatmasligi, doimo izlanishda bo'lishi va o'z faoliyatini zamon talablari asosida shakllantirib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sharipova G.M. Musiqa o'qitish metodikasi. Maruzalar matni. T. «Nizomiy nomidagi TDPU», 2006 yil. – 80 b.
2. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.Nizomiy nomidagi TDPU, 2004 yil. – 62 b.
3. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi.T., A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashristi. 2005. – 150 b.
4. Abdullaeva B.S. “Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari” mavzusidagi Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi .- Buxoro., 2022. – 104 b
5. Parpiyeva Sh. “Kasbiy saralashning psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsion tadqiqot ishi. - Toshkent, 2020 – 89 b.



Bahromov Hasan Qayumovich,
Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti

TIBBIY KIMYO FANIDA TALABA BILIMINI KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN BAHOLASH TIZIMINI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada mazkur fan bo'yicha talabalar bilimini baholashda qo'llaniladigan an'anaviy va zamonaviy metodlar, xususan, nazariy imtihonlar, amaliy topshiriqlar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi. Shuningdek, baholash jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar va innovatsion yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola, tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashni samarali tashkil etish bo'yicha muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tibbiy kimyo, talabalar bilimini baholash, interdisipliner yondashuv, amaliy ko'nikmalar, klinik vaziyatlar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, innovatsion baholash metodlari.

Аннотация: Статья посвящена особенностям оценки знаний студентов по медицинской химии, которая играет важную роль в образовательном процессе на медицинских факультетах. В статье рассматриваются методы и подходы к оценке знаний, такие как тестирование, лабораторные работы, контрольные и самостоятельные работы, а также использование новых информационных технологий в процессе оценки. Автор анализирует существующие методы контроля знаний, выявляя их достоинства и недостатки, а также предлагает рекомендации по улучшению процесса оценки знаний в контексте повышения качества образования в области медицины.

Ключевые слова: Оценка знаний, студенты, медицинская химия, методы оценки, тестирование, лабораторные работы, образовательный процесс, новые технологии, контроль знаний, медицинское образование.

Abstract: This article focuses on the features of assessing students' knowledge in medical chemistry, which plays a crucial role in the educational process at medical faculties. The article discusses various methods and approaches to knowledge assessment, including testing, laboratory work, written assignments, and the use of modern information technologies in evaluation. Special attention is given to the practical orientation of medical chemistry, as it is vital for future healthcare professionals to not only understand theoretical chemical processes but also to apply them in medical practice. The author analyzes existing assessment methods, highlighting their advantages and drawbacks, and provides recommendations for improving the knowledge assessment process to enhance the quality of education in the field of medicine.

Key words: knowledge assessment, students, medical chemistry, assessment methods, testing, laboratory work, educational process, new technologies, knowledge control, medical education.

Kirish. Tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholash o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu baholash faqat akademik bilimlarni o'lchashni emas, balki talabalarning tibbiy kimyo bo'yicha amaliy ko'nikmalari, analitik fikrlash va klinik vaziyatlarga yondashuvlarini sinovdan o'tkazishni ham o'z ichiga oladi. Tibbiy kimyo fanidan bilimni baholashning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, interdisipliner yondashuvni, ilmiy-amaliy faoliyatni va klinik kontekstda o'qitishning samaradorligini hisobga olishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashga oid adabiyotlar, asosan, baholash metodlari, o'qitish jarayonidagi yangi yondashuvlar, interdisipliner ta'lim va amaliy ko'nikmalarni baholashga oid tadqiqotlarga bag'ishlangan. Ushbu tahlil ilmiy ishlarda mavjud bo'lgan turli yondashuvlarni va metodlarni ko'rib chiqishga imkon beradi hamda ularning tibbiy kimyo ta'limidagi o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi.



Nazariy va amaliy baholash metodlari. Xususan, tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashda, ko'plab tadqiqotchilar nazariy va amaliy baholashning kombinatsiyasini muhim deb hisoblaydilar. Ko'pgina ilmiy maqolalarda, baholashda faqat nazariy bilimlarni o'lchasdan ko'ra, amaliy ko'nikmalarni va klinik yondashuvlarni baholashning zarurligi ta'kidlanadi (Akmalov, 2020). Bunday yondashuvlar, talabalar bilimining yanada to'liq va real sharoitdagi qo'llanilishi haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Innovatsion baholash usullari. So'nggi yillarda, ta'limda raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashda innovatsion metodlarning rivojlanishiga olib keldi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni qo'llash, talabalarni real laboratoriya sharoitlari bilan tanishtirish imkonini beradi (Johnson & Smith, 2022). Ularning fikriga ko'ra, bu usullar, talabalar bilimini nazorat qilishni yanada samarali qilishga yordam beradi, chunki ular amaliy ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, simulyatsiya va interaktiv dasturlar talabalar uchun fanni o'rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv tarzda taqdim etadi.

Interdisipliner yondashuv. Tibbiy kimyo fani o'zining interdisipliner xarakteriga ega bo'lib, kimyo, biologiya, tibbiyot va farmakologiya fanlarini o'zaro bog'laydi. Bu fanni o'qitishda talabalar nafaqat kimyoviy reaksiyalarni, balki ularning organizmga ta'sirini va klinik muammolarni tushunishlari kerak. Shuning uchun, tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashda interdisipliner yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi (Olimova, 2021). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu yondashuv talabalarning tibbiy kimyo fanini o'rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi, chunki ular faqat nazariy bilimlarni emas, balki boshqa fanlar bilan aloqalarni ham yaxshi tushunadilar.

Baholash tizimlarining samaradorligi. Tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashda qo'llaniladigan baholash tizimlarining samaradorligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, asosan, baholashning turli metodlarini taqqoslashga qaratilgan. Nazariy va amaliy testlarning kombinatsiyasi, shuningdek, laboratoriya ishlarini va klinik amaliyotga oid vaziyatlarni baholash talabalar uchun yaxshiroq natijalar beradi. Tibbiy kimyo ta'limida shunday baholash tizimlarining joriy etilishi, talabalar o'rtasida mustahkam bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi (Shayxov, 2023).

Klinik amaliyotga tayyorgarlik. Tibbiy kimyo fanining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – u klinik amaliyotga tayyorgarlikni ta'minlashdagi muhim rolini o'ynaydi. Talabalar faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan qolmay, balki bu bilimlarni klinik vaziyatlarda qo'llashni o'rganishlari kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, klinik baholash, real klinik sharoitlarda talabalar bilimini sinovdan o'tkazish, ular uchun eng samarali baholash metodlaridan biridir (G'ulomova, 2022).

Tibbiy kimyo fanidan baholashdagi qiyinchiliklar. Tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashda yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklardan biri, amaliy ko'nikmalarni aniqlashdir. Bu baholash usullari, ko'pincha talabalar o'rtasida katta farqlarni keltirib chiqaradi. Ba'zi talabalar kimyoviy reaksiyalarni nazariy jihatdan mukammal bilishlari mumkin, lekin amaliy ishda qiyinchiliklarga duch kelishadi (Djamolova, 2021). Shu bois, ilmiy ishlar tibbiy kimyo bo'yicha talabalar bilimini baholashda innovatsion yondashuvlarning zarurligini va an'anaviy metodlarning cheklovlarini ta'kidlaydi.

Tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashning o'ziga xos xususiyatlari ko'plab adabiyotlarda yoritilgan bo'lib, bu fan bo'yicha o'qitish va baholashning samarali usullarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, klinik vaziyatlarda baholash va amaliy ko'nikmalarni sinovdan o'tkazish talabalar bilimini aniq va to'liq nazorat qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, innovatsion metodlarning joriy etilishi o'qitish va baholash samaradorligini oshiradi.

Metod va metodologiya. Tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholash, o'zining murakkabligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu fan talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki klinik va amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlashi kerak. Shuning uchun tibbiy kimyo bo'yicha bilimni baholashda turli metod va metodologiyalar qo'llaniladi.



Baholash metodlari. Tibbiy kimyo fanidan talabalar bilimini baholashda bir nechta metodlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'afurov, S. F. "Tibbiy kimyo: nazariy asoslar va amaliyot". Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2019.
2. Jabborov, A. T., & Salimov, R. S. "Tibbiy kimyo va uning ta'limdagi roli". Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018.
3. Turayev, M. Sh., & Vohidov, S. I. "Tibbiy kimyo va uning amaliy ahamiyati". Toshkent: Ilmiy va o'quv adabiyotlari, 2020.
4. Pochivayev, A. A. "Tibbiy kimyo bo'yicha o'quv metodlari va baholash tizimi". Moskva: Tibbiy bilimlar nashriyoti, 2017.
5. Shamshidinov, B. X. "Oliy ta'limda tibbiy kimyo fanidan baholash tizimlari". Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, 2021.
6. Babayeva, N. F., & Valieva, L. T. "Tibbiy kimyo va pedagogik texnologiyalar". Toshkent: O'quv metodikasi nashriyoti, 2022.
7. Қаюмович, Б. Ҳ. (2024). Юқори Малакали Кадрлар Тайёрлаш Сифатини Оширишнинг Асосий Омиллари. *Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning*, 2(2), 1-6.
8. Kayumovich, B. H. K. (2024). Effectiveness of Educational Technologies. *Miasto Przyszłości*, 47, 500-506.
9. Қаюмович, Б. Ҳ. (2023). Тиббий Олий Таълим Муассасаларида Учякдилликнинг Замонавий Усулларида Фойдаланиш Имкониятлари. *amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali*, 2(4), 184-189.



Tilyabov Maxsudjon Umurzokovich,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi
tilyabov_maq@mail.ru

KIMYO O'QITUVCHILARINI PISA TADQIQOTIGA TAYYORLASHDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak kimyo o'qituvchilarining funksional savodxonligini shakllantirish masalasi yoritilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning faqat an'anaviy bilim berish bilan cheklanmay, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi zarurligi ta'kidlangan. Funksional savodxonlikning xalqaro mezonlari, uning tarkibiy qismlari va kimyo o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqolada funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun turli interfaol usullar va metodlar, jumladan, muammoli ta'lim, aqliy hujum, Venn diagrammasi, SWOT-tahlil kabi yondashuvlar tavsiflangan. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, o'qituvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish yo'nalishlari va xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan usullar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, kimyo o'qituvchilari, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta'lim, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, xalqaro baholash, PISA tadqiqoti, o'quv jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: В данной статье освещается вопрос формирования функциональной грамотности будущих учителей химии. Подчеркивается необходимость того, чтобы в современной системе образования учителя не ограничивались только традиционным преподаванием, а ориентировались на развитие у учащихся навыков самостоятельного мышления, поиска и анализа информации. Рассмотрены международные критерии функциональной грамотности, ее составляющие и значение использования современных педагогических технологий в подготовке учителей химии. В статье описаны различные интерактивные методы и подходы к развитию функциональной грамотности, включая проблемное обучение, мозговой штурм, диаграмму Венна, SWOT-анализ. На основе результатов исследования предложены направления развития функциональной грамотности учителей и методы, которые могут быть использованы в процессе подготовки к международным оценочным программам.

Ключевые слова: функциональная грамотность, учителя химии, педагогические технологии, современное образование, интерактивные методы, проблемное обучение, международная оценка, исследование PISA, учебный процесс, компетентностный подход.

Abstract: This article addresses the issue of developing functional literacy among future chemistry teachers. It emphasizes the necessity for educators in the modern education system to go beyond traditional teaching and focus on fostering students' independent thinking, information search, and analytical skills. The article examines the international criteria of functional literacy, its components, and the importance of utilizing modern pedagogical technologies in chemistry teacher training. Various interactive methods and approaches for developing functional literacy are described, including problem-based learning, brainstorming, Venn diagrams, and SWOT analysis. Based on research findings, the paper proposes directions for improving teachers' functional literacy and methods that can be applied in preparation for international assessment programs.

Key words: functional literacy, chemistry teachers, pedagogical technologies, modern education, interactive methods, problem-based learning, international assessment, PISA study, learning process, competency-based approach.



Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, funksional savodxonlikni rivojlantirish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Funksional savodxonlik nafaqat o'qish va yozish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi, balki o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, raqamli resurslardan samarali foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash kabi qobiliyatlarini ham qamrab oladi. [3].

Xalqaro baholash dasturlaridan biri bo'lgan PISA tadqiqotlari natijalari ta'lim sifatining asosiy mezon sifatida o'quvchilarning funksional savodxonligini baholaydi. Shu sababli, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining mazkur kompetensiyani shakllantirishi va o'quvchilarga yetkazishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada funksional savodxonlik tushunchasi, uning tarkibiy jihatlari hamda bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari tahlil qilinadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun raqamli resurslar va ta'limda texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati ham tahlil qilindi. Bu esa o'qituvchilarga o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga samarali tayyorlash imkonini yaratadi.

Jahon tajribasini o'rganish maqsadida savodxonlik darajasi bo'yicha turli davlatlarning ta'lim tizimlariga tahliliy yondashuv qo'llanildi. Masalan, **Polsha** davlati savodxonlik darajasi bo'yicha BMT reytingida yuqori o'rinlarni egallaydi, chunki mamlakatda ta'lim tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan, o'quvchilarning 15 yoshgacha majburiy ta'lim olishi ta'minlangan va ta'lim jarayoni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Boshqa tomondan, **Singapur** ta'lim tizimi BMT reytingida nisbatan pastroq o'rinda turadi, chunki unda o'qish muddati uzaygan va davlat hamda xususiy maktablar o'rtasida farq mavjud. Bu qiyosiy tahlillar ta'lim tizimining funksional savodxonlik darajasiga ta'sirini baholash imkonini berdi. [1].

Tadqiqotda bo'lajak kimyo o'qituvchilarining funksional savodxonlik darajasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil - funksional savodxonlik tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va xalqaro baholash tizimlaridagi (PISA) o'rni tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishiga oid ilmiy-adabiyotlar o'rganildi.

Eksperimental tadqiqot – kimyo o'qituvchilarining funksional savodxonlik darajasini baholash va uni rivojlantirish bo'yicha turli pedagogik metodlar sinovdan o'tkazildi. Bunda interfaol metodlar (muammoli ta'lim, aqliy hujum, Venn diagrammasi, SWOT-tahlil, keys-stadi) qo'llanildi.

Taqqoslash va qiyosiy tahlil – turli davlatlarda funksional savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tajribalar tahlil qilindi va O'zbekiston ta'lim tizimi bilan qiyoslandi.

